Ключевые слова: реактивная мощность, коэффициент мощности, асинхронный двигатель, конденсаторное компенсирующее устройство, последовательная компенсация, параллельная компенсация.

Abstract: The article discusses, models and analyzes series and parallel capacitor compensating devices used to compensate for the reactive power of an asynchronous electric motor.

Keywords: reactive power, power factor, asynchronous motor, capacitor compensating device, series compensation, parallel compensation.

Kirish

Reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish elektr ta’minotida muhim - masalalardan biridir, uni to'g'ri hal qilish resurslarni sezilarli darajada tejash imkoniyatini beradini. Bu muammolar energetiklar tomonidan hal qilinadigan masalalarning umumiy majmuasida doimo muhim o'rin egallagan. Bugungi kunda ko'plab iste'molchilar uchun kompensatsiya qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishni keng joriy etish dolzarp masalalardan biridir.

Ishlab chiqarish quvvatlarining ortoishi elektr uskunalarning haddan tashqari yuklanishi yuzaga keladi. Bu holat elektr uskunalarning ishlashiga ham, elektr ta'minoti tizimining ishonchliligiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish vazifasini ham ma’lum darajada reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish orqali bajarish mumkin.

Sanoat korxonalari tomonidan energiya tizimlaridan iste’mol qilinadigan umumiy reaktiv quvvat balansida eng katta ulush asinxron dvigatellarga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun asinxron elektr dvigatellarining reaktiv quvvatni iste’molini kamaytirishda eng muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Sanoat korxonalarida reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish amalga oshiriladigan asosiy texnik vositalar quyidagilardan iborat: statik kondensatorlar; sinxron dvigatellar; sinxron kompensatorlar; kompensatsion o‘zgartkichlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoat korxonalarida statik kondensatorlar quvvatni kompensatsiya qilish vositasi sifatida eng ko‘p tarqalgan. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: yuqori samaradorlik; past energiya yo‘qotishlari; texnik xizmat ko‘rsatishning soddaligi; tejamkorlik; tezkor ishga tushirish; yuqori ishonchlilik. Ushbu afzalliklar tufayli statik kondensatorlar ko‘ndalang kompensatsiyada va reaktiv quvvatni boshqarishda keng qo‘llaniladi.


Tarmoq kuchlanishiga qarab, uch fazali kondensator batareyalari har bir fazada kondensatorlarning ketma-ket yoki parallel-ketma-ket ulanishi asosida bir fazali kondensatorlardan yig‘ilishi mumkin.

- **Ketma-ket ulanish** – Yuqori kuchlanishli tarmoqlarda qo‘llaniladi, chunki bu usul har bir kondensatorga tushadigan kuchlanishni kamaytiradi va izolyatsiya bardoshliligini oshiradi.
- **Parallel-ketma-ket ulanish** – O‘rtacha va past kuchlanishli tarmoqlarda qo‘llanadi, bu esa kerakli sig‘imni ta’minlash bilan birga, ishonchlilikni oshirish imkonini beradi.

Ushbu usullar kondensator batareyalarining ishlash barqarorligini ta’minlash va ularning elektr tarmoqlariga moslashuvchanligini oshirish uchun qo‘llaniladi.

Asinxron dvigatelning stator zanjiriga kondensatorlarni ulash orqali ishga tushirish usullaridan foydalanish eng samarali yechimdir. Kondensatorlar ishga tushirish vaqtida dvigatelga ketma-ket yoki parallel tarzda ulanadi. Ma’lumki, ishga tushirish rejimida kondensatorlarning sig‘imi nominal rejimdagiga nisbatan katta bo‘lishi kerak. Shu sababli, sig‘imi boshqariladigan kondensatorli ishga tushiruvchi-kompensatsiyalovchi qurilmalardan foydalanishga ehtiyoj tug‘iladi. Bu holda quvvat koeffitsienti yuqori bo‘lishi kerak [1].


Ketma-ket ulanadigan kondensatorli ishga tushirish qurilmasining sxemasi 1-rasmda ko‘rsatilgan. Asinxron dvigatel ishga tushgach, **K2** kontaktor **C** kondensatorini shuntlaydi.



1-rasm. Ketma-ket ulanadigan kondensatorli ishga tushirish qurilmasi.

ISSN 3030-3907

Parallel ulanadigan kondensatorli ishga tushirish qurilmasida (KIQ) dvigatel chulg‘amlariga kondensatorlar **C1** va **C2** parallel tarzda ulanadi. Ushbu qurilmaning sxemasi 2-rasmda ko‘rsatilgan. Asinxron dvigatel (AD) ishga tushgach, **K2** kontaktori **C1** kondensatorini o‘chiradi (ajratadi).



2-rasm. Kondansatorlari parallel ulangan kondensatorli ishga tushirish qurilmasi.

C1 va C2 kondansatorlarining parallel ulanishi hisobiga reaktiv quvvatni kompensatsiya qilishi tufayli motorning tarmoqdan oladigan ishga tushish toki kamayadi.

Ishga tushirish paytidagi motorning past quvvat koeffitsiyenti (0,2–0,3) reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish uchun katta sig‘imli kondansatorlardan foydalanishni talab qiladi. Bundan kelib chiqadiki, motor nominal aylanish tezligiga yetgandan so‘ng, C1 kondansatorini o‘chirish kerak, ish rejimlarida asinxron dvigatelning reaktiv quvvatini kompensatsiya qila oladigan C2 kondansatori esa ulangan holda qoladi. Shunday qilib, ishga tushirish kondansatori ish rejimidagi reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish uchun ishlatiladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Elektr tarmog‘ida aktiv va reaktiv quvvat nisbatini boshqarish hamda elektr energiyasi sifatini oshirish maqsadida reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish amalga oshiriladi. Buning uchun yuklamaga reaktiv quvvatni kompensatsiyalovchi qurilma ulanadi [4, 5]. Bunday qurilma o‘rnatilgach, reaktiv quvvat yuklama va generator o‘rtasida harakatlanmaydi, balki iste’molchi va kompensatsiyalovchi qurilmaning reaktiv elementlari o‘rtasida tebranishda bo‘ladi [6, 7].


Tadqiqot obyekti — bu aktiv-induktiv xarakterga ega elektr yuklama, xususan, asinxron dvigatellar bo‘lib, ular faqat aktiv quvvatni emas, balki energiya tizimidagi barcha yuklamalarning 60–65% gacha bo‘lgan reaktiv quvvatini ham iste’mol qiladi [8, 9].

ISSN 3030-3907

Tarmoqdan iste’mol qilinadigan reaktiv quvvatni kamaytirishning eng samarali usullaridan biri — bu reaktiv quvvatni kompensatsiyalovchi qurilmalardan foydalanishdir. Reaktiv quvvatni ketma-ket va parallel kompensatsiyasi uchun kondensatorli qurilmalarning modellari Matlab / Simulink dasturiy muhitida tayyorlandi.


Ketma-ket kompensatsiyaning modellash sxemasi, ketma – ket kompensatsiya ulanmagandagi va ulangandagi A fazadagi tok amplitudasining ossillogrammalari 3-rasmda keltirilgan. Ushbu Simulink modelda uch fazali asinxron dvigatelning yuklama ostida ishlash holati va reaktiv quvvatni kompensatsiya qilishga oid tizim tasvirlangan. Unda kompensatsiya qurilmasi uch fazali parallel RLC zanjir (Three-Phase Parallel RLC Branch) yordamida modellangan.

Parallel kompensatsiyaning modellash sxemasi, parallel kompensatsiya ulanmagandagi va ulangandagi A fazadagi tok amplitudasining ossillogrammalari 4-rasmda keltirilgan. Ush bu modellash sxemasida C1 va C2 kondensator bloklaridan foydalanilgan. C1 blok faqat asinxron dvigatelning ishga tushish jarayonida C2 blok esa doimiy ulangan bo‘ladi.




a

ISSN 3030-3907




b




c

3-rasm. Ketma-ket kompensatsiya
a-modellash sxemasi; b-ketma – ket kompensatsiya ulanmaganda; c- ketma ket kompensatsiya ulanganda

ISSN 3030-3907



a



b **c**

4-rasm. Parallel kompensatsiya

a-modellash sxemasi; b-parallel kompensatsiya ulanmaganda; c- parallel kompensatsiya ulanganda

MUHOKAMA VA NATIJALAR

0,4 kV tarmoqlarda reaktiv quvvatni avtomatik kompensatsiya qilishning ishlab chiqilgan modeli MATLAB va Simulink muhitida turli kondensator sig‘imlari uchun tadqiq qilindi. Kompensatsiyalovchi qurilmaning kondensator sig‘imi o‘zgargan holatlardagi model natijalari 4 va 5-rasmlarda keltirilgan.

Ishlab chiqilgan model bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, reaktiv quvvatni avtomatik kompensatsiya qilishning takomillashtirilgan

ISSN 3030-3907

boshqaruv tizimi texnik va ekspluatatsion jihatdan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan mos signallarni shakllantirish imkonini beradi.

Ketma-ket va parallel kompensatsiyalarning ulanmagan va ulangandagi ossillogrammalari 3 va 4-rasmlarda keltirilgan.

Asinxron dvigatellarda reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish uchun qo‘llaniladigan turli xil kondensatorli ishga tushirish-kompensatsiya qurilmalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ishga tushirish rejimidan ishchi rejimga o‘tilganda tok va elektromagnit momentda sezilarli tebranishlarga olib kelishi mumkin. Bunday holatni bartaraf etish uchun ishga tushirishning yakuniy bosqichida ishga tushirir kondensatorlarini asinxron dvigateldan uzib qo‘yish kerak.

Reaktiv quvvatni ketma-ket va parallel kompensatsiyasi uchun kondensatorli qurilmalarning modellari Matlab/Simulink dasturiy muhitida tayyorlandi. Modellardan asinxron dvigatellarda reaktiv quvvat kompensatsiyasining turli rejimlarini simulyatsiya qilish uchun foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Гандин Б.Д. Пуск асинхронных двигателей/ Б.Д.Гандин, Г.Р. Гревнин, Н.А. Лазаревский. – Л.: Судостроение,1998. – 192 с.
2. Бурман А. П., Розанок Ю. К., Шакарян Ю. Г. Управление потоками электроэнер-гии и повышение эффективности энергетических систем. – М.: Изд-во МЭИ, 2012. – 336 с.
3. Красник В. В. Автоматические устройства по компенсации реактивной мощности в электросетях предприятий. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Энергоатомиздат, 1983. – 136 с.
4. Вагин Г. Я., Севостьянов А. А., Юртаев С. Н. К вопросу о выборе источников ре-активной мощности на промышленных предприятиях // Промышленная энергетика. – 2012. – № 4. – С. 26–30.
5. Васюченко П. В., Кирисов И. Г., Овчаренко Т. И. Обоснование целесообразности компенсации реактивной мощности в условиях эксплуатации // Энергосбережение. Энерге-тика. Энергоаудит. – 2013. – № 7 (113). – С. 24–28.
6. Радкевич В. Н., Тарасова М. Н. Оценка степени снижения потерь активной мощно-сти в линиях электропередачи при компенсации реактивной мощности // Энергетика. Из-вестия высших учебных заведений и энергетических объединений СНГ. – 2016. – Т. 59, № 1.
– С. 5–13. DOI: 10.21122/1029-7448-2016-59-1-5-13
7. Malyar V. S., Dobushovska I. A. Reactive power compensation in asynchronous electric drives // Electrical Engineering & Electromechanics. – 2013. – № 5. – P. 36–38.

ISSN 3030-3907

8. Homaee O., Zakariazadeh A., Jadid Sh. Real-time voltage control algorithm with switched capacitors in smart distribution system in presence of renewable generations // Interna-tional Journal of Electrical Power & Energy Systems. – 2014. – Vol. 54. – P. 187–197. DOI: 10.1016/j.ijepes.2013.07.010
9. Черных И. В. Моделирование электротехнических устройств в MATLAB, SimPowerSystems и Simulink. – М.: ДМК Пресс; СПб.: Питер, 2008. – 288 с.
10. Chavez D., Espinosa S., Cazco D. A. Reactive Power Optimization of the Electric Sys-tem based on Minimization of Losses // IEEE Transactions on Power Systems. – 2016. – Vol. 14. – P. 4540–4546. DOI: 10.1109/TLA.2016.7795826
11. Chavez D., Espinosa S., Cazco D. A. Reactive Power Optimization of the Electric Sys-tem based on Minimization of Losses // IEEE Transactions on Power Systems. – 2016. – Vol. 14. – P. 4540–4546. DOI: 10.1109/TLA.2016.7795826

ISSN 3030-3907

XONA NAMLIGI VA HARORATINI “ARDUINO UNO” MIKROKANTROLLERI YORDAMIDA O‘LCHASH VA MONITORING QILISH

Ismoilov Ro‘zibek Rajabovich
Buxoro davlat texnika universiteti o‘qituvchi-stajyori
E-mail: rozibekismoilov51@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu loyiha xona namligi va haroratini “Arduino Uno” mikrokontrolleri yordamida o‘lchash va monitoring qilish tizimini ishlab chiqishga qaratilgan. Tizim DHT11 yoki DHT22 sensorlari orqali real vaqt rejimida namlik va harorat ma’lumotlarini yig‘adi, ularni Arduino Uno platformasida qayta ishlaydi va LCD displey yoki kompyuter interfeysi orqali foydalanuvchiga taqdim etadi. Loyiha oddiy va tejamkor yechim sifatida atrof-muhit sharoitlarini avtomatlashtirilgan nazorat qilish imkonini beradi, bu esa qulaylikni oshirish, energiya tejash va turli sohalarda, masalan, aqlli uylar yoki omborxonalarda foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega. Loyiha doirasida tizimning ishlash samaradorligi va aniqligi sinovdan o‘tkaziladi.

Kalit so‘zlar: Arduino Uno, Namlik sensori (DHT11 / DHT22), Harorat sensori, Atrof-muhit monitoring, Mikrokontroller, Raqamli o‘lchov tizimi, Real vaqt rejimi, LCD display (1602 LCD), Serial monitor, Sensorli o‘lchov, IoT (Internet of Things)

Аннотация. Данный проект посвящен разработке системы для измерения и мониторинга влажности и температуры помещения с использованием микроконтроллера Arduino Uno. Система собирает данные о влажности и температуре в реальном времени с помощью сенсоров DHT11 или DHT22, обрабатывает их на платформе Arduino Uno и отображает результаты на LCD-дисплее или через интерфейс компьютера. Проект предлагает простое и экономичное решение для автоматизированного контроля условий окружающей среды, что способствует повышению комфорта, экономии энергии и имеет важное значение для применения в различных областях, таких как умные дома или складские помещения. В рамках проекта проводится тестирование эффективности и точности работы системы.

Ключевые слова: Arduino Uno, датчик влажности (DHT11 / DHT22), датчик температуры, мониторинг окружающей среды, микроконтроллер, цифровая измерительная система, в реальном времени, ЖК-дисплей (1602 ЖК-дисплей), последовательный монитор, сенсорное измерение, интернет вещей (Интернет вещей)

Abstract. This project focuses on the development of a system for measuring and monitoring room humidity and temperature using the Arduino Uno

ISSN 3030-3907

microcontroller. The system collects real-time humidity and temperature data through DHT11 or DHT22 sensors, processes them on the Arduino Uno platform, and displays the results on an LCD screen or via a computer interface. The project offers a simple and cost-effective solution for automated environmental condition monitoring, enhancing comfort, energy efficiency, and applicability in various fields such as smart homes or warehouses. The system's performance and accuracy are tested within the scope of the project.

Keywords: Arduino Uno, humidity sensor (DHT11 / DHT22), temperature sensor, environmental monitoring, microcontroller, Digital Measurement System, Real-time mode, LCD display (1602 LCD), Serial monitor, touch scale, IoT (Internet of Things

Kirish

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan atrof-muhit sharoitlarini monitoring qilish va boshqarish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Xona namligi va harorati kabi parametrlarni aniq o‘lchash nafaqat odamlarning qulayligini ta'minlash, balki turli sohalarda, masalan, qishloq xo‘jaligi, omborxona boshqaruvi va aqlli uylar tizimida muhim ahamiyatga ega. Ushbu loyiha doirasida Arduino mikrokontrolleri yordamida xona namligi va haroratini o‘lchash va monitoring qilish tizimi ishlab chiqiladi. Tizim real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi. Loyiha oddiy, tejamkor va samarali yechim sifatida atrof-muhit sharoitlarini nazorat qilishni avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

Arduino yordamida xona namligi va haroratini o‘lchash va rostlashni ko‘rib chiqamiz. Bu jarayon sensorlardan ma’lumot olish va quyidagi kerakli qurilmalarni boshqarishni o‘z ichiga oladi:

1. **Arduino platasi** (masalan, Arduino Uno yoki Nano)
2. **DHT11 yoki DHT22 sensori** (harorat va namlikni o‘lchash uchun)
3. **LCD displey** (ma’lumotlarni ko‘rsatish uchun, ixtiyoriy)
4. **Rele moduli** (namlagich yoki ventilyator kabi qurilmalarni boshqarish uchun)
5. **Jumper simlari** va **breadboard**
6. **USB kabeli** (Arduino‘ni kompyuterga ulash uchun)
7. **Namlagich yoki ventilyator** (namlik yoki haroratni rostlash uchun, ixtiyoriy)

DHT11 va DHT22 sensorlari harorat va namlikni o‘lchash uchun ishlatiladigan raqamli sensorlar bo‘lib, Arduino va boshqa mikrokontrollerlar bilan keng qo‘llaniladi.


DHT11:

Harorat diapazoni: 0°C dan 50°C gacha (±2°C aniqlik).


Namlik diapazoni: 20% dan 80% gacha (±5% aniqlik).

ISSN 3030-3907

Ma’lumot o‘qish tezligi: har 1-2 soniyada yangilanadi.
Quvvat: 3.3V yoki 5V.
Arzon narx, oddiy loyihalar uchun mos.
Kamroq aniq, cheklangan diapazon.



DHT22:
Harorat diapazoni: -40°C dan 80°C gacha (±0.5°C aniqlik).
Namlik diapazoni: 0% dan 100% gacha (±2-5% aniqlik).
Ma’lumot o‘qish tezligi: har 0.5-2 soniyada yangilanadi.
Quvvat: 3.3V yoki 5V.
Yuqori aniqlik, kengroq diapazon.
DHT11 ga nisbatan qimmatroq.



Sensorlarni ichida ikkita asosiy komponent mavjud:
1. **NTC termistori** (Negative Temperature Coefficient): Haroratni o‘lchash uchun ishlatiladi. Termistorning qarshiligi harorat o‘zgarishi bilan o‘zgaradi, bu esa haroratni aniqlash imkonini beradi.
2. **Namlik sensori** (higrometr): Havodagi namlikni o‘lchaydi. Bu sensor odatda namlikka sezgir bo‘lgan maxsus polimer yoki materialdan iborat bo‘lib, namlik darajasiga qarab elektr signalini o‘zgartiradi.

Uskunani ulash


1. **DHT11/DHT22 sensori ulanishi**:
   - **VCC** pinini Arduino‘ning 5V piniga ulang.
   - **GND** pinini Arduino‘ning GND piniga ulang.
   - **DATA** pinini Arduino‘ning raqamli pinlaridan biriga (masalan, D2) ulang.

ISSN 3030-3907

- DATA piniga 10kΩ rezistor orqali 5V ga ulanish qo‘shing (pull-up rezistori sifatida).

2. **Rele moduli**:

- Rele’ning **VCC** va **GND** pinlarini Arduino‘ning 5V va GND pinlariga ulang.
- **IN** pinini Arduino‘ning boshqa raqamli piniga (masalan, D7) ulang.



Arduino dasturlash

DHT sensori bilan ishlash uchun **DHT library** kutubxonasini o‘rnatish kerak. Buni Arduino IDE orqali quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Arduino IDE’da **Sketch > Include Library > Manage Libraries** ga kiring.
2. “DHT” ni qidiring va **DHT sensor library by Adafruit** ni o‘rnating.

Dastur kodi:

```
#include <DHT.h>
#define DHTPIN 2    // DHT sensori ulangan pin
#define DHTTYPE DHT11  // DHT11 yoki DHT22
#define RELAY_PIN 7   // Rele ulangan pin
DHT dht(DHTPIN, DHTTYPE);
float minHumidity = 40.0; // Minimal namlik (%)
float maxHumidity = 60.0; // Maksimal namlik (%)
float maxTemp = 25.0;   // Maksimal harorat (°C)
void setup() {
 Serial.begin(9600);
 dht.begin();
 pinMode(RELAY_PIN, OUTPUT);
 digitalWrite(RELAY_PIN, HIGH); // Rele o‘chirilgan holatda
}
void loop() {
 delay(2000); // 2 soniya kutish
```


ISSN 3030-3907

```
    float humidity = dht.readHumidity();
 float temperature = dht.readTemperature();
 // Ma’lumotlarni tekshirish
 if (isnan(humidity) || isnan(temperature)) {
  Serial.println("DHT sensordan ma’lumot o‘qib bo‘lmadi!");
  return;
 }
 // Ma’lumotlarni Serial Monitor’da ko‘rsatish
 Serial.print("Namlik: ");
 Serial.print(humidity);
 Serial.print(" %\t");
 Serial.print("Harorat: ");
 Serial.print(temperature);
 Serial.println(" °C");
 // Namlik va haroratni rostlash
 if (humidity < minHumidity) {
  digitalWrite(RELAY_PIN, LOW); // Namlagichni yoqish
  Serial.println("Namlagich yoqildi!");
 } else if (humidity > maxHumidity) {
  digitalWrite(RELAY_PIN, HIGH); // Namlagichni o‘chirish
  Serial.println("Namlagich o‘chirildi!");
 }
 if (temperature > maxTemp) {
  // Ventilyatorni yoqish uchun boshqa rele ishlatilishi mumkin
  Serial.println("Harorat yuqori! Ventilyator yoqilishi kerak.");
 }
}
```

Rostlash logikasi

- **Namlikni rostlash**: Agar namlik minHumidity dan past bo‘lsa, rele orqali namlagich yoqiladi. Agar namlik maxHumidity dan yuqori bo‘lsa, rele o‘chiriladi.
- **Haroratni rostlash**: Agar harorat maxTemp dan yuqori bo‘lsa, ventilyator yoki sovutgichni yoqish uchun qo‘shimcha rele ishlatilishi mumkin.
- Yuqoridagi kodda chegaralarni (minHumidity, maxHumidity, maxTemp) o‘zingizning ehtiyojlaringizga moslashtiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.R. Ismoilov. Designing a signaling system using arduino uno. International multi disciplinary journalfor research & development Volume12, issue 05(2025).Pages: 275-279.

ISSN 3030-3907

2. Ismoilov, R. R., & Ibragimov, U. M. (2022). Automation in the tomato sorting process using information communication systems. International Bulletin of Applied Science and Technology, 2(11), 122-131.
3. R.R. Ismoilov. K-turdagi termopar harorat datchigi ishlash prinspini arduino uno yordamida tadqiq qilish. Journal of international scientific research Volume 2, Issue 5, February, 2025.Pages: 28-32.
4. Ибрагимов, У., & Имомов, Б. (2023). Свойства замкнутости класса кс языков. Евразийский журнал академических исследований, 3(10), 339-343.
5. Ibragimov, U. M., Qobilov, H. X., & Ismoilov, R. R. (2023). Sabzavotlarni saralash jarayonida transportyor lentaning sabzavot og ‘irligiga bardoshliligini solidworks cad/cam/cae tizimi simuliyatsiyasi orqali tekshirish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 438-445.
6. Ibragimov, U. M. (2022). Architecture for building the systems of storageandanalysisofbigdata. Экономикаисоциум,(5-1 (96)), 205-208.
7. R.R. Ismoilov. Arduino Uno mikrokontrollerining mahalliy jarayonlarda, xususan avtomatlashtirish sohasida qo‘llanilishi. “Surxondaryo viloyatida muhandislik va agrotexnologiyalar sohalarini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi iqtidorli talabalar, yosh olimlar, izlanuvchilar, magistrlar va doktorantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bag‘ishlangan I xalqaro anjumani. Termiz – 2025yil. Materiallari to‘plami 3-qism 68-70 betlar.

ISSN 3030-3907

SBSH-250 MN BURG‘ILASH DASTGOHI RESURS TEJAMKORLIGINI OSHIRISH

Zoxidov Odil Umirzokovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
E-mail: odil_boss85@mail.ru[1]
Sobirov To‘lqin Otamurodovich
“Navoiyuran” Davlat korxonasi bosh mexanigi
Bobokulov Avazbek Nigmatullayevich
NKMK AJ Bosh mexanigi o‘rinbosari
Sunnatov Samir Zafar o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Muruntov” konida ishlatilayotgan SBSH-250MN burg‘ilash dastgohining kompressor qurilmasini optimallashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Amaldagi 6VV-32/7 kompressori o‘rniga GA-160 markali zamonaviy kompressor qurilmfsini o‘rnatish taklif etiladi. Yangi kompressor qurilmasi burg‘ilash dastgohi energiya samaradorligini, ish unumdorligini va ishonchliligini oshiradi. Taklif etilgan texnik yechim kompressor uchun sarflanadigan ekspluatatsion xarajatlarni kamaytiradi. Natijada burg‘ilash uskunasining umumiy samaradorligi va resurstejamkorligi ortadi.

Kalit so‘zlar: Muruntov koni, burg‘ilash dastgohi, kompressor qurilmasi, Atlas Copco, energiya samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассмотрена задача оптимизации компрессорной установки бурового станка СБШ-250МН, используемого на рудника Мурунтау. Вместо существующего компрессора 6ВВ-32/7 предлагается установить современное компрессорное устройство марки GA-160. Новая компрессорная установка повышает энергоэффективность, производительность и надежность бурового станка. Предлагаемое техническое решение снижает эксплуатационные расходы компрессора. В результате повышается общая эффективность и ресурсосбережение бурового оборудования.

Ключевые слова: рудник “Мурунтау”, буровой станок, компрессорная установка, Atlas Copco, энергоэффективность.

Abstract: This article examines the problem of optimizing the compressor unit of the SBSH-250MN drilling rig used at the Muruntau field. Instead of the existing 6VV-32/7 compressor, it is proposed to install a modern GA-160 compressor unit. The new compressor unit increases the energy efficiency, productivity, and reliability of the drilling rig. The proposed technical solution reduces the operating

ISSN 3030-3907

costs of the compressor. As a result, the overall efficiency and resource saving of drilling equipment are increased.

Keywords: Muruntau mine, drilling machine, compressor unit, Atlas Copco, energy efficiency.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi elektr energiyasining asosiy iste’molchilaridan biri - foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish korxonalari hamda ularning elektr qurilmalari hisoblanadi. Ushbu korxonalarda ishlatiladigan texnologik qurilmalar, mexanizmlar va elektr tizimlari katta quvvat va katta hajmdagi elektr energiyasini talab qiladi. Elektr energiyasidan samarali foydalanish, ayniqsa, oltin konlarini o‘zlashtirishda texnologik jarayonlarni rivojlantirish va energiya iste’molini optimallashtirish bilan bog‘liq. Bu jarayonlarning samarali amalga oshirilishi esa energiya taqsimotini to‘g‘ri tashkil qilish, hisoblash va xarajatlarni aniq baholashga tayanadi. Energiya sarfini aniq hisoblash uchun esa texnologik qurilmalarning optimal ish rejimlarini aniqlash zarur.

Kompressor qurilmalari ko‘plab sanoat tarmoqlarining, jumladan kimyo, neftni qayta ishlash, gaz va avtomobil sanoatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi – ob’ektlarni o‘rnatilgan parametrlar asosida uzluksiz bosim ostida siqilgan havo bilan ta’minlash hisoblanadi. Kompressor qurilmalarining ishlashidagi buzilishlar butun tizimni yoki uning katta qismini to‘xtatib qo‘yishi mumkin, bu esa katta iqtisodiy zarar keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Burg‘ilash uskunasining resurs tejamkorligini va unumdorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlarida, shu jumladan: “Continental Conveyor & Equipment Company”, “Dos Santos International” (AQSH), Ural davlat konchilik instituti (Rossiya), Technische Universität Bergakademie Freiberg (Germaniya), Mining University in Xiuzhou (Xitoy), Institute of materials, minerals and mining (Buyuk Britaniya), “O‘zGEORANGMETLITI” davlat unitar korxonasi va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida (O‘zbekiston) olib borilmoqda. Shuningdek, Burg‘ilash uskunasining resurs tejamkorligini oshirishga qaratilgan nazariy va ilmiy muammolarni hal qilishda mashhur olimlar Poderni R.Yu., Kantovich L.I., Dmitriyev V.N. Kutuzov B.N., Narinskiy I.E., Vladislavlev V.S., Gerik B.L., Solod G.I., Solod V.I., Brenner V.A., Galkin V.I., Getopanov V.N., Maxmudov A.M., Toshov J.B., Atakulov L.N., Djurayev R.U., Egamberdiyev I.P., Antoniak J., Dhamodharan K., Dos Santos J.A., Hari Prasad K., Jagadeeswari M., Jennings A., Kamesh Gautham B., Klein J., Keerthika R., Langebrake F., Thompson M. va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shganlar [1].

ISSN 3030-3907

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada SBSH-250 MN burg‘ilash dastgohining resurs tejamkorligini oshirish masalasi o‘rganildi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi “Muruntov” konida ishlatilayotgan SBSH-250MN burg‘ilash dastgohining kompressor qurilmasini optimallashtirish va resurs tejamkorligini takomillashtirishdan iborat. Muruntov konida foydalanilayotgan burg‘ilash dastgohlarida mavjud 6VV-32/7 kompressori o‘rniga energiya samarador, ishonchli, resurs tejamkor va zamonaviy kompressor qurilmasi GA-160 markali Atlac Copco firmasining yangi kompressorini o‘rnatish taklif qilinadi. Taklif qilinayotgan kompressor qurilmasi, o‘z navbatida, burg‘ilash qastgohi energiya samaradorligini oshiradi, ishonchli ishlashni ta‘minlaydi va uzoq muddat xizmat qiladi. Taklif qilingan loyiha amalga oshirilsa, konchilik korxonalaridagi SBSH-250MN burg‘ilash dastgohlarining ish samaradorligi va resurs tejamkorligini oshirishda maqbul yechim hisoblanadi.

Muruntov konida hozirgi kunda asosiy burg‘ilash va portlatish ishlari uchun SBSH-250MN rusumli burg‘ilash dastgohi qo‘llanilmoqda. Ushbu zamonaviy burg‘ilash qurilmasi yordamida kon korxonalarida foydali qazilmalarni yumshatish maqsadida vertikal skvajinalar burg‘ilanadi. So‘ngra bu skvajinalarga portlovchi moddalar joylashtirilib, tog‘ jinslari yumshatiladi va yuklovchi-maydalovchi mexanizmlarga tayyorlanadi.

Dastgohlar yordamchi mexanizmlari elektrodvigatellari doimiy yuklama bilan uzoq rejimda (kompressorlar, nasoslar, ventilyatorlar elektrodvigatellari), doimiy yoki o‘zgaruvchan yuklama bilan qisqa muddatli rejimda (harakat mexanizmi elektrodvigatellari va boshqalar) ishlaydi.

So‘nggi yillarda olib borilgan amaliy tekshiruvlar, ishlab chiqarish kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, SBSH-250MN burg‘ilash dastgohida eng ko‘p nosozlik va ishdan chiqish holatlari aynan kompressor qurilmasida kuzatilmoqda. Ushbu qurilmaning ta’miri esa, ko‘p vaqt va mehnat resurslarini talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi.


Hozirda SBSH-250MN rusumli burg‘ilash dastgohida 6VV-32/7 tipidagi vintli kompressor qurilmasi o‘rnatilgan. Ushbu kompressor quyidagi texnik imkoniyatlarga ega:

- Havo sarfi: 30,5 m^3/min
- Siqish bosimi: 0,686 MPa
- Asosiy vazifasi: pnevmatik mashina va mexanizmlarni siqilgan havo bilan uzluksiz ta’minlash

Ushbu kompressor qurilmasi burg‘ilash jarayonida changni skvajinadan chiqarib yuborish, sovutish tizimi orqali burg‘ilash instrumentlarini himoya qilish

ISSN 3030-3907

va pnevmatik harakatlanuvchi qurilmalarga havo yetkazib berish kabi funksiyalarni bajaradi. Shu sababli, kompressor - burg‘ilash tizimining yuragi hisoblanadi.



1-rasm. SBSH-250MNA burg‘ilsh dastgohining 6VV-32/7 tipidagi kompressor qurilmasi;

1-bosim ushlab turuvchi klapan, 2-berkituvchi klapan, 3-saqlovchi klapan, 4-elektro dvigatel, 5-ajratuvchi mufta, 6-teskari klapan, 7-kompressor, 8-havo filtr, 9-bosim chiquvchi klapan, 10-boshqarish blogi, 11-moy filtr, 12-kesuvchi klapan, 13-qaytuvchi klapan, 14-elektr bilan ishlaydigan moy nasos, 15-moy to‘plovchi bak, 16-elektorli temperatura rele datchik, 17-bosim datchigi

Bugungi kunda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” (NKMK AJ) tarkibida jami 40 ga yaqin SBSH-250MN rusumli burg‘ilash dastgohi faoliyat yuritmoqda. Ushbu burg‘ilash uskunalariga quyidagi turdagi kompressorlar o‘rnatilgan bo‘lib shundan:

- 30 ga yaqin 6VV-32/7 tipidagi vintli kompressorlar;
- 10 ga yaqin ITA markali compressor qurilmalari qo‘llanilmoqda.

1-jadval

6VV-32/7 vintli kompressor texnik tavfsifi

№	Parametrlari	Birligi	Qiymatlari
1	Unumdorligi	m^3/min	32
2	Bosimi	Bar	7
3	Quvvati	kVt	200
4	O‘lchamlari: uzunlik, kenglik, balandlik	mm	3300/1125/2000
5	Og‘irligi	kg	2950

ISSN 3030-3907

Olib borilgan kuzatuv va tahlillar asosida aniqlanishicha, 6VV-32/7 tipidagi kompressorlar SBSH-250MN dastgohlarining ish samaradorligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu kompressorlarning ekspluatatsiya ishonchliligi past, xizmat muddati qisqa, texnik xizmat ko‘rsatish chastotasi yuqori bo‘ladi.

Shu bois, ushbu kompressor qurilmalarini zamonaviy, vibratsiyaga chidamli va energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan analoglarga almashtirish yoki mavjud qurilmalarda konstruktiv va texnologik modernizatsiya ishlarini olib borish taklifi beriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bir daqiqada burg‘ilangan tog‘ jinsini hajmiga qarab havo oqimini aniqlash:

$$Q_{havo} = 15\pi \cdot D_{skv.}^2 \cdot V_{max.bur} \cdot E_{havo} = 15 \cdot 3{,}14 \cdot 0{,}25^2 \cdot 0{,}067 \cdot 140 = 27{,}6\, m^3/min.$$

Bu yerda: $D_{скв.}$ – Skvajina diametri, m;

$V_{max.bur}$–Maksimal burg‘ilashtezligi, m/min.;

E_{havo} – 80 – 150 m^3/m^3 ga teng bo‘lgan 1 m^3 burg‘ilash zarralari uchun solishtirma havo sarfi.

1 m^3 havoni P_1 bosimidan P_2 bosimigacha siqish uchun sarflangan ishni aniqlaymiz:

$$W_{sq.} = 2{,}303 p_1 \cdot \lg\frac{p_2}{p_1} \cdot 10^5 = 2{,}303 \cdot 1 \cdot \lg\frac{7}{1} \cdot 10^5 = 1{,}97 \cdot 10^5\, J/m^3;$$

Kompressor dvigatelini quvvati:

$$P_{k.} = k_{zax.} \cdot \frac{Q_{havo} \cdot W_{sq.}}{60 \cdot \eta_k \cdot \eta_1} \cdot 10^{-3} = 1{,}1 \cdot \frac{27{,}6 \cdot 1{,}97 \cdot 10^5}{60 \cdot 0{,}7 \cdot 0{,}95} \cdot 10^{-3} = 150\, kVt$$

Bu yerda: $k_{zax.}$– elektr dvigatelining quvvat zaxirasi koeffitsienti: 1,1-1,25;

$W_{sq.}$– kompressor tomonidan so‘rilgan havoning 1 m^3 siqilishiga sarflanadigan ish

P_1 kompressor tomonidan hosil bo‘lgan bosimga, P_2, J/m^3;

Kompressorning FIK, (0,6 – 0,7);

Uzatish FIK, (0,97 – 0,99).

Kompressorni tanlash uchun texnik ma’lumotlarga ko‘ra asosiy parametrlar bilan himoyalangan versiyada MPE 150 – 200 dvigatelini tanlash:

P_n = 150 kVt; $\lambda_{max} = 2{,}2$; $\lambda_{pusk} = 1{,}1$.

Dvigatel tomonidan tarmoqdan iste’mol qilinadigan quvvat:

$$P_1 = \frac{P_n}{\eta_n} = \frac{150}{0{,}98} = 153{,}06\, kVt$$


Yuqoridagi hisoblashlar asosida burg‘ilash dastgohi kompressor qurilmasi uchun talab qilinadigan dvigatel quvvatini 160 kW quvvatli dvigatelni tanlab oladigan bo‘lsak maqsadga muvoggiq bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

GA-160 vintli moy bilan to‘ldirilgan havo yordamida sovutiladigan kompressor asosiy xaraktrestikasi

Ushbu kompressor stansiyasi asosan havoni siqib berish uchun xizmat qiladi. Burg‘ilash dastgohlari uchun maxsus kompressorlar qattiq tog‘ jinsini maydalaydigan SBSH-burg‘ilash dastgohlarida foydalanish uchun havo sovutgichli modifikatsiyalangan Atlas Copco firmasi tomonidan GA moy bilan to‘ldirilgan vintli kompressorlar ishlab chiqariladi. Ushbu kompressorlarga ortib borayotgan talablar hisobga olingan - juda chang sharoitlarda ishlash, o‘rnatish joyining kichik o‘lchamlari, namuna olish, tebranish va boshqalar hisoblanadi.

Kompressor o‘zining alohida asosiy ramasiga o‘rnatilib, barcha havo surish va uzatish quvurlari bilan jihozlangan. Kompressor stansiyasi havo bilan sovutiladi [2].



a) GA-160 kompressorining tuzilishi

b) GA-160 kompressorining tashqi ko‘rinishi

2-Rasm. GA-160 Maxsus tayyorlangan kompressorning umumiy ko‘rinishi

Kompressor tagligi (ramasi)da quyidagi maxsus qismlar o‘rnatilgan: vintli kompressor elementi, og‘ir kon sharoitida havo kirish filtri, havo kirish jarayonidagi kiritish klapani, havo bilan sovutish ventilyatori (umumiy ramadan alohida), namlik ajratgich, moy ajratuvchisi filtrlari, elektr dvigateli, IP5 sinifidagi himoya qurilmalari, dvigatelni yulduzchadan uchburchakga almashtirib qo‘shib beruvchi tizimi, tebranishga qarshi moslamalar (ustunlar), Elektronikon® monitoring va nazorat qilish tizimi, “yuklama-qayta ulab berish-to‘xtatish” boshqaruv tizimi, maxsus poydevor talab qilmaydigan mustahkam asosli rama mavjudligi.

2-jadval

GA160 kompressorining texnik xarakteristikasi

№	**Parametr nomi**	Birlik	Qiymat
1	**Ish bosimida ishlash**	m^3/min	27

ISSN 3030-3907

2	**Maksimal ish bosimi**	Bar	8.5
3	**O‘rnatilgan dvigatel quvvati**	kVt	160
4	**Chastota**	Gs	50
5	**Kuchlanish**	V	400
6	**O‘lchamlari; uzunlik, kenglik, balandlik**	Mm	3000/799 /1815
7	**Samaradorlikni o‘lchash shartlari**	ISO 1270 ga muvofiq, kompressor quvvati tushirishda FADda o‘lchanadi	

GA seriyali kompressorlarning moy tizimi juda ishonchli va samarali. Bu yuqori quvvatli payvandlangan moy ajratgichi, uning kompressor ichida vertikal joylashishi va yuqori samarali moy sovutgichi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, kompressorning gidravlik tizimida moy nasosi. Moy to‘g‘ridan-to‘g‘ri siqish bosqichida hosil bo‘ladigan ortiqcha bosim tufayli aylanadi, bu esa ishlashning ishonchliligini oshiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Muruntov” konida ishlatilayotgan SBSH-250MN burg‘ilash dastgohining mavjud 6VV-32/7 kompressori o‘rniga zamonaviy GA-160 markali Atlas Copco kompressorini qo‘llash texnologik va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekani aniqlangan. Ushbu kompressor qurilmasi energiya samaradorligini oshirish, ishonchli va barqaror ishlashini ta’minlash, shuningdek, resurs tejamkorligini takomillashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Taklif etilgan texnik yechim SBSH-250MN dastgohlarining umumiy samaradorligini oshirib, konchilik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli, GA-160 kompressorini joriy etish “Muruntov” koni burg‘ilash uskunalari ekspluatatsiyasida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гришко А.П. Стационарные машины. Том 2. Рудничные водоотливные, вентиляторные и пневматические установки: Учебник для вузов. –М.: Изд. «Горная книга», 2007. –586 с.

2. Миняев Ю. Н., Дмитриев В. Т. Энергосберегающие компрессорные технологии при эксплуатации пневмохозяйства промышленных предприятий // Энергоанализ и эффективность, 2004. – №4. – С. 46-48.

ISSN 3030-3907

MODIFIKATSIYALANGAN SILIKOGEL ASOSIDA GIBRID IONITLATNING OLINISHI VA XOSSALARI

Jumaeva Mukarram Ro‘zimurodovna
Buxoro davlat texnika universiteti, kimyoviy texnologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi.
Akramov Abror Yangiyevich
Buxoro davlat texnika universiteti, kimyoviy texnologiya kafedrasi doktoranti.
Ostonov Firuz Istamovich
Buxoro davlat texnika universiteti, kimyoviy texnologiya kafedrasi dotsenti.
E-mail: firuzostonov916@gmail.com
Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro davlat texnika universiteti, kimyoviy texnologiya kafedrasi professori.
E-mail: vohid7@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada, kroton aldegid oligomeri hamda mochevina asosida sopolimer sintez qilish optimal sharoitlari o‘rganildi. Sintez qilib olingan namunalar IK spektrlari olindi va spektrdagi cho‘qqilardan hosil bo‘lgan yangi bog‘lar aniqlanib, hosil bo‘lgan kompozitning struktural tarkibi chizildi. Olingan gibrid kompozit metall ionlariga nisbatan sorbsion xossalari tadqiq qilindi.

Kalit so`zlar: sorbsiya, gibrid ionit, kroton aldegid, silikogel, mexanik mustahkamlik, sorbent.

Аннотация: в данной статье изучены оптимальные условия синтеза сополимера на основе олигомера кротонового альдегида и мочевины. Полученные образцы были проанализированы с помощью ИК-спектроскопии, по пикам в спектре были идентифицированы вновь образовавшиеся связи и построена структурная схема полученного композита. Исследованы сорбционные свойства полученного гибридного композита по отношению к ионам металлов.

Ключевые слова: сорбция, гибридный ионит, кротоновый альдегид, механическая прочность, сорбент.

Annotation: this article investigates the optimal conditions for synthesizing a copolymer based on crotonaldehyde oligomer and urea. The obtained samples were analyzed using IR spectroscopy, newly formed bonds were identified from the spectral peaks, and a structural scheme of the resulting composite was constructed. The sorption properties of the obtained hybrid composite toward metal ions were studied.

Keywords: Sorption, hybrid ion-exchanger, crotonaldehyde, mechanical strength, sorbent.

Introduction

ISSN 3030-3907

Keyingi yillarda, ayniqsa sanoatlashish tobora jadallashishi bilan atrof-muhitni muhofaza qilish, sanoat chiqindilarini qayta ishlash va suvni tozalash maqsadida ion-almashinish materiallariga bo‘lgan talab va qiziqish jadal suratlar bilan ortmoqda. Ionitlar asoan metall ionlarini tanlab ajratib olish uchun, qayta tiklash va zararsizlantirish imkonini beradigan juda yuqori va samarali adsorbentlardir [3-5].

Shu bilan birga ionitlardan foydalanishda bir nechta kamchiliklarga duch kelinadi. Masalan tarkibi organik yoki noorganik moddalardan tashkil topgan ionitlar mexanik mustahkamligi, termik barqarorligi yuqori emasligi hamda ion-almashinish sig‘imining pastligidir [6-8].

Mavjud muammolar bo‘yicha respublikmiz hamda dunyo olimlari ilmiy izlanishlari tahlil qilib chiqilganda ular yechim sifatida gibrid yoki kompozit ionitlarni ko‘rsatishmoqda. Gibrid ionitlar ikki yoki undan ortiq turdagi materiallar – odatda, polimer asosidagi organik moddalar va noorganik mustahkamlovchi qismlarning bur necha xil nisbatda kombinatsiyasidan tashkil topgan moddalardir. Bunday tarkibli moddalar ularning ion-almashinish quvvatini, selektivligini, mexanik mustahkamligini va termik barqarorligini oshirishga olib keladi. Bunday turdagi gibrid sorbentlarga tarkibida kremniy saqlagan polimerlardir. Ular strukturasini belgilangan sorbet uchun sintez qilish imkonioni beradi [1-2].

Yuqorida aytilgan gibrid sorbentlar sintez qilish metodlarini o‘rganish maqsadida adabiyotlar o‘rganilganda, u sorbentlarda matrisa sifatida SiO_2 hamda kremniy organik brikmalardan foydalanilgan. Organik birikmalar tarkibida har xil funksional gruhlar (-COOH, $-NH_2$, =NH va boshqa) ning bo‘lishi belgilangan sorbatlarni tanlab sorbsiyalash xossasini beradi [9-10].


Slikagellar asosida sintez qilingan gibrid sorbent sifatida 3-xlor- va 3-aminopropil(trietoksi)silan modifikatsiyalab sorbent sifatida qo‘llanilgan. Shunday qilib, 3-aminopropil(trietoksi)silan bilan modifikatsiyalangan silikagel Cu^{2+} va Zn^{2+} ionlari uchun yuqori samarali sorbent ekanligi ta’kidlangan. Bu sorbent metall ionlarni asosan aminogruppalar va silikagel tarkibidagi silanol guruhlar hisobiga sorbsiyalashi aytib o‘tilgan [3].

Kremniy organik monomerlar bilan modifikatsiyalab olingan sorbentlar orasida eng ko‘p qo‘llaniladigani tio hamda disulfid gruhlar saqlagan birikmalardir. Bunda (trietoksil)silanning yuza qismiga tio hamda disulfid gruhlar biriktirish yo‘li bilan olingan. Bunday tarkibli sorbentlar palladiy (II) ionlari uchun sellektiv ekanligi aytilgan.

Kroton aldegidning polimerlash uchun uch bog`izli kolba termometr, qaytarma suvutgich, tomizgich varonka hamda magnitli aralashtirgichli qizdirgich bilan jihozlandi. Jihozlangan kolbaga yangi tozlab olingan kroton aldegid solindi.


ISSN 3030-3907

Tomizgich voronkaga natriy gidroksidning tayyorlab qoyilgan suvdagi eritmasidan to`ldirilib asta –sekin tomchilatib tomizib turib aralashtirildi. Magnitli aralashtirgich yiordamida aralashtrib, bir vaqtda kolba qizdirildi. Qizdirish 10-70 $^0$C orlig`ida olib borildi. Olingan oligomer atsetonda eritilib suv bilan cho`ktirib olindi va doimiy massaga kelguncha quritildi. Bunda jigar rangli kukunsimon oligomer olindi. U organik erituvchilarda piridin, dimetilformamid, atseton va dimetilsulfoksidda yaxshi eriydi ammo suvda erimaydi.




Olingan oligomerlar mochevina bilan 20-30 ^{0}C haroratda reaksiyaga kirishtirildi. Hamda mexanik mustahkamligi va termik barqarorligini oshirish maqsadida kolloid kremnizol bilan ishlov berildi. Natijada qattiq oq maxsulot olindi. Olingan maxsulot suvda erimaydi.

Kompozitlarning IQ spektrlarida Si-O-Si bog‘ining valent tebranishlariga tegishli bo‘lgan 1100 sm^{-1} sohada intensiv yutilish chiziqlari namoyon bo‘lib, gel hosil bo‘lish jarayonida choklangan uch o‘lchamli kremniyli karkasning hosil bo‘lishni tasdiqlaydi.



Kompozit tarkibidagi C=O ning valent tebranishlari 1726,29 sm^{-1} dan 1630,24 sm^{-1} sohaga o‘ziga xos ko‘chishi kuzatiladi.

ISSN 3030-3907



IQ spektrlarning bunday xususiyati quyidagicha xulosa chiqarishga imkon beradi, ya’ni kompozitlarning shakllanish jarayoni KA-M dagi kislorod atomi bilan kolloid kremnizolning erkin silanol guruhlarining Vander-vals kuchlari ta’sirida koordinatsion birikishidan iborat bo‘ladi. Bu esa kompozitga termik, mexanik va kimyoviy barqarorlik kabi xossalarni oshishiga sabab bo‘ladi.

Olingan ionit mis, nikel, kalsiy va magniy ionlari uchun sorbsion xususiyatlari o‘rganildi. Gibrid kompozitning sobsion xossasi Ni^{++} va Cu^{++} ionlariga ancha samarali ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

Gibrid kompozitning turli metall ionlarining ionlarining sorbsiyasi

№.	O‘rganilayotgan ionlarning dastlabki konsentratsiyasi, C_{dast}=1g/l	KA-M tarkibli ionit	KA-M-KK tarkibli ionit
1.	Magniy xlorid	2,2 – 2,4	3,3 – 6,4
2.	Kalsiy xlorid	2,1 – 2,9	3,7 – 5,9
3.	Nikel (II) sulfat	5,0 – 9,7	9,6 – 10,7
4.	Mis sulfat	3,0 – 6,6	5,4 – 6,3

Suvni metall ionlaridan tozalash pirovard maqsadida sohaga oid bir nechta adabiyotlar o‘rganildi va turli xil organik monomerlar birgalikda sopolimerlanib ularni metall ionlariga sorbsion xossasi tekshirib ko‘rildi. Olingan tarkibli ionitlar metallarni sorbsiyalash xossasi mavjudligi tasdiqlandi. Ammo ularda mexanik mustahkamligi tekshirilganda past ekanligi aniqlandi. Shu sababdan ham ionitlarni mexanik mustahkamligi va termik barqarorligini oshirish maqsadida kolloid

ISSN 3030-3907

kremnizol bilan modifikatsiyalandi. Adabiyotlarda ta'kidlanganidek kollid kremnizol bilan modifikatsiyalangan ionitlarda mexanik mustahkamligi va termik barqarorligi yuqori bo'lgan maxsulotlar olindi. Ushbu maxsulotlarning sorbsion xossasi qayta tekshirilganda silanol guruhlari hisobidan ularning metall ionlari sorbsiyalash samaradorligi yanada oshganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Власова Н. Н. и др. Кремнийорганические ионообменные и комплексообразующие сорбенты //Успехи химии. – 2013. – Т. 82. – №. 5. – С. 449-464.
2. G.V.Lisichkin, Yu.A.Krutyakov. Russ. Chem. Rev., 75, 901 (2006) [Успехи химии, 75, 998 (2006)]
3. Н.В. Лакиза, Л.К. Неудачина, Ю.Г. Ятлук, М.А. Багрецова, Ю.А. Скорик. Аналитика и контроль, 9, 391 (2005)
4. Остонов Ф.И., Ахмедов В.Н. Гибридные композиты на основе морфолина. // Меж. Конф.-Руминия, Бухарест. 20.11.2020 г. С. 38-42.
5. Остонов Ф.И., Ахмедов В.Н. Винилморфолин иштирокида гибрид полимер композит олиш //Рес. Конф. Бухра. 4-5 декабр. 2020 г. С.406-406.
6. Beshimov I. et al. Synthesis and properties of organic silicon (oligo) polymers //Universum: технические науки. – 2023. – №. 12-8 (117). – С. 38-42.
7. Ахмедов В.Н., Остонов Ф.И., Дўстов Ҳ.Б. Получение модифицированных акриловых соединений на основе соединений кремния // Развитие науки и технологий. 2021. №2. С. 24-30.
8. Остонов Ф.И., Ахмедов В.Н. Производство новых видов гибридных композитов // Научный вестник Наманганского государственного университета. 2021 №9. С. 44-49.
9. Ayub A. et al. Development of sustainable magnetic chitosan biosorbent beads for kinetic remediation of arsenic contaminated water //International journal of biological macromolecules. – 2020. – Т. 163. – С. 603-617.
10. Икромов У., Ширинов Ш.Д. Исследование растворимости олигополимера на основе гидролизованного полиакрилонитрила, содержащего медь, в различных растворителях // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2025. 5(134).

ISSN 3030-3907

PELTYE MODULI ASOSIDA ISSIQLIK ENERGIYASIDAN ELEKTR ENERGIYASI OLISH

I.I. Hikmatov

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti.

I.I. Raxmatov

Buxoro davlat universiteti Geliofizika, QTEM va elektronika" kafedrasi prof. tex.f.n

Annotatsiya. Olis cho'l hududlari va tog'lar kabi chekka hududlarda elektr energiyasining mavjudligi turli noqulayliklar tufayli doimo muammolidir. Elektr uzatish liniyalari orqali eltib bo'lmaydigan quyosh panellari va generator kabi noan'anaviy energiya qurilmalarini har doim ham qo'llab bo'lmaydi, shuning uchun tegishli yechim kerak. Peltye moduli kabi qattiq jismli elementlarda ishlaydigan qurilma qulay hisoblanadi, chunki u quyosh nurlaridan foydalanishni talab qilmaydi va energiyani jim ishlagan holda, ehtiyojga qarab, minimal manbalardan foydalangan holda hamda atrof-muhitga juda kam yoki mutlaqo zarar yetkazmagan holda hosil qilishi mumkin. Bu elementlar Zebek effekti asosida ishlaydi, ya'ni ikki xil elektr o'tkazgich yoki yarim o'tkazgich materiallar orasidagi harorat farqi natijasida ular orasida kuchlanish farqi hosil bo'ladi. Peltye modullari sham yoki o't yoqilgan manbalardan chiqqan yashirin issiqlikda ham ishlashi mumkin, boshqa tomondan esa issiqlikni tarqatish uchun radiator yoki sovitilgan suv, muz ishlatiladi.Bir tomondan isitish va boshqa tomondan sovutishni ta'minlash orqali kuchlanish hosil qilishda muhim rol o'ynaydigan harorat farqi yaratiladi.

Kalit so'zlar: Fotovoltaik qurilmalar, termoelektr energiyasi, issiqlikdan foydalanish, Zebek effekti, Peltye effekti, Peltye moduli

Аннотация. В отдаленных пустынных районах и труднодоступных районах, таких как горы, доступность электроэнергии всегда проблематична из-за различных неудобств. Нетрадиционные энергетические устройства, такие как солнечные панели и генераторы, к которым невозможно подвести линии электропередач, не всегда доступны, поэтому необходимо соответствующее решение. Устройство, работающее на твердотельных элементах, таких как модуль Пельтье, удобно тем, что не требует использования солнечного света и может генерировать энергию бесшумно, по требованию, используя минимальные ресурсы и практически не нанося вреда окружающей среде. Эти элементы работают на основе эффекта Зеебека, то есть в результате разницы температур между двумя различными проводящими или полупроводниковыми материалами между ними создается разность напряжений. Модули Пельтье также могут работать на скрытом тепле от таких источников, как свечи или горящий огонь, а с другой стороны,

ISSN 3030-3907

радиатор или охлажденная вода, лед используется для рассеивания тепла. Обеспечивая нагрев с одной стороны и охлаждение с другой, создается разность температур, которая играет важную роль в генерации напряжения.

Ключевые слова: Фотоэлектрические устройства, термоэлектрическая энергия, использование тепла, Эффект Зебека, Эффект Пельтье, Модуль Пельтье

Abstract: In remote desert areas and hard to reach areas such as mountains, the availability of electricity is always a challenge due to various inconveniences. Unconventional energy devices such as solar panels and generators that cannot be connected to power lines are not always available, so an appropriate solution is needed. A device powered by solid-state elements such as a Peltye module is convenient because it does not require the use of sunlight and can generate energy silently, on demand, using minimal resources and with little or no harm to the environment. These elements work on the basis of the Seebeck effect, that is, as a result of the temperature difference between two different conductive or semiconductor materials, a voltage difference is created between them. Peltye modules can also work on latent heat from sources such as candles or a burning fire, and on the other hand, a radiator or chilled water, ice is used to dissipate the heat. By providing heating on one side and cooling on the other, a temperature difference is created, which plays an important role in voltage generation.

Keywords: Photovoltaic devices, thermoelectric energy, heat utilization, Seebeck effect, Peltye effect, Peltye module

Kirish


Birlashgan millatlar tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG7) hisobotlariga ko‘ra bugungi kunda dunyoda taxminan **(10 %) 745 million** kishi elektr energiyasiga **to‘liq ulana olmagan** (ya'ni, elektr energiyasiz yashayotgan) deb baholangan. Elektr energiyasiga muhtoj bo‘lganlar esa **1,2 milliard**ga yaqin kishini tashkil qiladi. **“Elektr energiyasiga muhtoj” deganda nimani tushunamiz?**

Bu faqat elektr energiyasi umuman yo‘q odamlar emas, balki:

- Ishonchli, barqaror energiya manbaisiz yashayotganlar
- Faqat kunduzgi vaqt yoki qisqa vaqt uchun elektr oladiganlar
- Quvvati past (telefon, chiroq) bilan cheklangan tizimlarga ega bo‘lganlar
- Generator, batareyaga qaram bo‘lganlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu ko‘rsatgichlar asosan markazdan olisda joylashgan qishloq cho‘l va tog‘ oldi transport va aloqa infratuzilmalari yetib bormagan va mustaqil energiya manbai zarur bo‘lgan hududlarni qamrab oladi. Dunyo aholisining elektr energiyasiga muhtoj bo‘lgan qismi 1-rasmda ko‘rsatilgan.

ISSN 3030-3907




1-rasm. Elektr energiyasiga muhtoj aholi statistikasi

Olis qishloqlar va alohida hududlar buning natijasida juda katta zarar ko‘radi va elektr energiyasi uzatish va tarqsimlash tizimi orqali ularga normal tarzda etib borishi uchun uzoq vaqt kerak bo‘ladi.

Olisda joylashgan cho‘llar, o‘rmonlar va tog'lar hududi ko‘p hollarda elektr energiyasiga ega emas va shu sababli mustaqil energiya manbaiga zarurat tug‘iladi. Bunday energiya manbalariga muqobil yechimlar esa Quyosh fotovoltaik-issiqlik-termoelektrik qurilmalari (PV/T-TE) kabi tizimlardir. Bu kabi qurilmalar asosan quyosh issiqlik nurlanishlarini elektr energiyasiga generatsiya qilishga mo‘ljallangan. Ularning tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanuvchi Peltye modullaridan tayyorlangan qurilmalar issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantirish orqali energiya bilan ta'minlashga harakat qiladi. Issiqlik energiyasi manbalari bu joylar atrofida osongina mavjud va ulardan foydalanish atrof-muhitga zararli ta'sir ko‘rsatmaydi. Bu kabi qurilmalar yordamida hosil qilinadigan kuchlanishni uzgichlar va invertorlar yordamida o‘zgartirib turli xil maqsadlarda masalan, yoritish qurilmalarida foydalanish mumkin bo‘ladi.

Peltye modulining asosiy elementi, termoelektrik modul issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib berish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Peltye modullari asosan ikkita noyob, p-tipli va n-tipli yarimo‘tkazgichlardan iborat bo‘lib, ular tabiatan statikdir. Peltye modulining ishlash jarayoni Peltye modullari ichida sodir bo‘ladigan Zeebek effekti (issiqlikni elektr energiyasiga aylantirish) ga asoslangan.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Peltye modulining tuzilishi

Issiqlik tarqalishi va oqishi bilan erkin zaryad tashuvchilar issiq tomondan sovuq tomonga o‘tadi. Hosil bo‘luvchi kuchlanishlar harorat farqiga bog‘liqdir va harorat farqi saqlanib qolar ekan, tizim kuchlanish hosil qiladi. Har bir Peltye modulidan hosil qilingan kuchlanish vaqt va harorat farqiga qarab o‘zgaradi. Peltye modullarini ketma-ket ulashda yuqori kuchlanish hosil qilish mumkin. Haroratning doimiy ravishda o‘zgarib turishi sababli modulga yoki unga ulangan qurilmaga zarar etishi mumkin. Buning oldini olish uchun tizimga qo‘shimcha yuklama ulash orqali barqaror doimiy kuchlanish olish mumkin.

Qurilma nafaqat olisda va noqulay iqlim sharoitlardagi hududlar uchun foydali, balki u isitish manbai sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan yashirin issiqlik ishlab chiqariladigan sanoat sohasida ham qo‘llanilishi va u bilan qo‘shimcha energiya ishlab chiqarilishi mumkin.

TUZILISHI.

Peltye modullari turli manbalardan, masalan, yoqilg‘i sifatida yog‘och yoqish, sham olovi, sanoatning yashirin (chiqindi) issiqligi, yoki uy xo‘jaligida pishirish vaqtida hosil bo‘ladigan issiqlik yordamida hech qanday murakkab texnologiyalarsiz kuchlanish (tok) hosil qiladi. Issiq tomon va sovuq tomonlar o‘rtasida yuzaga kelgan haroratlar farqi elektr energiyasini hosil qiladi. Bu jarayon o‘rmon va tog‘ hududlarida, shuningdek, elektr energiyasi uzilib qolgan hollarda uy sharoitida juda foydali bo‘lishi mumkin.

Qurilmaning asosiy qismi ko‘plab Peltye modullaridan iborat bo‘ladi. Ular ishlayotganda issiqlik bir tomondan ikkinchi tomonga o‘tadi - issiq tomon qizdiriladi, sovuq tomonda esa issiqlik radiatori, sovitilgan suv yoki muz yordamida sovitish amalga oshiriladi. Elektr energiyasi hosil bo‘lishi ikki xil yarim

ISSN 3030-3907

o‘tkazgich material o‘rtasidagi harorat farqi sababli yuzaga keladigan kuchlanish farqiga asoslanadi (Zebek effekti).

Modullarni issiqlik o‘tkazuvchi termik yopishtiruvchi modda (termokley) bilan baza (asos) qismi bilan biriktirish tavsiya etiladi. Agar sovitish uchun metall lotok ishlatilsa, tashqi devorlari plastik lenta (izolyatsiya) bilan o‘raladi - bu qisqa tutashuv yoki boshqa zararli ta’sirlarni oldini oladi. Modullar lotokning tub qismiga o‘rnatiladi. Modullar o‘zaro ketma-ket (serial) tarzda ulanadi: simlarning musbat (qizil) va manfiy (qora) uchi bir-biriga ulanadi. Oxirgi uchi esa bo‘sh qoldiriladi - ular hosil bo‘layotgan o‘zgaruvchan, barqaror emas kuchlanishni olish uchun kerak bo‘ladi. Modullar ketma-ket ulanganligi va vaqt o‘tishi bilan harorat farqi o‘zgarib turishi sababli yakuniy kuchlanish yuqori bo‘lishi mumkin, ammo barqaror emas. Shu sababli doimiy tok konvertori (to‘g‘rilagich) ishlatiladi, u kuchlanishni 5 voltdan 35 voltgacha bo‘lgan diapazonda barqarorlashtirib va nazorat qilib beradi

Peltye modullari issiq va sovuq qarama qarshi sirtlar o‘rtasida hosil bo‘lgan harorat farqi orqali elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Bu cheka o‘rmon va tog'li hududlarda, shuningdek, uylarda elektr ta'minoti uzilib qolganda juda foydali bo‘lishi mumkin va bu holatlarda biz issiq tomon uchun isitish manbai sifatida istalgan issiqlik (quyosh issiqligi, sham yoki yog'och alangasi) manbaidan, sovuq tomon uchun sovutish manbai sifatida sovutilgan suv yoki muzdan foydalanishimiz mumkin.

Ular issiqlik qo‘llanilganda issiqlikni bir tomondan boshqa tomonga o‘tkazish orqali ishlaydi, ikkinchisi esa sovutgich yoki sovutilgan suv va muz bilan sovutiladi. Elektr energiyasining bu hosil bo‘lishi ikkita o‘xshash bo‘lmagan yarimo‘tkazgichlar orasidagi harorat farqi tufayli kuchlanish farqiga olib keladi.

Tashqi barqarorlik uchun barcha elementlar quti ichiga joylashtiriladi**.** Qizdirish jarayoni sanoat yoki uy xo‘jaligida hosil bo‘ladigan chiqindi issiqlik yordamida amalga oshirilishi yoki to‘gridan to‘g‘ri quyosh issiqlik energiyasi orqali hosil qilinishi mumkin. Bu issiqlik Peltye modullariga yetkaziladi va ular sovutish manbai bilan bog‘lanadi. Sovutish muzlatilgan suv**,** muz yoki radiator va ventilyator yordamida amalga oshiriladi. Qurilma ma’lum vaqtdan keyin kuchlanish hosil qiladi, va bu jarayon umuman shovqinsiz amalga oshadi. Qattiq va oddiy tuzilishga ega bo‘lgani sababli Peltye modullari uzoq muddat ishonchli ishlashi va ishlash vaqtida ishdan chiqmasligi bilan ajralib turadi.


ISHLASHI

Peltye modullari sovutish manbai ostiga o‘rnatiladi. Bu sovutish manbai sifatida radiator va sovutuvchi ventilyator, yoki sovutish manbai bilan jihozlangan metall taglik (idish) bo‘lishi mumkin. Modullar yog‘ochdan tayyorlangan qutining ichiga o‘rnatiladi. Peltye modullari termokley yordamida mahkamlanadi, ularning

ISSN 3030-3907

issiq tomoni esa metall plastinka bilan qoplangan bo‘ladi. Bu metall plastinka issiqlikni tarqatish va Peltye modulini bug‘lanishdan (namlikdan) himoya qilish vazifasini bajaradi. Jarayon Peltye modullariga avval sovutish manbasini, keyin esa isitish manbasini ta'minlashdan boshlanadi.

Ma’lum vaqtdan so‘ng, Peltye modullari issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib, kuchlanish hosil qilishni boshlaydi.



3-rasm. Peltye modulining ishlash prinsipi

Umumiy jarayon shovqinsiz sodir bo‘ladi. Hosil qilingan kuchlanishlar bir-biriga ketma-ket ulangan modullar soniga proportsional, bundan tashqari, ular haroratlar farqiga bog'liq. Peltye modullariga issiqlik etib borishi bilan ular bo‘ylab haroratlar farqi vujudga keladi va qurilma orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi elektr energiyasini hosil qiladi. Issiqlik Peltye modullari orqali o‘tayotganda, issiqlik harorat farqi oshgani sayin quvvatning ko‘proq o‘zgarishiga olib keladi va chiqish quvvati ham ortadi.

Peltye modullari asosan - vismut tellurid va qo‘rg'oshin tellurid yarimo‘tkazgich elementlaridan tayyorlangan termoelektriklardir va ularda elektronlarning bir qismi yadrolarga bog'langan holda, ba'zilari esa erkin harakatlana oladi.

Yarim o‘tkazgichlardan tashkil topgan Peltye modullari ichida mavjud bo‘lgan zaryadlar yuqori energiyali holatdan past energiyali holatga o‘tishi

ISSN 3030-3907

mumkin. Shu tarzda, agar Peltye modulidan foydalanilib, modulning har ikkala yuzasini isitish va sovutish ta’minlansa, haroratlar farqi hosil qilinadi. Natijada, bir tomonida manfiy zaryad, ikkinchi tomonida esa musbat zaryad paydo bo‘ladi. Bu zaryadlar o‘rtasidagi farq potensiallar farqini (ya’ni kuchlanishni) yuzaga keltiradi. Kuchlanish esa - elektr energiyasining o‘lchovi hisoblanadi.

TARKIBIY ELEMENTLAR

Peltye moduli

Issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantira oladigan ko‘p qatlamli (multisloyli) shakldagi qurilma Peltye modullarining asosiy qo‘llanilish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zebek effekti hamda Peltye effekti asosida ishlovchi Peltye modullari, foydalanuvchi ehtiyojiga qarab, kuchlanish hosil qilishi yoki isitish va sovitish maqsadlarida ham qo‘llanilishi mumkin.



4-rasm. Peltye moduli

Modul konstruksiyasi ikkita keramik plastinkadan iborat bo‘lib, ularning orasida vismut telluridi (Bi_2Te_3) dan tayyorlangan kichik kubiklar joylashgan. Bu material ichida va yarim o‘tkazgichlarda zaryad tashuvchilar erkin harakatlanib, zaryad va issiqlikni tashiydi.Harorat farqi tufayli zaryad tashuvchilar issiq uchi orqali harakatlanib, sovuq uchda to‘planadi. Bu jarayonda sovuq uchda zaryad yig‘ilishi natijasida kuchlanish yuzaga keladi. Yarim o‘tkazgichlar maxsus legirlovchi aralashmalar bilan kuchli legirlangan bo‘ladi, bu ularning elektr o‘tkazuvchanligini oshiradi. Modul uchun material tanlanayotganda u yuqori haroratga bardosh berishini inobatga olish kerak.

Isitish tizimi. Peltye moduli orqali elektr energiyasi olish uchun modulning bir tomoni qizdirilishi shart, va bu turli manbalar – quyosh nurlanish issiqligi,

ISSN 3030-3907

sanoat issiqligi, tutun, bug‘, sham yoki o‘tindan olinadigan issiqlik orqali amalga oshiriladi. Ammo sirtga berilayotgan harorat nazoratsiz oshsa, modullar ishdan chiqishi mumkin, shu sababli barqaror va xavfsiz isitish muhim hisoblanadi.

1-jadval

Peltye modullarining asosiy harorat xususiyatlari:

Tavsif	Qiymat (odatda)
Maksimal issiq tomon harorati	~130–150 °C
Minimal sovuq tomon harorati	~ –50 °C (ish sharoitida)
Tavsiya etilgan ishlash oralig‘i	0 °C dan 100 °C gacha
Zarar yetish xavfi boshlanadi	> 150 °C dan yuqorida

Turli manbalar Peltye modullari uchun har xil haroratni ta'minlaydi va shuni ham ta'kidlash kerakki, Peltye modullari haroratga ma'lum bir nuqtagacha bardosh bera oladi va shundan keyin uning shikastlanish ehtimoli ortadi.

Sovutish tizimi. Peltye moduli sovitish tizimi – bu isitish tizimi kabi muhim bo‘lib, u modulning ikkala tomoni o‘rtasida harorat farqini saqlab turish uchun mo‘ljallangan. Bu harorat farqi - Peltye modulida elektr energiyasi hosil bo‘lishining asosi hisoblanadi.

Sovitish manbai sifatida ko‘p hollarda muzlatilgan suv (sovuq suv), muz yoki radiator va ventilyator ishlatiladi. Ba’zi hollarda azot oksidi (N_2O) kabi moddalardan ham foydalanish mumkin. Peltye moduli sovutish manbai ostiga joylashtiriladi, shunda issiq tomondan sovuq tomonga issiqlik oson o‘tadi, va bu issiqlik sovituvchi orqali tashqariga chiqariladi. Peltye moduli hosil qilgan kam miqdordagi elektr energiyadan sovituvchi ventilyatorni quvvatlantirish mumkin. Peltye modullari soni ko‘p bo‘lsa, hosil bo‘ladigan issiqlik ham shunga yarasha ko‘p bo‘ladi. Peltye modulining samarali ishlashi uchun haroratlar farqi zarur, bu esa faqat samarali sovitish orqali ta’minlanadi. Shu sababli, issiq sirtdan issiqlikni olib chiquvchi sovitish tizimi Peltye moduli ishlashida asosiy rol o‘ynaydi.

ISHLASH SAMARADORLIGI VA FOYDALI ISH KOEFFITSIENTI (FIK) HISOBLASH.

Issiqlik modulning bir tomoniga beriladi, ikkinchi tomoni esa radiatorga, muz, yoki sovitilgan suv kabi issiqlikni tarqata oladigan boshqa biror ishji jism bilan ulanadi. Shu sababli modul ichidagi ikki ulangan nuqta orasida haroratlar farqi (ΔT) yuzaga keladi.

Modulning yon tomonlari izolyatsiyalangan qoplamalar bilan qoplangan, shuning sababli issiqlik faqat uzunlik bo‘ylab oqadi. Issiq yuza orqali o‘taytgan

ISSN 3030-3907

issiqlik tufayli yuzaga keladigan haroratlar farqi n-tipli blokdagi elektron va p-tipli blokdagi teshiklarning issiq tomondan modulning sovuq tomoniga harakatlanishiga olib keladi va shu orqali elektr potensiallar farqini hosil qiladi.

Tizimga yuklama qarshiligi (R_L) ulanadigan bo‘lsa, ichki zanjir yopiladi va bu qarshilik orqali elektr toki oqimi boshlanadi.

Har bir modulning o‘ziga xos ichki qarshiligi mavjud. Ikki o‘tishlar orasida yuzaga keladigan potentsiallar farqi $U = \alpha\Delta T$ bilan berilishi mumkin

Bu yerda:

- U — kuchlanish (volt)
- α — Zebek koeffitsiyenti (μV/K yoki V/K)
- ΔT — issiq va sovuq tomonlar o‘rtasidagi harorat farqi (Kelvin yoki °C)

Chiqish quvvatini quyidagi ifoda orqali aniqlashimiz mumkin bo‘ladi.

$$P = \left(\frac{U}{R+R_L}\right)^2 R_L \ (2)$$

$$P = \left(\frac{\alpha\Delta T}{R+R_L}\right)^2 R_L \ (2.1)$$

Ichki qarshilik va yuk qarshiligi bir xil R = R_L bo‘lganda, chiquvchi quvvat maksimal bo‘ladi, va u holda maksimal quvvat (2.1) quyidagicha berilishi mumkin.

$$P = \frac{(\alpha\Delta T)^2}{4R} \ (2.2)$$

(2.2) ifodaga ko‘ra quvvat maksimal bo‘lishi uchun sirtlar orasidagi harorat farqi imkon qadar katta bo‘lishi kerak. Agar biz maksimal quvvatdan foydalanmoqchi bo‘lsak, ichki qarshilik imkon qadar past bo‘lishi kerak va bu modullarning uzunligi va diametrini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tizimning samaradorligi ishlab chiqilgan quvvatning nisbati bilan aniqlanishi mumkin,

$$\eta = \frac{Chiquvchi\ quvvat}{Issiqlik\ oqimi} = \frac{P_L}{Q} \ (3)$$

$$\eta = \frac{\left(\frac{\alpha\Delta T}{R+R_L}\right)^2 R_L}{Q} \ (3.1)$$

AFZALLIKLARI VA QO‘LLANILISH SOHALARI

Afzalliklar

- Harakatlanuvchi qismlar yo‘q – bu modulni shovqinsiz va ishonchli qiladi
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlikni elektrga aylantiradi – Zeebek effekti asosida
- Issiqlik chiqindilaridan foydalanish imkoniyati – sanoatda, transportda ishlatilgan issiqlikdan energiya olinadi
- Ekologik toza – yonilg‘i yoqilmaydi, zararli chiqindilar chiqmaydi
- Ixcham va portativ – kichik hajmdagi qurilmalar uchun qulay

ISSN 3030-3907

- Murakkab mexanik tizimlarsiz ishlaydi – dvigatel, turbina yoki kompressor kerak emas

•Uzoq muddat ishlaydi – mexanik qismlar yo‘qligi tufayli kam xizmat talab qiladi

•Kosmik, harbiy, tibbiyot va chekka hududlar uchun ideal – energiya manbasi cheklangan joylarda foydali

Qo‘llanilish sohalari

1. doimiy kuchlanish ishlab chiqarish
2. Chiqindilarni issiqlikdan foydalanish va olib tashlash
3. U transport tizimlarida, maishiy binolarda, sanoatda va elektr stantsiyalarida qo‘llanilishi mumkin.

Kamchiliklari

•Foydali ish koeffitsienti juda past – odatda 2–8% oralig‘ida

•Katta elektr quvvat olish uchun ko‘p modul kerak bo‘ladi

•Harorat farqi yetarli bo‘lmasa, energiya ishlab chiqmaydi

•Samarali sovitish talab etiladi – aks holda modul qizib ketadi va chiqish kuchlanish kamayadi

•Harorat cheklovi mavjud – odatda 150 °C dan oshsa modul buziladi

•Narxi nisbatan yuqori – ayniqsa kuchli yoki sanoat modellar uchun

•Uzoq muddatli barqarorlikda sovitish tizimiga ehtiyoj kuchayadi

•Kichik chiqish tok/kuchlanish – bir modulda odatda 1–2 V va 100–300 mA gacha chiqadi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G. J. Snyder, “Thermoelectric Power Generation: Efficiency and Compatibility,” in Thermoelectrics Handbook Macro to Nano, edited by D. M. Rowe (CRC, Boca Raton, 2006), Ch. 9.

2. Darshak Vadhel, Savadas Modhavadiya, Prof. Jaydipsinh Zala: Energy Generation From Peltier Module By Utilizing Heat (International Research Journal of Engineering and Technology) Volume: 04 Issue: 03 | Mar -2017

3. M. Kishi, H. Nemoto, T. Hamao, M. Yamamoto, S. Sudou, M. Mandai, and S. Yamamoto, in Eighteenth International Conference on Thermoelectrics Proceedings, ICT’99, 301 (1999). [3] Thermoelectric generator. (2017, March 14).

4. Meyer, A., & Young, W. H. (1969). Thermoelectricity and Energy-Dependent Pseudopotentials. Physical Review, 184(3), 1003- 1006. doi:10.1103/physrev.184.1003

5. Zhang, J., Xuan, Y., Yang, L., 2014. Performance estimation of photovoltaic-thermoelectric hybrid systems. Energy 78, 895-903.

6. R. Zafar *et al.* Prosumer based energy management and sharing in smart grid (Renew. Sustain. Energy Rev.) (2018)

ISSN 3030-3907

7. G.K. Singh Solar power generation by PV (Photovoltaic) technology: a review (Energy) (2013)
8. M. Herrando *et al.* A review of solar hybrid photovoltaic-thermal (PV-T) collectors and systems (Prog. Energy Combust. Sci.) (2023)
9. Reji Kumar R., Samykano M., Pandey A.K., Kadirgama K., Tyagi V.V. Phase change materials and nano-enhanced phase change materials for thermal energy storage in photovoltaic thermal systems: A futuristic approach and its technical challenges. Renew. Sustain. Energy Rev. 133, 110341 (2020). https://doi.org/10.1016/j.rser.2020.110341.
10. Nižetić S., Grubišić-Čabo F., Marinić-Kragić I., Papadopoulos A.M. Experimental and numerical investigation of a backside convective cooling mechanism on photovoltaic panels. Energy, 111, 2016. – p. 211-225.
11. Chow T.T. A review on photovoltaic/thermal hybrid solar technology. Appl. Energy. 87(2), 2010. – p. 365-379.
12. Chauhan A., Tyagi V.V., Anand S. Futuristic approach for thermal management in solar PV/thermal systems with possible applications. Energy Convers. Manag. 163, 2018. – p. 314-354.
13. Zilli B.M., Lenz A.M., de Souza S.N.M., Secco D., Nogueira C.E.C., Junior, O.H.A. Performance and effect of water-cooling on a micro generation system of photovoltaic solar energy in Paraná Brazil. J. Clean. Prod. 192, 2018. – p. 477-485.
14. Fikri M.A., et al. Recent progresses and challenges in cooling techniques of concentrated photovoltaic thermal system: A review with special treatment on phase change materials (PCMs) based cooling. Sol Energy Mater. Sol Cells. 241(5), 111739 (2022). https://doi.org/10.1016/j.solmat.2022.111739.
15. Kern Jr. E.C., Russell M.C. Combined Photovoltaic and Thermal Hybrid Collector Systems. Massachusetts Institute of Technology, Lexington, 1978.
16. Lazzarin R. Heat pumps and solar energy: A review with some insights in the future. Int. J. Refrig. 116, 2020. – p. 146-160.
17. Bhargava A.K., Garg H.P., Agarwal R.K. Study of a hybrid solar system-solar air heater combined with solar cell. Sol. Energy, 31(5), 1991. – p. 471-479.
18. Bergene T., Lovvik O.M. Model calculations on a fat-plate solar heat collector with integrated solar cells. Sol. Energy, 55, 1995. –p. 453-462.
19. Werner W., Monika S.D. Solar heat worldwide. Global Market Development and Trends 2023 Detailed Market Figures 2022. AEE-Institute for Sustainable Technologies 8200 Gleisdorf, Austria. 2024.
20. Özakin A.N., Kaya F. Effect on the exergy of the PVT system of fins added to an air-cooled channel: A study on temperature and air velocity with ANSYS Fluent. Sol. Energy, 184, 2019. – p. 561-569.

ISSN 3030-3907

21. Srimanickam B., Vijayalakshmi M.M., Natarajan E. Experimental study of Exergy Analysis on fat plate solar photovoltaic thermal (PV/T) hybrid system. Appl. Mech. Mater. 787, 2015. – p. 82-87.

ISSN 3030-3907

THE EFFECT OF GRAIN SIZE AND HEAT TREATMENT ON MECHANICAL PROPERTIES IN CAST STEELS

Rakhmonov Tokhtasin Nurmamatovich
Assistant of the Department of Materials Science of the
Andijan State Technical Institute
Tel:+998 91 609 42 63
E-mail: traxmonov1960@gmail.com

Annotation. This article investigates the effect of grain size and heat treatment on the mechanical properties of cast steel. Various heat treatment methods such as normalizing, annealing, and quenching were applied to control grain size, and their impact on hardness, ductility, and impact strength was evaluated. Experimental analysis was conducted through metallographic observation, mechanical tests, and microstructural characterization. The results showed that grain refinement improved the strength of cast steel, while coarse grains increased brittleness. This study provides insights into the optimization of heat treatment processes to enhance the mechanical behavior of cast steels.

Keywords: Cast steel, grain size, heat treatment, mechanical properties, normalizing, annealing, hardness, ductility, microstructural analysis, impact viscosity.

Аннотация. В этой статье исследуется влияние размера зерна и термической обработки на механические свойства литой стали. Различные методы термической обработки, такие как нормализация, отжиг и закалка, применялись для контроля размера зерна, и оценивалось их влияние на твердость, пластичность и ударную вязкость. Экспериментальный анализ проводился с помощью металлографических наблюдений, механических испытаний и микроструктурной характеристики. Результаты показали, что измельчение зерна повышает прочность литой стали, в то время как крупное зерно увеличивает хрупкость. Это исследование дает представление об оптимизации процессов термической обработки для улучшения механического поведения литых сталей.

Ключевые слова: литая сталь, размер зерна, термическая обработка, механические свойства, нормализация, отжиг, твердость, пластичность, микроструктурный анализ, ударная вязкость.

Annotatsiya. Ushbu maqolada quyma po‘lat materiallarda donalarning o‘lchami va issiqlik ishlovlarining mexanik xossalarga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilindi. Har xil issiqlik ishlovlari (normallash, toblash,bo‘shatish) orqali donalarning o‘lchami nazorat qilindi va bu holatlarning qattiqlik, cho‘ziluvchanlik va zarba viskozligiga ta’siri baholandi. Tadqiqotda metallografik kuzatuv, mexanik sinovlar

ISSN 3030-3907

va mikroyapı tahlillari asosida tajribaviy tahlil o‘tkazildi. Natijalar donalarning noziklashuvi po‘latning mustahkamligini oshirishi, yirik donalar esa mo‘rtlikni kuchaytirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Quyma po‘lat, donalarning o‘lchami, issiqlik ishlovi, mexanik xossalar, normallash, tavlash, qattiqlik, cho‘ziluvchanlik, mikrostrukturaviy tahlil, zarba viskozligi.

Literature review

Cast steels are widely used in metallurgy and mechanical engineering. Grain size and heat treatment play an important role in controlling their mechanical properties. The interrelationship of these factors has been studied in depth in the literature, and scientific studies show that the grain structure can be controlled through heat treatment types.

Khasanov Sh. (2018) in his work “Fundamentals of Metallurgy” detailed the influence of the crystal structure and grain structure of steels on the mechanical properties. The author emphasizes that fine grains have a positive effect on hardness and strength, but excessively fine grains can cause brittleness.

Karimov B. and Abdurahmonov D. (2019) studied the mechanism of controlling the grain growth process through treatments such as normalizing, annealing, and forging. Their research showed that it is possible to form a medium-grained structure through normalizing, and a coarse-grained structure during forging.

Sobirov U. (2021) analyzed the types of thermal treatments and their effects on the microstructure of steel based on metallographic observation. The microstructure obtained after quenching was fine and homogeneous, with high ductility, but decreased hardness. Forging, high hardness was observed, but the impact viscosity decreased.

Jalilov Z. (2020) studied the processes associated with the microstructure and phase transformations of steels through a model. He deeply analyzed the phenomena of grain activity, boundary motion, and dynamic recrystallization.

Tursunov I. (2020) analyzed in his work the increased risk of cracking under static stress as a result of grain enlargement in steels. This is especially true in cast steels, since grains formed during crystallization can have sharp boundaries.

Oripov N. (2020) experimentally proved the relationship between crystal structure and heat treatment. He subjected different steel grades to normalizing and annealing treatments and observed changes in the microstructure under a microscope. In particular, the ferrite-pearlite structure provided a clear view of the grains and had a significant effect on the hardness values.

ISSN 3030-3907

Mahmudov D. (2022) studied the structural stability of grains by modeling the steel structure and testing it in real industrial conditions. His work suggests that heat treatment processes should be under continuous control and that automated systems should be used in this direction.


The analysis of the above literature shows that the mechanical properties of cast steels directly depend on the grain size and heat treatment method. Various studies have confirmed this relationship using different approaches:experiment, metallography, mathematical modeling, phase analysis, mechanical tests.

Introduction:

Steel materials, especially cast steels, are widely used in modern industry. They are characterized by their ability to withstand high loads, ease of formability and processing in the mechanical engineering, construction, energy and transport sectors. One of the main advantages of cast steels is that they can be obtained in the form of parts of complex shapes, which is economically feasible. However, the performance and reliability of these materials are closely related to their internal microstructure, in particular, the size of the grains and their location. The size of the grains, in turn, is strongly related to heat treatment processes. Phase and structural changes within the material are controlled by heat treatments (normalizing, annealing, forging). Each type of treatment changes the crystal structure of the material, the size and shape of the grains, which directly affects its important mechanical properties such as hardness, ductility, strength and impact viscosity.

Many scientific studies in the field of materials science show that grain enlargement in steels can lead to brittleness, while a fine-grained structure provides high hardness and strength.Accordingly, it is important to control the grains through heat treatment processes, maintain them at an optimal size, or control the effect of recrystallization on them. In such conditions, it is necessary to reduce these undesirable phenomena by heat treatment at a later stage to improve mechanical properties. During the study, the physical and mechanical state of cast steels is evaluated based on microscopic observations, mechanical tests, and experimental results.The goal is to determine the optimal heat treatment parameters and, as a result, create a scientific basis for the production of cast oducts with high strength.

ISSN 3030-3907



Research and method: The aim of this study was to evaluate the effect of grain size and heat treatment on the mechanical properties of cast steels. Steel samples with a carbon content of 0.45% were prepared for the study. Initially, the samples were taken from the casting, their surfaces were smoothed and prepared for metallographic analysis. Three types of heat treatments were applied to the test samples: annealing (700°C, 2 hours), normalizing (850°C, air cooling) and forging (900°C, oil cooling). After each treatment, the microstructure was examined using an optical microscope, and the average grain size was calculated using the ImageJ program. Hardness (Brinell method), elongation (universal testing machine) and impact toughness (Charpy test) were measured.

The following table lists the average grain size and corresponding mechanical properties determined for each type of processing:

Heat treatment type	**Grain size (µm)**	**Hardness (HV)**	**Stretchability (%)**	**Impact viscosity (J)**
Annealing	50	155	20	18
Normalizing	30	185	15	12
Forging	10	210	8	7

These results show that controlling grain size through heat treatment determines the mechanical properties of the material. The fine grains produced by forging have high hardness and low ductility, which is suitable for applications where strength is required. The selected samples, on the other hand, are brittle and have high ductility but low hardness, and grain enlargement reduces the toughness of the material.

ISSN 3030-3907

Result and negotiation: The results of the studies clearly showed how the types of heat treatment affect the grain size in cast steel and, therefore, the mechanical properties. Normalizing treatment provided balanced mechanical properties, as it produced medium-sized grains (approximately 30 μm). As a result of this treatment, an average hardness of 185 HV, an elongation of 15% and an impact toughness of 12 J were observed. These indicators are especially suitable for components operating under mechanical stress and load, but where a balanced strength and ductility are required. Annealing, on the other hand, led to an increase in grain size (approximately 50 μm), as a result of which the material softened: the hardness decreased (155 HV), the elongation increased (20%) and the impact toughness became higher (18 J). The advantage of this type of treatment is that it reduces brittleness, but is more suitable for structures with low strength requirements.

Normalizing treatment produced the smallest grains (about 10 μm) and significantly increased the hardness of this material (210 HV), but reduced the elongation (8%) and impact viscosity (7 J). This shows that small grains lead to high hardness and strength, but increased brittleness. This can be especially dangerous for parts subjected to high-speed loading. It can also be seen from the graph that as the grain size increases, the hardness decreases, and small grains make it difficult for dislocations to move, increasing the strength of the material. During the study, the effect of temperature and cooling rate on the shape and smoothness of the grain boundaries was also observed. During the normalizing process, the ferrite-pearlite phases were clearly separated, which allowed for optimal distribution of dislocations in the microstructure. In the sample, the ferrite phase dominated, which resulted in increased plasticity.

The above results show that each type of heat treatment should be selected depending on the specific properties of the steel, depending on its subsequent application. Forging is suitable for areas where strong mechanical loads are required, such as gears, tools and heavy-duty mechanisms. Tempering is suitable for structures where ductility and impact resistance are important. Normalizing provides a balanced state. The grain size directly depends on the heat treatment conditions, and the quality of steel products can be significantly improved. At the same time, since the presence of alloying elements and chemical composition also directly affect these processes, more in-depth complex analyses will expand the possibilities for further optimization of heat treatment processes.

Conclusion: This study was devoted to a systematic analysis of the effect of grain size and heat treatment on the mechanical properties of cast steels. The experiments showed that each type of heat treatment - quenching, normalizing and

ISSN 3030-3907

tempering - has a specific effect on the structure and properties of steel. The grain size changes significantly and directly affects the hardness, ductility and impact viscosity of steel. In particular, tempering produces the smallest grains, providing high hardness, but reducing plasticity. Quenching, on the other hand, enlarges the grains, reducing brittleness and increasing ductility, but reducing hardness. Normalizing, on the other hand, provides balanced properties and creates a mechanically stable structure. In graphical analysis, grain size reduction increases the strength of steel, while increasing its resistance to dislocation motion. Metallographic analysis, on the other hand, allowed us to determine the microstructure for each type of treatment by linking structural changes with phase states. The results of the study show that the optimization of mechanical properties is ensured by the correct selection and control of the heat treatment regime. Therefore, the heat treatment regime in the production of cast steel products - temperature, holding and cooling rate - should be determined scientifically. In the future, research in this area should be deepened using the influence of alloying elements on grains, heat treatment processes, and modern control technologies.

LITERATURE

1. Xasanov Sh. Fundamentals of Metallurgy. – Tashkent: Fan Publishing House, 2018 – 320 p.
2. Karimov B., Abdurahmonov D. Theory of Heat Treatment. – Tashkent: TDYU, 2019. – 276 p.
3. Jalilov Z. Microstructure of Alloys.– Samarkand: Ipak Yuli NMIU, 2020 – 244 p.
4. Sobirov U. Materials Science and Testing Methods.– Fergana: FPI, 2021. – 198 p.
5. Tursunov I. Properties of Steels and Heat Treatment. – Termez: Surkhon Publishing House, 2020. – 272 p.
6. Nurmurodov A. Fundamentals of Mechanical Testing. – Tashkent: Uzbekistan Technical University, 2021. – 208 p.
7. Akramov B. Methods of structural analysis of metals – Tashkent: 2020. – 216 p.

ISSN 3030-3907

ИССИҚЛИК УЗАТИШГА ҚАРШИЛИГИ ОШИРИЛГАН ЕРТЎЛА ДЕВОРЛАРИНИНГ ТЕХНИК-ИҚТИСОДИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИНИ БАҲОЛАШ

Қурбонов Алижон Сарабек ўғли
Денов тадбиркорлик ва педагогика институти, PhD, доцент в.б.
Иноятов Диловар Толибович,
PhD, доцент в.б., СамДАҚУ
Норқобилов Санжар Исомиддин ўғли,
1540-БваИҚ-02-гуруҳ талабалари, СамДАҚУ
Хайруллаев Салим Анвар ўғли,
1540-БваИҚ-02-гуруҳ талабалари, СамДАҚУ
Ширинбоев Хуршид Асқар ўғли
1540-БваИҚ-02-гуруҳ талабалари, СамДАҚУ
Валиев Орифжон Валиевич
СамДАҚН инспекцияси ходими.

Аннотация. Мазкур мақолада турар-жой биноларининг ертўла деворини иссиқлик изоляция қилиш ҳисобига энергия самарадорлигини ошириш, қулай муҳит яратишда қўлланилаётган иссиқлик изоляция қатламининг техник – иқтисодий кўрсатгичлари тажрибалар асосида келтирилган.

Калит сўзлар: ертўла, изоляция, ўтказувчанлик, техник-иқтисодий кўрсатгичлар.

Abstract. This article presents, based on experiments, the technical and economic indicators of the thermal insulation layer used to increase energy efficiency and create a comfortable environment through thermal insulation of basement walls of residential buildings.

Keywords: basement, insulation, conductivity, technical and economic indicators.

Аннотация. В данной статье на основе экспериментов представлены технико-экономические показатели теплоизоляционного слоя, используемого для повышения энергоэффективности и создания комфортной среды за счет теплоизоляции стен подвалов жилых зданий.

Ключевые слова: подвал, изоляция, пропускная способность, технико-экономические показатели.

Кириш

Энергия ресурсларининг энг кўп сарфи, аввало, иқтисодиёт тармоқларига тўғри келади. Эски даврларда қурилган бино ва иншоотлар экология ва энергия самарадорлик талабларига жавоб бермаган. Йиллар давомида бундай биноларнинг модернизацияга етарли эътибор берилмаган [1].

ISSN 3030-3907

Шу боис бино ва иншоотларнинг энергия самарадорлик ва тежамкорлик кўрсатгиялари тушиб кетишига сабаб бўлган. Маълумки, бугунги ривожланган мамлакатларнинг иқтисодий ривожланишида энергия самарадорлик соҳасига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Барча турдаги бино ва иншоотлар, ишлаб чиқариш, саноат бинолари унинг жиҳозлари қишлоқ хўжалаги соҳасида ҳам энергияни иқтисод қилиш масаласи долзарб бўлиб келмоқда.

Шу сабабли, биноларнинг (*турар-жой ва жамоат*) ташқи тўсиқ конструкцияларини энергия самарадор қилиб лойиҳалаш ва қуриш ҳам муҳим вазифа хисобланади. Шу билан бир қаторда, бунда унинг техник-иқтисодий кўрсатгичларига ҳам алоҳида эътибор қаратиш талаб этилади.


Асосий қисм: Бинонинг ташқи тўсиқ конструкцияларини иссиқлик изоляция қилишда унинг техник-иқтисодий кўрсатгичларини таққослаш ва энг самаралисини танлаш учун тажриба-тадқиқотлари олиб борилган мавжуд бино мисолида кўриб чиқамиз.

Тажриба тадқиқотлари Самарқанд вилояти ҳудудида қурилган, бир қаватли ертўлали жамоат биносининг, ертўла ташқи деворларида олиб борилган. Бинонинг вазифаси ва унинг ўлчам параметрлари қуйида келтирилган.

Бинонинг ертўла қисми соғломлаштириш комплекси учун, биринчи қавати эса маиший хизмат кўрсатиш учун мўлжалланган. Бинонинг умумий узунлиги L=21 м, эни эса B=12.05 м ни ташкил қилади. Бинонинг умумий баландлиги ер сатҳидан 7.4 м ни ташкил этади.

Бинонинг ертўла поли биринчи қават полидан 3 м пастда жойлашган бўлиб, пол сифатида бетон пол қўлланилган (1-расм). Бинонинг ертўла ташқи деворлари қуйма монолит бетондан қилинган бўлиб, қалинлиги 0.4 м ни ташкил қилади. Ертўлани табиий ёритиш мақсадида, бинонинг узунлиги йўналишида ўлчами 0.9x0.6 м ли 5 дона (акфа) дераза ўрнатилган. Ертўла полидан дераза остигача бўлган баландлик 1.5 м ни ташкил қилади.

ISSN 3030-3907



1-расм. Самарқанд вилояти ҳудудида жойлашган бир қаватли ертўлали жамоат биносининг ертўла режаси ва ертўла деворининг кесими

Бундан ташқари, ертўлага кириш учун бинонинг олди қисмидан ўлчами 2.1х1.2 м 2 дона ва орқа томонидан 2.1х1.5 м 1 дона (акфа) эшиклар ўрнатилган. Ертўла қисмининг ички фазовий муҳитини кенгайтириш мақсадида, ўлчами 0.4х0.4 метрли 3 дона устунлар ўрнатилган. Ертўла ёпмаси сифатида 6х1.2 м ли 32 дона ғовакли плиталар қўлланилган.

Техник – иқтисодий кўрсатгичлар ертўла ташқи девори учун аниқланишини ҳисобга олиб, юқоридаги маълумотларга асосан ертўла девори орқали йўқотиладиган иссиқлик юзаларини аниқлаб оламиз.

Бунинг учун дастлаб қуйидагиларни аниқлаб оламиз:

$$L_{дев.пер.} = (21{,}4 + 12{,}45) \cdot 67{,}7м;$$

$$L_{дев.баланд.} = 2{,}7;$$

$$S_{эшик} = (2{,}1 \cdot 1{,}2) \cdot 2 + 2{,}1 \cdot 1{,}5 = 8{,}19м^2;$$

$$S_{дераза} = (0{,}9 \cdot 0{,}6) \cdot 5 = 2{,}7м^2;$$

Ушбу кўрсатгичларга асосан иссиқлик йўқоладиган ертўла ташқи деворининг умумий юзасини аниқлаб оламиз:

$$S_{умумий.дев.} = L \cdot h - S_{эшик} - S_{дераза} = 67{,}7 \cdot 2{,}7 - 8{,}19 - 2{,}7 = 171{,}9м^2;$$

Қуйида ушбу аниқланган кўрсатгичларга асосан иссиқлик иссиқлик оқими миқдорлари аниқланган 3 хил намудаги ертўла ташқи деворларининг техник-иқтисодий кўрсатгичларини кўриб ўтамиз:

1-анъанавий усулда (иссиқлик изоляция қатламисиз) барпо этилган ертўла ташқи девори учун (1-расм):

Тажриба тадқиқотлари ўтказилган ертўла деворининг қалинлиги 40 см бўлиб, ички томондан 2 см қалинликдаги сувоқ қатлами билан сувалган. Ушбу ертўла деворидан йўқотиладиган иссиқлик миқдори [2]


ISSN 3030-3907

да келтирилган 3.6-жадвалдаги кўрсатгичга асосан $Q = 37,41 Вт / м^2$ ни ташкил қилди. Бу қийматни эътиборга олиб, умумий юзаси 171,9 м^2 бўлган экспериментал ертўла деворидан йўқотилаётган энергиянинг миқдорини аниқлаймиз:

$$Э_{мик} = S_{умумий.дев} \cdot Q = 171,9 \cdot 37,41 = 6431 Вт \cdot соат = 6,431 кВт \cdot соат.$$

Бу кўрсатгич 24 соатда $24 \cdot 6,341 = 154,4 кВт$ ни ташкил қилади. Агар буни бир ойлигини қарайдиган бўлсак, умумий ҳисобда $30 \cdot 154,4 = 4632 кВт$ энергия сарфини кўриш мумкин. Иситиш мавсумининг қиш фасли учун олиб қарасак, яъни ўртача уч ойликка қарайдиган бўлсак, юқоридаги кўрсатгич $3 \cdot 4632 = 13896 кВт$ ни ташкил қилади. [3] да келтирилган таърифларга асосан, умумий ҳисобда уч ойлик қиш мавсумида $13896 \cdot 700 = 9708300$ сўмлик энергия сарфланади.

2-иссиқлик изоляция қатлами ички томондан қўйилган ертўла ташқи девори учун (2-расм):



2-расм. Ертўла режаси ва ертўла девори кесими (иссиқлик изоляция плитаси ичкаридан ўрнатилган ҳолат).

Иккинчи ҳолатда, ертўла деворининг ички томонидан қалинлиги 50 мм ли Пеноплекс иссиқлик изоляция плитаси қўйилиб, унинг устидан гипсокартон (*knauf*) листлари ўрнатилган. Ушбу ертўла деворидан йўқотиладиган иссиқлик миқдори [2] да келтирилган 3.4 жадвалдаги кўрсатгичларга асосан $Q = 4,2$ Вт/м^2 ни ташкил қилади. Бу қийматни эътиборга олиб, умумий юзаси 171.9 м^2 бўлган экпериментал ертўла деворидан йўқотилаётган энергиянинг миқдорини аниқлаймиз:

ISSN 3030-3907

$$Э_{мик} = S_{умумий.дев} \cdot Q = 171,9 \cdot 4,2 = 721,98Вт \cdot соат = 0,722кВт \cdot соат$$


Бу кўрсатгич 24 соатда $24 \cdot 0,722 = 17,33$ кВт ни ташкил қилади. Буни бир ойлиги 519,9 кВт энергия сарфини ташкил этади. Иситиш мавсумини қиш фасли учун, яъни ўртача уч ойлиги учун, юқоридаги кўрсатгич $3 \cdot 519,9 = 1559,7$ кВт ни ташкил қилади. [3] да келтирилган таърифларга асосан, умумий ҳисобда уч ойлик қиш мавсумида 1 млн. 91 минг 790 сўмлик энергия сарфланади.

3-иссиқлик изоляция қатлами ташқи томондан қўйилган ертўла ташқи девори учун (3-расм):

Учинчи қалинлиги 50 мм ли иссиқлик изоляция плитаси ертўла деворининг ташқи томонидан ўрнатилиб, унинг устидан грунт қатламида асбестоцемент листлар, цоколь қисмида эса кафел қопланган. Ушбу ертўла деворидан йўқотиладиган иссиқлик миқдори [2] да келтирилган 3.5-жадвалдаги кўрсатгичларга асосан $Q = 3,13$ Вт/м^2 ни ташкил қилади. Бу қийматни эътиборга олиб, умумий юзаси 171.9 м^2 бўлган экпериментал ертўла деворидан йўқотилаётган энергиянинг миқдорини аниқлаймиз.

$$Э_{мик} = S_{умумий.дев} \cdot Q = 171,9 \cdot 3,13 = 538,05Вт \cdot соат = 0,538кВт \cdot соат$$

Бу кўрсатгич 24 соатда $24 \cdot 0,538 = 12,91$ кВт ни ташкил қилади. Бир ойда 387,4 кВт энергия сарфи келиб чиқади. Иситиш мавсумининг қиш фасли учун, яъни ўртача уч ойлиги $3 \cdot 387,4 = 1162,2$ кВт ни ташкил қилади.



3-расм. Ертўла режаси ва ертўла девори кесими (иссиқлик изоляция плитаси ташқаридан ўрнатилган ҳолат).

ISSN 3030-3907

[3] да келтирилган таърифларга асосан, умумий ҳисобда уч ойлик қиш мавсумида 813 минг 540 сўмлик энергия сарфланади.

Анъанавий усулда ва иссиқлик изоляция плиталари ўрнатилиб барпо қилинган ертўла деворларининг самарадорлик кўрсатгичларини қуйидаги жадвалга белгилаб оламиз.

1-жадвал

Ертўла деворининг ҳолати	Иссиқлик оқими-нинг миқдори, Q, Вт/м^2	Йўқотиладиган энергия миқдори (3 ой қиш мавсумида), кВт	Иқтисодий кўрсаткич, *сўмда 2023 йилда*
1-ҳолат (изоляция қатламисиз)	37.41	13896	9708300
2-ҳолат (ички томондан изоляция қилинганда)	4.2	519.9	1091790
3-ҳолат (ташқи томондан изоляция қилинганда)	3.13	387.4	813540

Юқоридаги ҳисоблашлардан шундай хулоса қилиш мумкинки, анъанавий усулда барпо этилган ертўла ташқи деворларидан йўқотиладиган энергиянинг миқдори, иссиқлик изоляция қатламни ички томондан ўрнатилганга нисбатан 26,73 мартага, иссиқлик изоляция қатламни ташқи томондан ўрнатилганига нисбатан эса 35,87 мартага кўпроқ эканлиги аниқланди.

Олинган натижалардан келиб чиққан ҳолда, анъанавий усулда ва иссиқлик изоляция плиталари ичкаридан ва ташқаридан ўрнатилган усулда ўлчами 21х12.05 м бўлган жамоат биносининг умумий юзаси 172 м^2 бўлган ертўла деворларини барпо қилишга кетадиган сарф-харажатларни ҳисоблаб чиқамиз.

Дастлаб анъанавий усулда, яъни иссиқлик изоляция қилинмаган ҳолатда юқорида келтирилган ўлчамдаги ертўла деворини барпо қилиш учун, бугунги кундаги сарф-харажатлар миқдори 74 млн. 508 минг. 508 сўмни ташкил қилади. Смета харажатлари [3] даги 2-иловада келтирилган.

Қалинлиги 50 мм бўлган ПЕНОПЛЭКС ГЭО иссиқлик изоляция плитаси ички томондан ўрнатилган худди шу ўлчамдаги ертўла ташқи деворни барпо қилишга умумий ҳисобда 103 млн. 553 минг 460 сўмни ташкил этади. Смета харажатлари [3] даги 3-иловада келтирилган.

Қалинлиги 50 мм бўлган ПЕНОПЛЭКС ГЭО иссиқлик изоляция плитаси ташқи томондан ўрнатилган худди шу ўлчамдаги ертўла ташқи деворни барпо қилишга эса кетадиган сарф-харажатлар миқдори 104 млн. 490

ISSN 3030-3907

минг сўмни ташкил этади. Смета харажатлари [3] даги 4-иловада келтирилган. Ушбу сарф-харажатлар миқдори 1 м^2 девор учун тажрибалар ўтказилган даврни ҳисобга олган ҳолатда ҳисоблаб чиқилган.

Хулоса. Юқоридаги сарф-харажатларни таққослаб хулоса қиладиган бўлсак, ўлчами 21х12.05 м ли, умумий юзаси 172 м^2 бўлган ертўла деворини анъанавий усулда барпо қилиш, таклиф қилинаётган иккита усулнинг биринчисига нисбатан 29 млн. 44 минг 953 сўмга ёки 28,05 % га, иккинчи усулга нисбатан эса 29 млн. 981 минг 492 сўмга ёки 28,7% га арзонроқ. Бироқ, 1-жадвалда келтирилган қийматларни эътиборга олиб, мазкур бинонинг эксплуатация даврини ўрта ҳисобда 50 йил десак, унда анъанавий усулда барпо этиладиган ертўла девори орқали йўқоладиган энергия учун кетадиган сарф-харажатларнинг миқдори 485 млн. 415 минг сўмни ташкил этади. Агар сарфланадиган энергия нархининг йиллар давомида ошишини ҳам эътиборга оладиган бўлсак, бу қиймат бундан ҳам катта бўлади.

Ертўла деворлари 2-усулда барпо этилса, бу кўрсатгич эксплуатация даврида умумий ҳисобда 54 млн. 589 минг 500 сўмни ташкил этади.
3-усулда барпо этилганда 40 млн 677 минг сўмни ташкил этади.

Бунда, анъанавий усулда барпо этиладиган ертўла деворлари орқали йўқоладиган энергиянинг ўрнини тўлдириш учун кетадиган сарф-харажатнинг миқдори, 2-усулга нисбатан 430 млн. 825 минг 500 сўм ёки (8,9 мартага), 3-усулга нисбатан 444 млн. 738 минг сўм ёки 11,9 мартага қиммат эканлигини кўришимиз мумкин.

Агар энергияни тежаб қолишдан олинадиган фойдани эътиборга олсак, ертўла деворларини 2-усулда барпо қилиш учун кетадиган қўшимча 29 млн 44 минг 953 сўм сарф-харажат эксплуатация даврининг дастлабки 3 йилу 5 ойида, 3-усулда барпо қилиш учун кетадиган қўшимча 29 млн. 981 минг 492 сўм сарф-харажат эксплуатация даврининг дастлабки 3 йилу 4 ойида ўзини қоплашини кўриш мумкин.

Ушбу бинони фойдаланиш даврида иситиш ва совутиш учун сарф бўладиган энергияни тежаб қолишдан кўрилган соф фойда таклиф этилаётган 2-усулда 401 млн. 780 минг 547 сўмни, 3-усулда эса 414 млн. 846 минг 508 сўмни ташкил қилиши маълум бўлди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 26 март куни энергия ресурсларини иқтисод қилиш, истеъмол самарадорлигини ошириш ҳамда улардан оқилона фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисидаги йиғилиши.

ISSN 3030-3907

2. А.С.Қурбонов. Биноларнинг ер ости қисмидан йўқоладиган иссиқликни камайтириш ҳисобига энергия самарадорлигини ошириш. Диссертация. 2023 йил.
3. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 30 июлдаги “Ёқилғи-энергетика ресурслари таъминотида бозор механизмларини жорий этиш тўғрисида”ги 348-сонли қарори. https://review.uz/oz/post/fuqarolar-uchun-elektr-va-gaz-narxi/
4. Sirozhiddinov, Z. (2023). Probabilistic approach to the calculation of ground and foundations by limit states. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(1), 47-55.
5. Z., S. and D., I. 2023. Calculation of the Reliability of Pile Foundations. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. 3, 1 (Jan. 2023), 65–70.
6. Тулаков, Э. С., Иноятов, Д., & Қурбонов АС, М. Б. П. (2020). Бинолар-нинг ертўла деворларини иссиқлик изоляциялаш ва унинг қалинлигини ҳисоблаш. Me’morchilik va qurilish muammolari Проблемы архитектуры и строительства. Samarqand, 4, 29-32.
7. Tulakov, E. S., Inoyatov, D. T., & Kurbonov, A. S. (2019). Waterproofing and calculation of the thickness of the insulation of the basement wall of a low-rise energy-efficient house in accordance with domestic and foreign standards and norms. International Journal of Scientific and Technology Research, 8(11), 3311-3314.
8. Tulakov E. et al. Experimental analysis of moisture protection of buildings //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 559. – С. 04018.
9. DT, I., & ES, T. (2022). Theoretical Solutions for Calculating the Height of the Capillary Rise of Water in the Foundation of a Building. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), 3(2), 15-20.
10. Sirozhiddinov Z. et al. Probabilistic approach to the calculation of ground and foundations by limit states //Journal of Advanced Studies of Engineering Science. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 47-55.
11. Тулаков Э. С., Маматкулова З. Ш., Иноятов Д. Т. Учет сейсмического воздействия в расчетах отдельно стоящих сооружений при аварийном замачивании лессовых грунтов //Ta’lim fidoyilari. – 2022. – Т. 13. – С. 90-95.
12. Tulakov, E., Kurbonov, A., Inoyatov, D., Eshatov, I., & Abdullayeva, S. (2024). Study on the heat and vapor transfer resistance of the basement’s outer walls and calculation of moisture regime: A case study of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 563, p. 02022). EDP Sciences.
13. Eshatov, I., Abduraimov, M., Aymatov, A., Mustayev, B., Xaydarov, S., Maxmudova, F., ... & Inoyatov, D. (2024). Placement of trade and household

ISSN 3030-3907

service complexes in regions of Uzbekistan according to climatic conditions. In E3S Web of Conferences (Vol. 559, p. 01006). EDP Sciences.
14. Фокин, К.Ф. Строительная теплотехника ограждающих частей зданий. – М.: Стройиздат, 1973. – 287 с.

ISSN 3030-3907

УДК: 665.335.1

GILOS URUG‘I BIOLOGIK FAOL MODDALARI VA ULARNING SALOMATLIK UCHUN FOYDALI XUSUSIYATLARI

Hasanova A.Sh.

Buxoro davlat texnika universiteti, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada gilos urug‘i va uning yog‘ining biologik faol xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va sog‘liq uchun foydali jihatlari o‘rganildi. Gilos urug‘ida mavjud bo‘lgan antioksidantlar, yog‘li kislotalar, vitaminlar va minerallar uning yallig‘lanishga qarshi, yurak-qon tomir salomatligi, jigarni tozalash, immun tizimini mustahkamlashga oid xususiyatlarini belgilaydi. Amaliy tajriba natijalariga ko‘ra, gilos mag‘zidan presslash va ekstraksiya usullari bilan yuqori sifatli yog‘ ajratib olindi. Tadqiqotda moyning kislotali soni, yog‘dorlik darajasi, quritish va qayta ishlash texnologiyasi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Gilos urug‘i, gilos moyi, antioksidant, omega-3, yallig‘lanish, ekstraksiya, kislotali soni.

Аннотация. В данной статье изучены биологически активные свойства и химический состав косточек вишни и полученного из них масла. Содержимое антиоксидантов, жирных кислот, витаминов и минералов определяет их противовоспалительные свойства, пользу для сердечно-сосудистой системы, очищение печени и укрепление иммунной системы. В рамках практического исследования было получено масло из ядра вишни методом прессования и экстракции. Определены кислотное число масла, степень жирности, параметры сушки и обработки.

Ключевые слова: Косточка вишни, вишнёвое масло, антиоксиданты, омега-3, воспаление, экстракция, кислотное число

Abstract. This article investigates the bioactive properties and chemical composition of cherry seeds and their oil. The presence of antioxidants, fatty acids, vitamins, and minerals in the seeds contributes to their anti-inflammatory properties, cardiovascular benefits, liver detoxification effects, and immune support. Through practical experiments, high-quality oil was extracted from cherry kernels using pressing and extraction methods. The acid number, fat content, drying, and processing indicators were analyzed in detail.

Keywords: Cherry seed, cherry oil, antioxidant, omega-3, inflammation, extraction, acid number

Kirish

Gilos (Prunus avium) nafaqat shirin va foydali mevasi, balki uning urug‘i ham qimmatli biologik resurs sifatida e’tirof etilmoqda. Gilos urug‘i tarkibida mavjud bo‘lgan biologik faol moddalar sog‘liqni saqlash, farmatsevtika va

ISSN 3030-3907

kosmetika sohalarida foydalanishga katta imkoniyat yaratadi. Ushbu maqolada gilos urug‘ining foydali xususiyatlari, uning yog‘i tarkibining kimyoviy tahlili, shuningdek, amaliy tadqiqot natijalari asosida olingan ko‘rsatkichlar yoritiladi. Mavzuning dolzarbligi gilos urug‘i sanoat chiqindisi sifatida qaralmay, iqtisodiy va biologik jihatdan foydali mahsulotga aylanishiga asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili. Gilos urug‘i yog‘i bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlar uning yuqori antioksidant faolligini ko‘rsatadi. Xususan, flavonoidlar, polifenollar, linoleik va olein kislotasi borligi sog‘liq uchun muhimdir [1]. Ko‘pgina tadqiqotchilar bu yog‘ning teri salomatligiga, yurak-qon tomir tizimiga va immunitetga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [2]. Siyanid birikmalari borligi sababli ehtiyotkorlik talab etiladi, ammo to‘g‘ri ishlov berish bilan bu xavf minimallashtiriladi [3]. So‘nggi yillarda gilos urug‘i yog‘i va uning biofaol komponentlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur xomashyoning farmakologik va texnologik salohiyati yuqoriligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Mert va hammualliflarining (2012) izlanishlarida gilos urug‘idan olinadigan yog‘ yuqori miqdordagi linoleik (omega-6) va olein (omega-9) kislotalariga boy ekani aniqlangan. Bu yog‘larning yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta’siri va teri regeneratsiyasini tezlashtiruvchi xususiyatlari mavjudligi isbotlangan [4]. Martínez va boshqalar (2010) o‘z ishlarida gilos urug‘i yog‘ining turli ekstraksiya usullari (presslash, Soxhlet va CO_2 superkritik ekstraksiya) bo‘yicha fizik-kimyoviy tavsiflarini solishtirgan. Ularning natijalariga ko‘ra, CO_2 usuli bilan olingan yog‘lar eng yuqori antioksidant faollik va sof tozalik darajasiga ega bo‘lgan [5]. Shuningdek, Shahidi va Zhong (2010) tomonidan yog‘larning oksidlanish stabilligiga doir olib borilgan tadqiqotlar gilos moyidagi tabiiy antioksidantlar (flavonoidlar, tokoferollar) miqdorining yuqoriligi sababli uning uzoq muddat saqlanish xususiyatiga egaligini ko‘rsatgan [6]. Bu esa uni kosmetika va dorivor vositalar uchun muhim xomashyo sifatida tasdiqlaydi. Zheng va Wang (2003) mevalarda uchraydigan fenolik birikmalarning kislorod radikallarini tutish qobiliyatini tahlil qilgan. Ularning ma’lumotlariga ko‘ra, gilos urug‘i moyidagi fenoliklar yuqori DPPH radikal tutish faolligiga ega bo‘lib, u 70% dan oshgan natijalarni ko‘rsatgan [7,8]. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlar (Toirov, 2019; Xitoy-O‘zbekiston ilmiy markazi, 2023) asosida gilos urug‘i moyining namlik miqdori, kislotali soni va yog‘dorlik darajasini aniqlash bo‘yicha laboratoriya ishlari olib borilgan. Bu natijalar xorijiy tadqiqotlar bilan mos bo‘lib, gilos mag‘zidan olingan moy sifat jihatidan eksportbop sanoat mahsulotiga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi [9–10].

Mazkur tahlillar asosida gilos urug‘i yog‘i universal va ko‘p tarmoqli qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lgan muhim bioresurs sifatida e’tirof etiladi.

ISSN 3030-3907

Adabiyotlar bu yog‘ning nafaqat sog‘liq uchun foydali ekanligini, balki uni texnologik jihatdan samarali tarzda ajratib olish va saqlash mumkinligini ham tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda gilos urug‘lari quritilib, yanchilgan va mag‘zidan ajratilgan. 100–105°C da 1 soat quritilgan. Ekstraksiya 130–140°C da 24 soat davom etgan. Yog‘dagi kislota soni titrlash usuli bilan aniqlangan (3.67%). Tajriba uchun fenoftalin, NaOH, etil spirt va efir reagentlari ishlatilgan.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gilos urug‘i va uning mag‘zidan olingan namunalarda yog‘ miqdori sezilarli darajada farq qiladi. Jumladan, olib borilgan tajribalar natijasida quyidagi ma’lumotlar aniqlandi va ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Mahalliy olxo‘ri urug‘i, gilos urug‘i, gilos mag‘zilarning sifat ko‘rsatkichlari

№	Namuna nomi	Yog‘ og‘irligi (g)	Namuna og‘irligi (g)	Yog‘dorlik (%)
1	Mahalliy olxo‘ri urug‘i	0.585	5.000	11.7
2	Gilos urug‘i	0.605	5.000	12.1
3	Gilos mag‘zi	1.912	5.000	38.24

Gilos mag‘zidan olingan yog‘ning yog‘dorlik darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘lib, 38,24% ni tashkil etdi.

Quritish jarayonida 3% atrofida namlik yo‘qotilishi qayd etildi.

Ekstraksiya va presslash usullari bilan yuqori sifatli yog‘ ajratib olishga erishildi. Gilos urug‘i tarkibidagi moy miqdorini aniqlash laboratoriya tahlillari universitetning “Xitoy-O‘zbekiston moyli xomashyolarni qayta ishlash va qo‘shimcha mahsulotlardan kompleks foydalanish ilmiy tadqiqot markazi” laboratoriyasida amalga oshirildi va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Xomashyo, Sokslet uskunasi va olingan gilos moyi

Amaliy tajribalarda gilos urug‘i va mag‘zining fizik-kimyoviy va biologik xossalari chuqur o‘rganildi. Namunalardan olingan yog‘larning organoleptik ko‘rsatkichlari, rangi, xidi, zichligi va o‘tkazuvchanlik darajasi aniqlanib,

ISSN 3030-3907

standartlar bilan taqqoslandi. Gilos mag‘zidan olingan yog‘ toza sariq-jigarrang tusga ega bo‘lib, efirli va mevasimon hid bilan ajralib turadi.

Yog‘ning zichligi 0.92 g/sm³ atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich uni kosmetik vositalarda ishlatishga mos kelishini bildiradi. Qovushqoqlik darajasining o‘rtacha qiymati 30°C haroratda 68 mPa·s atrofida bo‘ldi. Bu xususiyatlar uni teri uchun yumshatuvchi vosita sifatida ishlatishga imkon beradi.

Gilos urug‘i yog‘ining tarkibiy tuzilmasi gaz xromatografiya usuli bilan aniqlanganda quyidagi asosiy komponentlar mavjudligi aniqlandi:

Linolen kislota (omega-6) – 44–48%

Olein kislota (omega-9) – 35–38%

Palmitin va stearin kislotalari – 10–12%

E vitamini (tokoferol) – 18–22 mg/100g

Ushbu yog‘ kislotasi spektri gilos urug‘i moyini yurak-qon tomir tizimini qo‘llab-quvvatlovchi tabiiy vosita sifatida tavsiya etish imkonini beradi. Ayniqsa, omega-6 va omega-9 nisbatining muvozanatli bo‘lishi uni parhezbop mahsulotlarga moslashtiradi.

Shuningdek, antioksidant faollikni aniqlash uchun DPPH test o‘tkazildi. Test natijalariga ko‘ra, gilos moyining erkin radikallarni neytrallash darajasi 71.4% ni tashkil etdi, bu esa moyning kuchli antioksidant manbai ekanligini ko‘rsatadi. Gilos urug‘i moyining yallig‘lanishga qarshi ta’sirini baholash maqsadida **in vitro** sharoitida lipo-oksigenaza fermenti inhibisiyasi bo‘yicha testlar o‘tkazildi. Natijalarda moy 65% gacha ferment faolligini kamaytirishi kuzatildi, bu esa uni yallig‘lanishga qarshi vosita sifatida ishlatish imkonini beradi. Ushbu natijalar asosida gilos urug‘i moyini quyidagi sohalarda amaliy qo‘llash maqsadga muvofiq deb topildi:

Kosmetika sanoati (teri parvarishi, sochni oziqlantiruvchi vositalar)

Farmatsevtika (terini tiklovchi va yallig‘lanishga qarshi preparatlar uchun asos)

Parhez mahsulotlar (yurak-qon tomir va jigar sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlash vositasi)

Xulosa va takliflar. Gilos urug‘i va uning mag‘zidan olingan yog‘ sog‘liq uchun foydali, yuqori sifatli ozuqaviy mahsulot sifatida ahamiyatga ega. Bu yog‘da omega-3, E vitamini, flavonoidlar va yallig‘lanishga qarshi moddalar mavjudligi uni farmatsevtika va kosmetologiyada qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, siyanid moddalar mavjudligi sababli xavfsiz ishlov berish texnologiyasiga e’tibor qaratish muhim. Taklif tariqasida, gilos urug‘ining qayta ishlanishi uchun kichik sanoat liniyalarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bundan tashqari O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida gilos urug‘i va uning mag‘zidan olingan yog‘ biologik faol

ISSN 3030-3907

komponentlarga boyligi, yuqori sifatli yog‘ olish imkoniyati, shuningdek, uni farmatsevtika, kosmetologiya va oziq-ovqat sanoatida qo‘llash uchun keng istiqbollarga ega ekani isbotlandi. Yog‘ tarkibida linoleik (omega-6) va olein (omega-9) kislotalarining yuqori miqdorda mavjudligi, tokoferollar (E vitamini) va flavonoidlarning aniqlanishi uning antioksidant va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarini belgilaydi.

Gaz xromatografiya tahlillari, DPPH testi va fermentativ faoliyatni inhibisiya qilish bo‘yicha o‘tkazilgan sinovlar gilos moyining yurak-qon tomir, jigar va teri salomatligi uchun foydali ekanligini ilmiy asoslab berdi. Ayniqsa, yog‘ning zichligi, qovushqoqligi va tabiiy hid-makiyaj komponentlari bilan muvofiqligi uni kosmetik vositalar uchun muhim xomashyo sifatida e’tirof etish imkonini beradi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Gilos urug‘i sanoat chiqindisi sifatida ko‘rilmasdan, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega biologik resurs sifatida qayta ishlanishi lozim.

Gilos mag‘zidan moy olish bo‘yicha kichik hajmli laboratoriya va yarim sanoat liniyalarini tashkil etish iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiq.

Olingan yog‘ tarkibining to‘liq sertifikatsiyasini amalga oshirib, uni kosmetika va farmatsevtika mahsulotlari uchun texnik reglamentlarga moslashtirish kerak.

Moyni oziq-ovqat sohasida qo‘llash uchun siyanid birikmalarining miqdorini kamaytirish, neytrallash texnologiyalarini ishlab chiqish va xavfsizlik me’yorlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy xomashyodan foydalangan holda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov N. R., “O‘simlik yog‘larining kimyoviy tahlili”, Toshkent, 2019.
2. Johnson D. et al., “Phenolic compounds and their role in health”, J. Nutr. Biochem., 2020.
3. Sharipova L., “O‘zbekiston bozorlarida gilos yog‘i tarkibi va xavfsizligi”, Ilmiy amaliy jurnal, 2021.
4. Mert, R. et al. (2012). *Oil extraction from cherry seed (Prunus avium L.): Physico-chemical properties and antioxidant activity*. Journal of Food Science and Technology, 49(2), 220–226. https://doi.org/10.1007/s13197-011-0286-5
5. Kikuzaki, H. & Nakatani, N. (1993). *Antioxidant effects of some ginger constituents*. Journal of Food Science, 58(6), 1407–1410.

ISSN 3030-3907

6. Zheng, W. & Wang, S.Y. (2003). *Oxygen radical absorbing capacity of phenolics in fruits, vegetables, and cereals*. Journal of Agricultural and Food Chemistry, 49(3), 497–506.
7. Baldino, L. et al. (2020). *Supercritical CO2 extraction of cherry seed oil: Process optimization and characterization*. The Journal of Supercritical Fluids, 160, 104800.
8. Martínez, M.L., et al. (2010). *Characterization of cherry seed oil obtained by different extraction methods*. Food Chemistry, 123(2), 417–425
9. Shahidi, F., & Zhong, Y. (2010). *Lipid oxidation and improving the oxidative stability*. Chemical Society Reviews, 39(11), 4067–4079.
10. Gavrilas, L. et al. (2021). *Natural compounds as nutraceuticals against liver diseases: A review of recent literature*. Frontiers in Pharmacology, 12, 714010.
11. Uzbekstandart Agentligi. (2021). *Oziq-ovqat moylari texnik reglamenti – TR O‘z DSt 003:2021*. Toshkent: O‘zstandart.
12. Toirov, U.R. (2019). *O‘simlik moylarini ekstraksiyalash va tozalash texnologiyasi*. Toshkent: Oziq-ovqat sanoati nashriyoti.
13. Xitoy-O‘zbekiston ilmiy markazi hisobot materiallari. (2023). *Yog‘li xomashyolardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tajriba natijalari*. Buxoro davlat texnika universiteti.

ISSN 3030-3907

ELEKTROKONTAKT USULI BILAN METALLARNI QIZDIRISH

Xakimov Nodir Nurilloyevich.
Andijon davlat texnika instituti "Materialshunoslik" kafedra assistenti
E-mail: xakimovnodir5@gmail.com,
Tel: +998902031170

Annotatsiya: Zagotovkalarni elektr zanjiriga ketma ket ulanib qizdirish jarayonini nisbatan avtomatlashtirish ancha oson, elektrokonaktda qizdirish qurilmasini avtomatik liniyaga o'rnatish qulay, metallga qizdirib ishlov berishning barcha turlarida zagotovkalarni qizdirishda qo'llash mumkin. Undan tashqari, elektrik zanjirlarni ketma ket qizdirishga ulashda tok kuchini bosimi, boshqa turdagi sxemalarga nisbata sezilarli darajada pastdir.

Kalit so'zlar: Zagotovkalarga qizdirib ishlov berish, elektrokontakt, ikki maydonli qizdiruvchi, Kuchlanishni kamaytirish, Zagotovkalarni elektr zanjiri, Elektr qizdirish qurilmalari.

Аннотация: Сравнительно просто автоматизировать процесс нагрева заготовок, последовательно включив их в электрическую цепь, нагревательное устройство удобно устанавливать в автоматической линии в электрическом контакте, и его можно использовать для нагрева заготовок при всех видах термической обработки металлов. Кроме того, при подключении электрических цепей к последовательной системе отопления давление тока значительно ниже, чем в других типах цепей.

Ключевые слова: Предварительный нагрев деталей, электрический контакт, двухполевой нагреватель, Снижение напряжения, Электрическая цепь деталей, Электронагревательные устройства.

Abstract: The process of heating workpieces by connecting them in series to an electric circuit is relatively easy to automate, it is convenient to install the heating device in an automatic line in an electric contact, it can be used for heating workpieces in all types of metal heat treatment. In addition, the current pressure when connecting electric circuits to heating in series is significantly lower than in other types of schemes.

Keywords: Preheating of workpieces, electrical contact, double-field heater, Voltage reduction, Electrical circuit of workpieces, Electrical heating devices.

Kirish.

Agar pechning barcha ishchi qismlarida xuddi shunday qizdirish tartibi qo'llanilsa, qizdirish qurilmasini samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Barcha turdagi qizdirish turi uchun qurilmani asosiy texnik ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha asosiy natijalar va texnik samarodorlik bo'yicha ikki holatli, ikki maydonli qurilma


ISSN 3030-3907

samarli ekanligini ko‘rish mumkin, konstruksiyasi jihatidan ham juda sodda, foydalanish qullay.

Zagotovkalarga qizdirib ishlov berishda elektrokontakt usuli bilan qizdirishning avzalligi, elektr tokini to‘g‘ridan to‘g‘ri zagotovkaning tana qismiga tegishi natijasida hosil qilingan issiqlikdan foydalaniladi. Bunday issiqlik miqdori Q (Dj) Djoul-Lens qonuniyatiga asosan, tok kuchining kvadaratiga (l), metallning qarshligiga (R) va qizdrish vaqtiga (t) to‘g‘ridan to‘g‘ri proporsonaldur:

$$Q = 0{,}24\ l^2Rt, Dj.$$

1-rasmda zagtovkalarni elektrokontakt usuli bilan qizdirish sxemasi ko‘rsatilgan. Po‘lat zagotovka *2* kontakt *1* bilan kerakli bosimda siqiladi va undan katta kuchda tok (doimiy yoki o‘zgaruvchan) o‘tkaziladi. Zagotovakni to‘k o‘tkazuvchanlikga qarshlik ko‘rsatish darajasi kichik bo‘lganligi hisobiga kichik qarshlikda katta tok kuchi o‘tadi. Kuchlanishni kamaytirish uchun transformator *6* qurilmasidan foydalaniladi. Ta’minlash qurilmasi sifatida doimiy va o‘zgaruvchan tokdan foydalaniladi.



1-rasm. Bir holatli qurilma (*a*) va ketma ket bo‘lgan ko‘p holatli qurilma (*b*) va qizdirluvchi zagotovkaga parallel ta’sir qiluvchilarni sxemalari: *1* – ta’sir kiluvchi aloqa; *2* – qizdiriluvchi zagotovka; *3* – tok keluvchi qoplama; *4* – kataktlarni bog‘lovchi; *5* – holatlarni bog‘lovchi; *6* – kuchli transformator

Zagotovkalarga qizdirib ishlov berishdagi qizdirish davomiyligi uning uzunligi va diametriga bog‘liq. Masalan, zagotovkani diametri 35 *mm* va uzunligi 700 *mm* bo‘lib, 1250 ^oC gacha qizdirish uchun 23 - 25 *sekund* vaqt sarflanadi.

Zagotovkani qizdirish maydonini soniga bog‘liq holatda tok o‘tkazgich sxemasi quydagicha bo‘linadi (1-rasm):

a) bir maydonli, zagotovkani butun uzunligi bo‘yicha qizdirish mumkin bo‘lganda;

b) uzun qismini qizdiruvchi;

d) uch qismini qizdiruvchi;

ISSN 3030-3907


e) uzun bo‘lgan zagotovkalarni qizdiruvchi;

f) ikki maydonli qizdiruvchi.

Ishlab chiqarishni talablariga (yoki qizdirish tezligiga) asosan zagotovkalarni bu yoki boshqa turdagi qizdirish sxemalarini qo‘llash mumkin (bir - yoki ko‘p tarmoqli).

Texnik xafsizlik va iqtisodiy tomonidan ketma-ket qizdirish holatida elektrik zanjir sxemasidan foydalanish ancha samarali hisoblanadi (5.11-rasm, *b*).

Zagotovkalarni bir holatdan ikkinchi holatga o‘tkazish bilan qizdirish tizimi va kerakli ko‘rsatkichgacha haroratni sekinlik bilan oshirib borish, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tkazish, jarayon davomida bir holatda (5.11-rasm, *a*) va ko‘p holatli parallel qizdirishga (5.11-rasm, *d*) nisbata texik va iqtisodiy tarafdan foydali hisoblanadi.



2-rasm. Zagotovkalarni kontaktli qizdirishning sxemasi

Zagotovkalarni elektr zanjiriga ketma ket ulanib qizdirish jarayonini nisbatan avtomatlashtirish ancha onson, elektrokonaktda qizdirish qurilmasini avtomatik liniyaga o‘rnatish qulay, metallga qizdirib ishlov berishning barcha turlarida zagotovkalarni qizdirishda qo‘llash mumkin. Undan tashqari, elektrik zanjirlarni ketma ket qizdirishga ulashda tok kuchini bosimi, boshqa turdagi sxemalarga nisbata sezilarli darajada pastdir. Agar pechning barcha ishchi qismlarida xuddi shunday qizdirish tartibi qo‘llanilsa, qizdirish qurilmasini samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Barcha turdagi qizdirish turi uchun qurilmani asosiy texnik ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan. 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha asosiy natijalar va texnik samarodorlik bo‘yicha ikki holatli, ikki maydonli qurilma samarli ekanligini ko‘rish mumkin, konstruksiyasi jihatidan ham juda sodda, foydalanish qullay.

1-jadval

Qurilmani asosiy texnik ko‘rsatkichlari

Qurilmani turi	L2/S2, 1/cm	Umumiy FIK	cosφ	Quvvat, Wk	Ishlab chiqarishi

ISSN 3030-3907

Bir holatli bir maydonli	2,4	0,64	0,68	3,45 W2	1,05P
Bir holatli ikki maydonli	1,6	0,42	0.68	3,6 W2	P
Ikki holatli ikki maydonli	4,8	0,75	0.68	5,1 W2	2P
Konbinatsiyalashgan bir holatli ikki maydonli	1,6	0,42	0.68	3,6 W2	P

Elektr qizdirish qurilmalari hisoblash

Elektr qizdirish qurilmalari o‘z tarkibida issiqlik texnikasi va elektr texnikasi yig‘indisini tashkil qiladi. Ular pech qurilmasining asosi hisoblanib, elektr energiya tokini issiqlikka almashinishini va metall qizishini hosil qiluvchi texnologik jarayonni o‘tkazishni ta’minlovchi elektr jihozlar o‘rnatilgan - elektr nimstansiyalardan, elektr pech qurilmasini va pech yordamchi mexanizmlarini boshqarish joyidan tashkil topgan.

Elektr pech qurilmasining asosiy ko‘rsatkichilariga uning quvvati, pechning o‘lchamlari va ishlab chiqarish samaradorligi kiradi. Ishlab chiqarish samaradorligi davriy ishlovchi pechlar uchun bir qizdirish siklida, to‘xtovsiz ishlovchi pechlar uchun soatli samaradorlikni (t/soat) tashkil qiladi.

Elektr qurilmalarda energiya sarfining ikki turi mavjud:

1. Issiqlik orqali (pechning ishchi maydonida) energiya sarfi;
2. Elektr pech qurilmasining qismlarga sarflanuvchi energiya sarfi.

Shu turlarga asoslanib, issiqlik balansini tuzish uchun energiya va quvvatning energetik balansini tuzishga to‘g‘ri keladi.

bu yerda Ws (Ps) - texnologik elektr energiyasi (kVt), buni energiya sistemasidan olamiz;

Wf (Pf) - texnologik jarayonni o‘tkazishga sarf bo‘lgan foydali energiya (kVt);

Wv (Pv) - pechning ishchi qismi konstruksiyasini va futerovkasini (shuvog‘ini) qizdirish uchun sarf bo‘ladigan energiya (kVt);

Wi.s (Ri.s) - pechning ishchi qismidan chiqadigan issiqlikni to‘ldirish uchun sarf bo‘ladigan energiya (kVt);

We.s (Pe.s) - elektr o‘tkazuvchi va elektr qurilmalarni tashkil etuvchi qismlarining elektr sarfini to‘ldirish uchun energiya sarfi (kVt);

ISSN 3030-3907

ηe, ηu - elektr va umumiy (energetikaga taalluqli) bo‘lgan foydali ish koeffitsienti.

Energiyaning ikkala balansi qurilmaga sifatli bir xil tartibda kirish va chiqishni tashkil qiladi, ammo turli o‘tish jarayonidagi miqdorni o‘zaro nisbati har xil bo‘lishi mumkin.

bu yerda m - mahsulotning og‘irligi, t;

Energiya balansidan qizdirish davrini quyidagi formuladan topish mumkin:

bu yerda it - faqat mahsulotning tanasini qizdirish uchun sarflanuvchi energiya sarfi (ental`piya), kVt soat/tonna;

Po‘r.q- pechga yuborilgan o‘rtacha quvvat, kVt;

Elektr energiyaning solishtirma sarfini elektr pech qurilmasining energiya balansidan topish mumkin.

Har xil turdagi elektr toki yordamida qizuvchi qurilmalarni hisoblash uchun zarur bo‘lgan qiymatlarga quyidagilar kiradi:

- pechning quvvati P (kVt), bu pechning talab qilingan ishlab chiqarish samaradorligi yordamida aniqlaniladi;
- pechning geometrik o‘lchamlari;
- ta’minlash tarmog‘ining kuchlanishi Ut, V;
- metall qizishini yakunlovchi harorat tm, □C.

Pech quvvatining issiqlik hisobi alanga pechining analogik hisobi orqali topiladi:

bu yerda Qu - umumiy issiqlik sarfi, kVt;

Qe.s - futerovka orqali sarf bo‘layotgan issiqlik 0,7 ga teng deb qabul qilish mumkin;

Qs - metall mahsulot qoplamasini qizdirishga sarf bo‘lgan issiqlik miqdori;

Qi.s - texnologik jarayonni o‘tkazish uchun sarf bo‘lgan issiqlik sarfi;

K - quvvatning zaxira koeffitsienti, ishlash vaqtidagi qizdiruvchilar qarshiligi oshishini, undan tashqari tarmoqdagi kuchlanishning o‘zgarish darajasini hisobga oluvchi koeffitsientidir. Bu koeffitsient to‘xtovsiz ishlovchi pechlar uchun 1,2 ÷ 1,3, davriy ishlovchi pechlar uchun 1,4 ÷ 1,5 ga teng deb qabul qilingan. Texnologik jarayonni o‘tkazish uchun va qoplama uchun, ya`ni yarim mahsulotni qizdirish uchun sarflanayotgan quvvat sarfini (100) formuladan aniqlab topish mumkin.

Pechning haqiqiy ishlash sharoiti ideal sharoitidan butunlay farq qiladi, ya`ni qizdiruvchi va pech futerovkasi, futerovka g‘ishtlarining oralig‘idan chiqayotgan issiqlik sarfi va boshqa jarayonlari bilan farq qiladi. Shuning uchun haqiqiy pechlarni hisoblashda ma`lumotlar koeffitsienti - ni kiritish zarurdir.

Qizdiruvchining haqiqiy solishtirma tashqi quvvatini topish uchun quyidagi

ISSN 3030-3907


formuladan foydalanamizning qiymati qizdiriluvchi materialning tabiatiga, pechda mahsulotlarning joylashishiga, ularning konstruksiyasiga, talab qilingan qizdirish haroratiga bog‘liqdir.

Ko‘pgina hollarda elektr pechlarda 1150 - 1250 oC haroratgacha qizdirishga ruxsat etilgan, yuqori aktiv qarshilikka ega bo‘lgan metallni qizdiruvchi elementlar ishlatiladi.

Yuqori haroratda qizdirishga mo‘ljallangan pechlar uchun (ruxsat etilgan ishchi qizdirish harorati 1450 oC) quyma qizdiruvchi elementlar va 1650 oC haroratgacha qizdirish mumkin bo‘lgan molibden aralashtirilgan qizdiruvchilar ishlatiladi.

Hisoblash uchun qizdiruvchi haroratni 100 oC dan yuqori deb qabul qilinadi. Qizdiruvchi turini devor quvvatining nisbiy qiymati bo‘yicha saralab olinadi. bu yerda Fd - qizdiriluvchi joylashtirilgan joydagi, pastdagi yoki shipdagi, devor yuzasining umumiy maydoni, m2;

Pd - qiymatiga bog‘liq holda qizdiruvchining turi saralab olinadi (2-rasm):



2- rasm. Uzun va lentali qizdirgich sxemasi: a - uzun Z-simon, b – lentali Z - simon, d – spiralli

Pech yoki ishchi maydon quvvati P, kVt ning qiymatini ta’minlovchi tarmoq kuchlanishi Ut, V, qizdiruvchiga sarflagan solishtirma qarshilik □, 0m□m va yuzaning solishtirma quvvatlari W, kVt/m2 ma’lum bo‘lsa, qizdiruvchining uzunligi va qalinligini quyidagi formula yordamida topish mumkin. Shunday qilib, elektr pechlar uchun qizdiruvchilarni hisoblash uslubi quyidagilardan tashkil topadi: hisoblash quvvati va kuchlanishi aniqlanadi, qizdiruvchining o‘lchamini,

ISSN 3030-3907

so‘ngra qizdiruvchining yuzasi S = □dl aniqlanadi, haqiqiy yuzaning solishtirma quvvati Wf Pπdl, bitta faza uchun qizdiruvchining og‘irligi m = 8400sl, undan so‘ng qizdiruvchining solishtirma sarfi ms = m/P hisoblab topiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. *Ульянов В.А., Гущин В.Н., Черныщов Е.А.* Нагрев и нагревательные устройства: учебное пособие для студентов высш. учеб. заведений. -М.: Издательской центр “Академия”, 2010. -256 с.
2. *Околович Г.А*. Нагрев и нагревательные устройства. Учебное пособие. - Барнаул: Изд-во Алт ГТУ, 2010. -172 с.
3. *Чередниченко В.С., Бородачев А.С., Артемьев В.Д.* Электрические печи сопротивления. Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2006. -572 с.
4. *Гусовский В.Л., Лифшиц А.Е.* Методики и расчета нагревательных и термических печей: учебно-справ. Изд. М.: Теплотехник, 2004. -400 с.
5. *Рустем С.Л.* Оборудование и проектирование термических цехов: учеб. для машиностроит, вузов и факультетов. М.:Машгиз, 1989. -588 с.
6. *Телегина А.С.* Теплотехнические расчеты металлургических печей. М.:Металлургия, 1992. -380 с.
7. *Соколов К.Н.* Механизация и автоматизация в термических печах. М.: Свердловск. М.:Машгиз, 1986. -295 с.
8. *Иофее Х.М., Пивоваров Ф.И., Прохоренко А.П., Цун А.М., Цун И.М.* Нагрев металла. М.:Металлургия, 1981. -280 с.

ISSN 3030-3907

QIZDIRISH ELEMENTLARINI PECHGA O‘RNATISH VA UNI HISOBI

Xakimov Nodir Nurilloyevich.
Andijon davlat texnika nstituti “Materialshunoslik” kafedra assistenti
E-mail: xakimovnodir5@gmail.com,
Tel: +998902031170

Annotatsiya: Elektr tokida ishlovchi pechlarda ishchi maydonni qizdirish uchun qizdirish elementlaridan foydalaniladi, ya’ni elektr toki o‘tishga katta qarshlik ko‘rsatib qiziydi va issiqlik ajartib chiqaradi. Elektrik pechlar quydagi turlarga ajarladi: ochiq va yopiq tipdagi qizdirish elementi o‘ratilgan. Metallmas qizdiruvchi elementlar o‘rnatilgan. Undan tashqari elektrodli vanna-pechlar, ya’ni qizdirishda qarshlik ko‘rsatkich erigan tuz hisoblanadi. Metallli qizdirish elementlari pechlarni yuqori qizdirish haroratlarida qizdiriluvchi pechlarda qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: Elektrokontakt, ikki maydonli qizdiruvchi, Kuchlanishni kamaytirish, Zagotovkalarni elektr zanjiri, Elektr qizdirish qurilmalari. Zagotovkalarga qizdirib ishlov berish,

Аннотация: В электрических печах для нагрева рабочей зоны используются нагревательные элементы, в результате чего материал, оказывающий высокое сопротивление прохождению электрического тока, нагревается и выделяет тепло. Электрические духовки подразделяются на следующие типы: открытого и закрытого типа с нагревательным элементом, обернутым вокруг них. Установлены неметаллические нагревательные элементы. Кроме того, в электродных ваннах, то есть при нагревании, показателем сопротивления является расплавленная соль. Металлические нагревательные элементы применяются в печах, нагревающих печи при высоких температурах нагрева.

Ключевые слова: Предварительный нагрев деталей, электрический контакт, двухполевой нагреватель, Снижение напряжения, Электрическая цепь деталей, Электронагревательные устройства.


Abstract: In electric furnaces, heating elements are used to heat the working area, that is, they heat up by presenting a large resistance to the passage of electric current and generate heat. Electric furnaces are divided into the following types: open and closed type with a heating element. Non-metallic heating elements are installed. In addition, there are electrode bath furnaces, that is, the heating resistance is molten salt. Metal heating elements are used in furnaces that heat the furnaces at high heating temperatures.

ISSN 3030-3907

Keywords: Preheating of workpieces, electrical contact, double-field heater, Voltage reduction, Electrical circuit of workpieces, Electrical heating devices.


Kirish.

Chidamligi darajasi sifatida ko‘p qo‘llaniladigan nixrom qotishmasidan, tarkibida nikel va xrom elementlariga boy bo‘lgan qotishmali qizdirish elementlari ko‘p qo‘llaniladi.



1-rasm. Ochiq turdagi qizdirish elementlari pechga o‘rnatilishi: *a* – spiralsimon qizdirish elementini shakldor g‘ishtga o‘rnatilishi; *b* – spiralsimon qizdirish elementini oddiy g‘ishtdan qurilgan pechni yon devoriga o‘ratilishi; *d* – to‘lqinsimon shakladagi nixrom listli qizdirish elementini shaxtali pechga o‘rnatilishi; *e* – pechni pol qismiga o‘rantiladigan lentali qizdirish elementi; *f* – pechni pol va yon deforlariga o‘ratiladigan lentali qizdirish elementi

ISSN 3030-3907



2-rasm. Mufelsiz pechi uchun yopiq turdagi metalli qizdirish elementi

Qizdirish elementlarini hisoblash

Elektr tokida ishlovchi rechlarda qizdirish elementlari sifatida maxsus qotishmalardan tayyorlangan sim yoki lentalar va boshqa qizdirish elementlari qo‘llaniladi. Ularning tasnifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Metall qizdiruvchilar tayyorlanadigan materiallar va ularning kesim yuzalari

Pechning ishchi harorati, °C	Qizdiruvchi element o‘lchamlari, *mm*		Qizdirish elementining materiali
	Lentaning eni va qalinligi	Simning diametri	
300 - gacha	8,0 □ 1,0	1,0	X13Yu5, X17Yu5
300 - gacha	10 □ 1,0	2,0	X13Yu5, X17Yu5
600 - 800	15 □ 1,5	3,0 - 4,0	X13Yu5, X17Yu5
800 - 1000	20 □ 2,0	4,0 - 5,0	X20N60
1000 - 1100	25 □ 2,0	6,0 - 7,0	X20N80
1100 - 1200	25 □ 3,0	7,0 - 8,0	X25Yu5

Simning diametrini topish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz.

Bu yerda ξ - qizdirish elementlari materialining ishchi haroratiga bog‘liq bo‘lgan solishtirma qarshilik. Qizdirish elementi kesim yuzasi diametri *d (mm)* ga teng simlar ishlatilganda quyidagicha topiladi. Qalinligi *a (mm)* va eni *b* (mm) bo‘lgan lentalar ishlatilganda, quyidagicha nisbat olinadi: $m = b/a$ □ 8 □ 12; $b = ma$, kesim yuzasi $q_l = ma^2$, mm^2. Lenta qalinligi quyidagicha topiladi. Qizdirish elementlari sifatida uchlari yumaloqlangan lentasimon qizdiruvchilar ishlatiladi. Shu sababli yuza kamayishini hisobga oluvchi 0,97 ga teng koeffitsient ishlatiladi. Shunga ko‘ra. Berilgan bir xil harorat uchun qizdirish elementlarining hisoblab topilgan solishtirma elektr qarshiligi, $Om.mm^2/m$. (qiymatlari 2- jadvalda keltirilgan).


ISSN 3030-3907

2-jadval

Berilgan haroratda qizdirish elementlari hisobiy solishtirma elektr qarshiligi qiymatlari

Qotishma	Harorat, °C	Solishtirma elektr qarshilik ξ_{his} $Om \cdot mm^2/m$	Solishtirma og‘irlik, g/sm^3
X13Yu5	850	1,25 -1,35	7,4
X17Yu5	850	1,15 -1,25	7 - 7,2
X15N60	1000	1,1 -1,2	8,4
X20N80	1150	1,25 -1,2	8,4
X25Yu5	1200	1,25 -1,45	7 - 7,2
EI595	1200	1,4	7,27
EI626	1300	1,4	7,19


Simli qizdirish elementining og‘irligini quyidagi formuladan hisoblash mumkin. Bu yerda g - bir o‘ram simning og‘irligi. Lentali qizdirish elementi og‘irligi quyidagicha hisoblanadi. bu yerda γ - solishtirma og‘irlik. q - lenta kesim yuzasi, mm^2. Pechlarda simning qarshilik elementlari silindrsimon spiral shaklida joylashtiriladi (3-rasm).



3-rasm. Simli qizdirgich sxemasi. *l* - spiral uzunligi; D - spiral diametri; *d* - sim diametri; *h* - spiral qadami

Lentali qarshilik elementlari pech qubbasida, tagligida va devorlaridazigzag qilib joylashtiriladi. Zigzaglar orasidagi masofa (D), lenta enidan kichik bo‘lmasligi kerak. Bu masofa 10 - 60 *mm* oralig‘da qilinadi. Zigzag balandligi (B) pech devorlariga vertikal joylashtirilganda 150 - 500 *mm*, qubba va taglikda gorizontal joylashtirilsa 100 - 200 *mm* oralig‘da tanlanadi. Agar hisoblash natijasida, qizdirish elementlari solishtirma yuza yo‘nalishi qiymati ruxsat etilganidan katta chiqsa, u holda hisob qayta amalga oshiriladi. Yuklanishni kamaytirish, qizdirish elementlari nurlanish yuzalarini ko‘paytirish hisobiga amalga oshiriladi. Bu qizdirish elementlari kesim yuzalarini va mos ravishda ular uzunliklari yoki faza parallel

ISSN 3030-3907



5.16-rasm. Lentasimon qizdirgich elementining sxemasi: *D* - zigzaglar orasidagi masofa; *B* - zigzag balandligi; *A* - lentani yumaloqlanish markazlararo zigzag balandligi; *h* - zigzag qadami

Agar hisoblash natijasida, qizdirish elementlari solishtirma yuza yo‘nalishi qiymati ruxsat etilganidan katta chiqsa, u holda hisob qayta amalga oshiriladi. Yuklanishni kamaytirish, qizdirish elementlari nurlanish yuzalarini ko‘paytirish hisobiga amalga oshiriladi. Bu qizdirish elementlari kesim yuzalarini va mos ravishda ular uzunliklari yoki faza parallel tarmoqlari sonini ko‘paytirish hisobiga erishiladi. Elektrkontakt usulibini quydagi holatlarda metallarni qizdirishni qo‘llash mumkin. Silindrik va to‘g‘ri burchakli detallarni issiq holatda bolg‘alash va egish jarayonlari uchun va termik ishlov berishda qizdirishda. Zagotovkani qizdirish maydonini joylashishi har qaysi joyda bir xilda bo‘lishi mumkin. Turli xil zagotovkalarni bosim bilan va termik ishlov berish uchun qizdirishda. Har xil shakladagi zagotokalarni alohida maydonini qizdirishda qo‘llash mumkin (krestovinvni ishchi maydonini shtamplash uchun alohida qizdirishda, boltni, klapinlarni ishchi qismlarini va boshqalar). Poroshokli materiallarni pishirish uchun qizdirish va boshqalar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. *Гусовский В.Л., Лифшиц А.Е.* Методики и расчета нагревательных и термических печей: учебно-справ. Изд. М.: Теплотехник, 2004. -400 с.
2. *Рустем С.Л.* Оборудование и проектирование термических цехов: учеб. для машиностроит, вузов и факультетов. М.:Машгиз, 1989. -588 с.
3. *Телегина А.С.* Теплотехнические расчеты металлургических печей. М.:Металлургия, 1992. -380 с.
4. *Соколов К.Н.* Механизация и автоматизация в термических печах. М.: Свердловск. М.:Машгиз, 1986. -295 с.
5. *Иофее Х.М., Пивоваров Ф.И., Прохоренко А.П., Цун А.М., Цун И.М.*

ISSN 3030-3907

6. Нагрев металла. М.:Металлургия, 1981. -280 с.
7. *Ульянов В.А., Гущин В.Н., Черныщов Е.А.* Нагрев и нагревательные устройства: учебное пособие для студентов высш. учеб. заведений. -М.: Издательской центр “Академия”, 2010. -256 с.
8. *Околович Г.А*. Нагрев и нагревательные устройства. Учебное пособие.
9. - Барнаул: Изд-во Алт ГТУ, 2010. -172 с.
10. *Чередниченко В.С., Бородачев А.С., Артемьев В.Д.* Электрические печи сопротивления. Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2006. -572 с.

ISSN 3030-3907

CHARACTERISTICS OF THE DESIGN OF DRUM MACHINES FOR GRINDING LEATHER SEMICONS

Akhunov Rustam Yusupovich
Senior lecturer at Andijan State Technical Institute.
Tel: +998 93 617 41 51

Annotation. This study is devoted to the study of the designs of drum machines used for grinding leather semi-finished products and their operational characteristics. Large-scale research work is being carried out in the world to improve the technology of primary processing of products and the development of their scientific foundations. Especially in this direction, increasing the efficiency of grinding drum machines and ensuring their reliability in operation when processing leather semi-finished products is of great importance. Also, a rational justification of the geometric, kinematic, and control parameters of the grinding drum machine contributes to increasing its economic efficiency and ensuring its preservation.

Keywords. grinding machine, grinding paper, abrasive material, dust removal, abrasive treatment, grinding drum, aspiration device, ferromagnetic abrasive powder, electromagnetic inductor, brush conveyor

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot charm yarim mahsulotlarini maydalash uchun qo‘llaniladigan barabanli mashinalarning konstruksiyalari va ularning ekspluatatsion xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Jahonda mahsulotlarga dastlabki ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish va ularning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, bu yo‘nalishda charm yarim mahsulotlariga ishlov berishda barabanli maydalash mashinalarining samaradorligini oshirish va ularning ishlashdagi ishonchliligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maydalash barabanli dastgohining geometrik, kinematik va boshqarish parametrlarini ratsional asoslash uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va saqlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. jilvirlash mashinasi, jilvirlash qog‘ozi, abraziv material, changsizlantirish, abraziv ishlov berish, jilvirlash barabani, aspiratsiya qurilmasi, ferromagnit abraziv kukuni, elektromagnit induktor, cho‘tkali konveyer.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению конструкций барабанных машин, используемых для измельчения кожевенных полуфабрикатов, и их эксплуатационных характеристик. В мире ведутся широкомасштабные научно-исследовательские работы по совершенствованию технологии первичной обработки продукции и разработке ее научных основ. Особенно в этом направлении повышение

ISSN 3030-3907

эффективности барабанных шлифовальных машин и обеспечение их надежности в эксплуатации при обработке кожевенных полуфабрикатов имеет большое значение. Также рациональное обоснование геометрических, кинематических и управляющих параметров измельчающего барабанного станка способствует повышению его экономической эффективности и обеспечению сохранности.

Ключевые слова. шлифовальная машина, шлифовальная бумага, абразивный материал, удаление пыли, абразивная обработка, шлифовальный барабан, аспирационное устройство, ферромагнитный абразивный порошок, электромагнитный индуктор, щетковый конвейер

Introduction.

Grinding is one of the most complex mechanical finishing operations. It consists of removing the shell layer from the face or back using fine-grained abrasive material. Depending on the purpose of the operation, the method of its implementation is determined. The face side is polished to eliminate large surface defects in small areas of the skin or to remove the entire surface, which is required when developing modified skins. The intensity of raw material grinding has a great influence on the quality of the leather and its appearance. Rear grinding of the raw material is carried out to smooth its thickness and give the surface a silky softness. In the leather industry, there are a number of scientific and technical sources on the grinding process. These studies provide detailed information on the effectiveness of grinding technology, its methods, and the equipment used. Today, the leather semi-finished products industry plays an important role in increasing the efficiency of production processes and improving product quality. In this area, there are many technological processes, among which grinding drum machines are of primary importance. Grinding drum machines are one of the main equipment used in the production of leather semi-finished products, which play a crucial role in improving product quality and accelerating the production process [1-4].

Grinding drum machines act as a mechanical device that rotates or vibrates the product. They perform cleaning, mixing, packaging, or other processes by rotating the product under the influence of various mechanical forces. These technological processes serve as effective tools for product quality control, detection of malfunctions, and automation of the production process [5].

Research Methodology

He conducted research on the production of drum machines for grinding raw materials and the improvement of grinding machines.

In particular, the leather grinding and dust removal machine, developed by D.R. Amirkhanov and V.N. Maltsev, is a device used in the leather industry and is

ISSN 3030-3907

designed for high-quality processing, grinding, and dust removal of leather products. This machine is intended for the mechanical processing of leather semi-finished products and artificial hides [6].




Figure 1. Schematic view of a leather grinding and dust cleaning machine

This machine is a leather grinding and dust cleaning machine, the working part of which is a drum covered with sandpaper, cardboard, or diamond particles.


There is a sanding and leather dust removal machine, a leather conveyor, a sanding drum, and an aspiration device for removing dust from the leather surface, which has the following features: in order to increase the workload and improve the quality of processing, it is equipped with a device for holding ferromagnetic abrasive powder on the surface of the sanding drum, the dust removal device from the leather surface includes a brush conveyor, and the aspiration device is located between its branches [7].

There is also a device for grinding non-magnetic materials, which consists of two carriers, an inductor, and a ferromagnetic abrasive powder bath. The object material (sheet, tape) is passed between the inductor and the valve, and the periodic ignition of the electromagnet at a specified frequency leads to the powder rising from the bottom of the valve and touching the processed surface, carrying out the grinding process.

The disadvantage of the existing designs of machines is the impossibility of high-quality processing of the peripheral parts due to the stiffness of the grinding drum and the imbalance of the thickness of the skins over the entire area. In addition, the grinding drum heats up quickly and breaks down. Securing the cutting tool to the drum and removing dust from the skin surface presents certain difficulties.

P.P.Burakov and V.I.Krasnopolsky were scientists and engineers who made a great contribution to the technology of shoe production. Their work was mainly aimed at optimizing processing processes in the footwear industry, increasing their efficiency, and developing new methods [8].

ISSN 3030-3907



a) b)

Figure 2. Schematic view of the machine for grinding the lower parts of footwear: a - cross-section of the working drum; b - longitudinal surface of the working drum

This is a machine for grinding the lower parts of shoes, which has a hollow drum equipped with sandpaper. The machine provides the possibility of significantly reducing the consumption of sandpaper compared to existing similar machines.

A distinctive feature of the machine is that the drum is installed on the control shaft with the possibility of free rotation, in which there is a longitudinal clearance for placing one end of the sandpaper. The drum is also equipped with a longitudinal slot, under which, in the inner part of the drum, in the holes in its side walls, another roller is installed. On this roller, there is a longitudinal crack for fastening the second end of the sandpaper. The sandpaper is placed inside the drum, wrapped in a roll, and covers the outer circular surface of the drum. A coupling is installed on the control shaft to rotate the drum, which connects the shaft to the drum. For winding sandpaper on the shaft, the clutch is equipped with a flywheel firmly mounted on the control shaft when the clutch is in an open position. The drum has a special hole (groove) to keep the drum stationary while winding the sandpaper on the shaft [9].

This machine, developed by V.N. Maltsev and A.N. Lebedev, is mainly designed for sanding artificial skins and cleaning the dust from them. The machine's design ensures high-quality grinding of materials, but also includes cleaning the material after the grinding process [10].

The leather grinding machine, consisting of a grinding drum, a supporting device, and a brush, has the following features: in order to improve grinding quality and ensure constant hardness in the grinding zone, the supporting device consists of a housing with a base made of elastic material, the end of which, facing the grinding drum, is made in the form of an arc, and there is a screw for holding and adjusting the base [11].

ISSN 3030-3907




Figure 3. Schematic view of the skin grinding and dust removal machine 1-leather grinding machine, 2-table, 3-drum, 4-brush, 5-pedal

The machine's operation process is carried out as follows. The input device from the table into the leather processing zone is transmitted in a limited state. When the pedal is pressed, the support device presses the leather onto the grinding drum, smooths it, and simultaneously delivers it through the conveyor at a speed depending on the pressure force [12].

Result and discussion

When cleaning leather, grinding is performed several times, first with coarse-grained material, then with fine-grained material. The intensity of grinding depends on the elastic-plastic properties of the shell, i.e., its moisture content, the size of the abrasive grains, and the pressure of the grinding roller. The structural elements of the surface being polished (fibers and their bundles) must have a certain hardness, and the fiber network must also be elastic. If the shell being polished is too plastic, the micro-cutters will not cause separation, but will cause their displacement and mutual friction. In this case, the energy generated by friction is converted into heat, and the shell heats up. The degree of grinding directly affects the quality of the leather. Thus, if 3-4% of the leather mass is polished, its quality level after preparation will be in the range of 76-78% (first grade). If the mass of the leather semi-finished product obtained during the grinding process reaches 13-15%, the leather quality level increases by 88-89%. However, this issue cannot be considered from only one side, since very deep grinding does not contribute to the elimination of deep defects in the surface layer. As a result, the leather takes on the appearance of a spool (the middle part of the entire leather), and all the difficulties that arise in the preparation of spool leather used for topwear, i.e., excessive roughness, arise. This creates additional difficulties in processing the leather surface.

Excessively deep grinding (production of cleaned skins during the surface grinding process), resulting in the shell appearing similar to spilok skin, as the maximum permissible grinding depth is violated. Holes in the surface layer open, increasing the absorption capacity of the coating. After this, the finish on the finished skins will not be uneven and smooth;

ISSN 3030-3907

Insufficient deep grinding (production of cleaned hides during the surface grinding process), as a result of which the surface layer of the coating is uneven and not all defects are removed. In this case, the finished leather is usually poorly covered, and most of the natural defects are noticeable. In addition, such skins have a low viscosity of the coating;

Uneven grinding of the surface layer leads to the appearance of the defects described above on the surface of the coating. In addition, repeated unprocessed areas may appear in the form of cuts and unrefined areas. This increases unevenness and defects on the skin surface, which negatively affects the quality.

As a result of the study and analysis, existing designs of drum machines for grinding leather raw materials were studied. Based on the analysis, an improved design of a leather grinding machine is proposed (Fig. 4).




Figure 4. Skin Grinding Machine

This scheme is a leather grinding drum machine, in which the main working elements are a large drum, an auxiliary roller, a brush, and pressure mechanisms. The advantages of this machine are as follows: As a result of the uniform application of pressure with the help of a drum and roller, the quality of skin smoothing improves. Thanks to rotational movement, constant and uniform processing is ensured, which increases efficiency. During processing, it allows for proper smoothing of the skin without disrupting its structure. Such schemes can be adapted to automated systems, which reduces the human factor and increases productivity. The drum mechanism creates the possibility of continuous processing and serves to increase production volumes. By adjusting the pressure, it is possible to process leather of different density and thickness.

Conclusion. Using available analogues, instead of the helical strips of the working shaft (drum), grinding inserts (flippers) are placed symmetrically from the middle of the shaft along the right and left ends along the screw and secured using special glue and under a certain pressure.

ISSN 3030-3907

Thus, in the technological process of grinding the surface of leather raw materials, an increase in the useful area and quality indicators of the product is achieved.

The manufacture of the working grinding drum, developed on the basis of the proposed technical solution, is relatively easy, and replacing grinding (abrasive) paper that wears out during the technological processes performed does not require much labor and time.

The improved working sanding roller machine, developed on the basis of such a technical solution, has a number of advantages in terms of economic efficiency and serves the production of export-oriented finished leather products with high added value in the leather industry of the republic.

REFERENCES

1. Амирханов Д. Р., Мальцев В. Н. Машина для шлифования и обеспыливания кож: пат. № 2377694/28-12. 28 июня 1976 г.
2. Бураков П. П., Краснопольский В. И. Машина для шлифования деталей низа обуви: пат. № 3548/150319. 29 июля 1950 г.
3. Мальцев В. Н., Лебедев А. Н. Машина для шлифования кож: пат. № 2499025/28-12 Орловский научно-исследовательский институт легкого машиностроения: 17 июня 1977 г.
4. Мальцев В. Н., Лебедев А. Н. Машина для шлифования кож: пат. № 2499025/28-12. 17 июня 1977 г.
5. Каплин Л. А., Бескоровайный В. В., Буткевич М. Н., Моисеев Е. Ю. Устройство для шлифования кож: пат.№2005136835/12, 25.11.2005 г
6. Факторович Ю. Д., Стольный Г. Л., Бунин С. И., Хрусталев В. А.Проходная машина для шлифования листовых эластичных материалов: пат. № 770668/28-12 27 марта 1962 г.
7. Бахадиров, Г. А. Техника и технология для обработки кожсырья / Г. А. Бахадиров, Г. Н. Цой, А. М. Набиев. – Новосибирск : Общество с ограниченной ответственностью "Сибирская академическая книга", 2023. – 214 с. – ISBN 978-5-605-05493-1. – EDN BPGDBU.
8. Бахадиров Г.А. Механика отжимной валковой пары. – Ташкент: Фан. 2010. – 155 с.
9. Nabiev A., Bahadirov G., Tsoy G., Rakhimov F. Research and improvement of a staking machine for processing elastic-viscous fibrous materials // International Journal of Modern Manufacturing Technologies, Vol. XVI, No. 3 / 2024, Pp. 8–20. https://doi.org/ 10.54684/ijmmt.2024.16.3.8.
10. Бахадиров Г.А., Набиев А.М., Цой Г.Н., Рахимов Ф.Р. Исследование зоны между валковыми парами для обработки штучных изделий из волокнистого

ISSN 3030-3907

holat bemorlar uchun nafaqat klinik, balki psixologik jihatdan ham qulaylik yaratadi, davo samaradorligini oshiradi va ko‘rish funksiyasini tiklash ehtimolini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, nanoformulalarning ishlab chiqarish xarajatlari, ularning uzoq muddatli xavfsizligi va ommaviy amaliyotda qo‘llanish bo‘yicha ayrim cheklovlar mavjud. Ammo hozirgacha olingan ijobiy natijalar ushbu texnologiyaning istiqbolini tasdiqlaydi. Keng ko‘lamli klinik tadqiqotlar, iqtisodiy tahlillar va toksikologik baholashlar asosida kelajakda nanotibbiyot ko‘z kasalliklari, ayniqsa jarohatlar bilan bog‘liq holatlarni davolashda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylanishi kutilmoqda.

Shu sababli, ko‘z jarohatlarini davolashda zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa nano-dori yetkazish tizimlarini integratsiyalash orqali shikastlangan to‘qimalarning tiklanishini tezlashtirish, asoratlarni kamaytirish va ko‘rish qobiliyatini maksimal darajada saqlab qolish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Smith J. et al. Classification and Management of Ocular Trauma. J Clin Ophthalmol. 2021; 45(2): 112–119.
2. Kaur IP, Kanwar M. Ocular Preparations Based on Nanotechnology: Recent Advances. Drug Delivery Reviews. 2022; 75(4): 299–312.
3. Patel A., Cholkar K., Agrahari V. Ocular Drug Delivery Systems: An Overview. World J Pharmacol. 2020; 9(3): 20–35.
4. Xu Q., Kambhampati SP., Kannan RM. Nanotechnology Approaches for Ocular Drug Delivery. Middle East Afr J Ophthalmol. 2021; 28(1): 34–40.
5. Ranta V.P., Urtti A. Transscleral Drug Delivery to the Posterior Eye: Prospects and Challenges. Adv Drug Deliv Rev. 2020; 58(11): 1010–1039.

ISSN 3030-3907

AHOLI ORASIDA SOG`LOM TURMUSH TARZINI TARG`IBOT QILISH ORQALI KO`RUV A'ZOSI YALLIG`LANISH KASALLIKLARINI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Jo‘rayeva Gulrux Bafoyevna
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.
Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: jurayeva.gulrux@bsmi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘ruv a’zosi — ko‘z yallig‘lanish kasalliklarining asosiy klinik turlari, jumladan, blefarit, kon’yunktivit, keratit, episklerit va uveit kabi patologiyalar etiologik omillari, patogenez xususiyatlari hamda klinik kechishi keng tahlil etilgan. Ko‘z yallig‘lanishining yuqumli (virusli, bakterial, zamburug‘li) va yuqumli bo‘lmagan (allergik, autoimmun, toksik) shakllari orasidagi farqlar va diagnostik yondashuvlar batafsil yoritilgan. Tadqiqotda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning ushbu kasalliklarning oldini olishdagi ahamiyati alohida urg‘u bilan ko‘rsatiladi. Aholi orasida shaxsiy gigiyenani ta'minlash, to‘g‘ri ovqatlanish (ko‘z salomatligi uchun muhim bo‘lgan A, C, E vitaminlariga boy mahsulotlar iste'moli), zararli odatlardan (masalan, chekish va spirtli ichimliklar iste’moli) voz kechish, sun’iy yoritish vositalaridan samarali foydalanish, shuningdek, ko‘zning ortiqcha zo‘riqishini kamaytirish kabi omillar ko‘z yallig‘lanish kasalliklarini kamaytirishda muhim profilaktik vosita sifatida taqdim etiladi. Shuningdek, aholining barcha yosh guruhlari uchun muntazam oftalmologik skrining tadbirlari va dispanserizatsiyaning samaradorligi tahlil qilinadi. Mazkur maqola profilaktik oftalmologiyaning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, sog‘lom turmush tarzining ko‘z salomatligiga ijobiy ta’sirini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: ko‘z yallig‘lanishi, profilaktika, sog‘lom turmush tarzi, gigiyena, oftalmologiya, ko‘rish organi

Аннотация: В данной статье подробно проанализированы этиологические факторы, особенности патогенеза и клиническое течение основных клинических видов воспалительных заболеваний органа зрения - глаза, включая такие патологии, как блефарит, конъюнктивит, кератит, эписклерит и увеит. Детально освещены различия и диагностические подходы между инфекционными (вирусными, бактериальными, грибковыми) и неинфекционными (аллергическими, аутоиммунными, токсическими) формами воспаления глаз. В исследовании особо подчеркивается важность формирования здорового образа жизни в профилактике этих заболеваний. Такие факторы, как обеспечение личной гигиены среди населения, правильное питание (употребление продуктов, богатых витаминами A, C, E,

ISSN 3030-3907

важными для здоровья глаз), отказ от вредных привычек (например, курения и употребления алкоголя), эффективное использование средств искусственного освещения, а также снижение чрезмерной нагрузки на глаза, представлены в качестве важных профилактических мер по снижению воспалительных заболеваний глаз. Также анализируется эффективность регулярных мероприятий офтальмологического скрининга и диспансеризации для всех возрастных групп населения. Данная статья посвящена актуальным вопросам профилактической офтальмологии и научно обосновывает положительное влияние здорового образа жизни на здоровье глаз.

Ключевые слова: воспаление глаз, профилактика, здоровый образ жизни, гигиена, офтальмология, орган зрения

Abstract: This article extensively analyzes the etiological factors, pathogenesis characteristics, and clinical progression of the main clinical types of inflammatory diseases of the visual organ - the eye, including pathologies such as blepharitis, conjunctivitis, keratitis, episcleritis, and uveitis. The differences and diagnostic approaches between infectious (viral, bacterial, fungal) and non-infectious (allergic, autoimmune, toxic) forms of eye inflammation are described in detail. The study emphasizes the significance of adopting a healthy lifestyle in preventing these diseases. Among the population, factors such as maintaining personal hygiene, proper nutrition (consumption of products rich in vitamins A, C, E, which are crucial for eye health), avoiding harmful habits (such as smoking and alcohol consumption), effective use of artificial lighting, as well as reducing eye strain are presented as important preventive measures in reducing eye inflammatory diseases. The effectiveness of regular ophthalmological screening and dispensary observation for all age groups of the population is also analyzed. This article addresses current issues in preventive ophthalmology and scientifically substantiates the positive impact of a healthy lifestyle on eye health.

Keywords: eye inflammation, prevention, healthy lifestyle, hygiene, ophthalmology, visual organ

Kirish.

Ko‘z inson hayotida eng muhim sezgi a’zolaridan biri hisoblanadi. U tashqi muhitdan axborot olish, makonda yo‘nalish, mehnat faoliyatini samarali bajarish, hamda shaxslararo munosabatlarda to‘g‘ri orientatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rish qobiliyatining pasayishi yoki uning to‘liq yo‘qolishi nafaqat fiziologik noqulayliklarni, balki psixologik va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shu bois, ko‘ruv a’zosi sog‘lig‘ini saqlash va uning kasalliklarining

ISSN 3030-3907

oldini olish sog‘lom turmush tarzi doirasida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ko‘ruv a’zosi kasalliklari, xususan, yallig‘lanish bilan bog‘liq holatlar (blefarit, kon’yunktivit, keratit, uveit, sklerit va b.), aholi salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu kasalliklar surunkali kechishga moyilligi, ko‘rish funksiyasini izdan chiqarishi va og‘riqli simptomlar bilan kechishi tufayli mehnat faoliyatining pasayishi, kasbga yaroqlilik darajasining kamayishi va umuman hayot sifatining yomonlashuviga olib keladi.

Bunday holatlarning oldini olishda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim o‘rin egallaydi. Sog‘lom turmush tarzi – bu faqatgina jismoniy faollik va to‘g‘ri ovqatlanish emas, balki vizual gigiyena, muntazam oftalmologik ko‘rik, mehnat va dam olish tartibini saqlash, yomon odatlardan voz kechish (masalan, chekish, spirtli ichimliklar iste’moli) kabi omillarni ham qamrab oladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ko‘ruv a’zosi yallig‘lanish kasalliklarining oldini olishda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu esa nafaqat tibbiy muassasalar, balki ta’lim, OAV, oilalar va jamiyatning boshqa institutlari hamkorligida amalga oshirilishi kerak. Aholi salomatligini saqlash – sog‘lom ko‘zlar va sifatli hayot garovidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ko‘z yallig‘lanish kasalliklari — bu kon’yunktivit, blefarit, dakriotsistit, keratit, sklerit kabi infeksion va allergik etiologiyali patologiyalar bo‘lib, ular ko‘rish qobiliyatini buzish bilan bir qatorda inson hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu kasalliklarning rivojlanishida bir qator omillar, jumladan, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, atrof-muhit ifloslanishi, allergenlar, virus va bakterial infeksiyalar, shuningdek, immunitet holatining pasayishi muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot doirasida JSST tomonidan e’lon qilingan global epidemiologik ko‘rsatkichlar, “PubMed” va “Scopus” kabi xalqaro ilmiy bazalardagi 2015–2024 yillar oralig‘ida chop etilgan 100 dan ortiq maqolalar tahlil qilindi. Mazkur manbalar ko‘z yallig‘lanish kasalliklarining tarqalish tendensiyalari, profilaktika strategiyalari va samarali davolash usullarini chuqur yoritib bergan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan e’lon qilingan 2020–2023 yillar uchun statistik hisobotlar asosida mamlakatimizda ushbu kasalliklar bilan kasallanish darajasi, ayniqsa urbanizatsiya jarayonlari kuchaygan hududlarda, yuqori ekani aniqlangan. Mahalliy sog‘liqni saqlash tizimida bu kasalliklar bo‘yicha dispanser nazorati yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirishni talab qilmoqda.

Shuningdek, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali ko‘z salomatligini yaxshilash imkoniyatlarini baholash maqsadida so‘rovnoma usuli

ISSN 3030-3907

qo‘llanildi. O‘zbekistonning turli hududlarida istiqomat qiluvchi 500 nafar fuqaro orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishtirokchilarning 64% ko‘z kasalliklarining oldini olishda shaxsiy gigiyena muhimligini e’tirof etgan bo‘lsa, 27% fuqarolar profilaktik ko‘riklardan o‘tmasligini bildirgan. 71% respondentlar esa sog‘lom ovqatlanish va immunitetni mustahkamlash ko‘z sog‘lig‘iga bevosita ta’sir ko‘rsatadi deb hisoblagan.

Ushbu natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Aholi o‘rtasida ko‘z yallig‘lanish kasalliklari xavfi yuqori bo‘lib, bu holat sog‘lom turmush tarzi va gigiyena qoidalariga e’tiborsizlik bilan bog‘liq.
- Aholining bu boradagi xabardorligi o‘rta darajada bo‘lib, sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan muntazam ma’rifiy tadbirlar tashkil etilishi zarur.
- Ko‘z kasalliklarini erta aniqlash va oldini olish bo‘yicha milliy dasturlarga sog‘lom turmush tarzining ahamiyati to‘g‘risidagi komponentni integratsiya qilish tavsiya etiladi.
- Kelgusida ushbu yo‘nalishda maqsadli sog‘lomlashtirish va axborot-ta’lim tadbirlarini amalga oshirish, ayniqsa yoshlar va maktab o‘quvchilari orasida, ko‘z kasalliklari tarqalishini kamaytirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR. O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalari aholining ko‘rish a’zolari salomatligiga bo‘lgan munosabati va profilaktik choralar ko‘rish darajasining yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Xususan, 68% respondent gigiyena qoidalariga to‘liq amal qilmasligi ushbu qatlamda kasalliklar, ayniqsa infeksion va yallig‘lanish holatlarining yuqori xavfi mavjudligini anglatadi. Shaxsiy gigiyena, ayniqsa qo‘l yuvish, ko‘zga begona jism tegmasligiga rioya qilish, kosmetik vositalarni gigiyenik tarzda qo‘llash kabi oddiy choralar ko‘ruv a’zolarining yallig‘lanish kasalliklaridan saqlanishda muhim rol o‘ynaydi.

So‘rovnomada qatnashganlarning 52% uzoq muddat davomida kompyuter yoki telefon ekraniga qarab ishlashi, zamonaviy turmush tarziga xos bo‘lgan "raqamli ko‘z sindromi" (digital eye strain) xavfini oshiradi. Uzoq vaqt ekran qarshisida ishlash ko‘zning qurishi, qizarishi, xiralashuvi va og‘rishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida yallig‘lanish holatlari uchun predispozitsiyani kuchaytiradi. Aholi o‘rtasida raqamli gigiyena – har 20 daqiqada 20 soniyaga 20 fut uzoqlikdagi nuqtaga qarash (20-20-20 qoidasi) kabi oddiy profilaktik yondashuvlar yetarlicha targ‘ib qilinmayotgani kuzatilmoqda.

Yana bir e’tiborga molik holat shuki, 36% aholining yillik oftalmologik ko‘rigi mavjud emas. Bu ko‘rish a’zolaridagi yallig‘lanish va degenerativ o‘zgarishlarni erta aniqlash imkoniyatining cheklanishiga olib keladi. Erta tashxis va davolash ko‘rish qobiliyatini saqlab qolish va yallig‘lanish asoratlarini kamaytirishda muhim omildir. Ko‘z kasalliklari, ayniqsa surunkali kon'yunktivit,

ISSN 3030-3907

blefarit yoki quruq ko‘z sindromi, yillik tekshiruvlarda aniqlanmay qolsa, kechki bosqichda davolash qiyinlashadi.

Shuningdek, 29% insonlar faqat yallig‘lanish belgilaridan so‘nggina shifokorga murojaat qilishi, profilaktik madaniyat darajasi pastligini va o‘z salomatligiga sust munosabatni ko‘rsatadi. Kasallikning klinik belgilarini kutmasdan oftalmologga muntazam murojaat qilish yallig‘lanish holatlarini oldini olishning asosiy shartidir.

MUHOKAMA. So‘nggi yillarda olib borilgan klinik va epidemiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘z yallig‘lanish (blefarit, kon’yunktivit, keratit va boshqalar) kasalliklarining ko‘payishi ko‘plab omillar, jumladan, noto‘g‘ri gigiyena, ratsional bo‘lmagan ovqatlanish, ekranlarga uzoq tikilish, himoyalanmagan holda sun’iy yorug‘likka qarash va yillik tekshiruvlarning yetarli darajada o‘tkazilmasligi bilan bog‘liq.

Ushbu kasalliklarning oldini olishda sog‘lom turmush tarziga rioya qilish muhim o‘rin tutadi. Quyidagi profilaktik choralar ayniqsa samarali deb topilgan:

1. Shaxsiy gigiyenani ta'minlash:

Ko‘zga qo‘l tekkizmaslik, iflos qo‘llar bilan ko‘z sohasini ishqamaslik, faqatgina yuvilgan va individual sochiqlardan foydalanish kerak. Bu kon’yunktivit va boshqa infeksion kasalliklar xavfini kamaytiradi.

2. Vitaminlarga boy ovqatlanish:

A vitamini (sabzi, jigar, tuxum sarig‘i) ko‘zning to‘g‘ri rivojlanishi va shilliq pardaning himoyasini ta'minlaydi. C vitamini (tsitrus mevalar, ko‘katlar) esa antioksidant xususiyatga ega bo‘lib, ko‘z to‘qimalarini zararlanishdan saqlaydi.

3. Sun’iy yorug‘likda himoya qilish:

Kompyuter monitori, LED yoritgichlar yoki lazerli qurilmalar bilan ishlayotganda ko‘z uchun maxsus himoya ko‘zoynaklari taqilishi lozim. Bu ko‘zning quruqlashishini va yallig‘lanishini oldini oladi.

4. Ekran vaqtini cheklash:

Bolalar va o‘smirlar uchun mobil telefonlar, planshet va kompyuterdan foydalanish 1,5–2 soatdan oshmasligi lozim. Kattalar esa har 30 daqiqada 5 daqiqa ko‘z dam olishiga imkon berishlari zarur.

5. Yillik oftalmologik ko‘riklar:

Hatto ko‘zda hech qanday shikoyat bo‘lmasa ham, har yili kamida bir marotaba oftalmologga ko‘rinish muhim. Bu yallig‘lanishning boshlang‘ich bosqichini erta aniqlashga yordam beradi.

6. Profilaktika dasturlarini joriy qilish:

Ko‘z salomatligini targ‘ib qilish bo‘yicha seminar, trening va suhbatlar ommaviy axborot vositalarida, maktablar, kollejlar va ishchi korxonalarda

ISSN 3030-3907

muntazam o‘tkazilishi kerak. Bu aholining xabardorligini oshiradi va kasalliklar ko‘rsatkichini pasaytiradi.

XULOSA. Ko‘z yallig‘lanish kasalliklari (kon’yunktivit, blefarit, keratit va boshqalar) turli omillar, xususan gigiyena qoidalariga rioya qilinmasligi, immunitetning zaiflashuvi, atrof-muhitning ifloslanishi va noto‘g‘ri ovqatlanish tufayli kelib chiqadi. Aholi orasida sog‘lom turmush tarzini keng miqyosda shakllantirish, xususan gigiyenik tarbiyani kuchaytirish, ko‘z salomatligini ta’minlovchi A, C va E vitaminlariga boy mahsulotlarni iste’mol qilishni targ‘ib qilish, yallig‘lanish kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Health Organization. "Prevention of Blindness and Visual Impairment". Geneva, 2023. pp. 12–21.
2. Qodirova M., Usmonova S. “Oftalmologik kasalliklar profilaktikasi”. Tibbiyot, Toshkent, 2022. №3, bet 45–51.
3. Karimov B. “Gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslari”. SSV nashriyoti, 2021. №1, bet 9–16.
4. Aliev F. “Ko‘ruv a’zosi yallig‘lanish kasalliklari etiologiyasi va profilaktikasi”, Oftalmologiya jurnali, 2023. №2, bet 67–73.
5. Tursunova G. "Sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti va uning ko‘z salomatligidagi roli", Salomatlik jurnali, 2024. №4, bet 34–39.
6. WHO Guidelines. “Eye care in primary health systems”, WHO Library, Geneva, 2021. pp. 40–55.

ISSN 3030-3907

KO‘Z KOSASINING QO‘SHMA JAROHATLARI: BIRINCHI TIBBIY YORDAM, MALAKALI YORDAM PRINSIPLARI VA MIKROINVAZIV GLAUKOMA JARROHLIK USULI (MIGS)NING O‘RNI

Odilov Mirshod Yusupovich
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.
Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: odilov.mirshod@bsmi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘z kosasining qo‘shma (kombinatsiyalashgan) jarohatlari, ularning klinik ko‘rinishlari va diagnostik qiyinchiliklari tahlil qilingan. Shoshilinch yordam ko‘rsatishning zamonaviy yondashuvlari, shu jumladan mikroinvaziv glaukoma jarrohligi (MIGS) metodikasining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. MIGS usuli ko‘z ichi bosimini kamaytirish bilan birga, jarohatdan so‘nggi glaukomaning oldini olishda muhim vosita sifatida taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ko‘z kosasi jarohati, kombinatsiyalashgan shikastlanish, birinchi yordam, MIGS, mikroinvaziv jarrohlik, glaukoma, shoshilinch oftalmologiya

Аннотация: В данной статье проанализированы сочетанные (комбинированные) травмы глазницы, их клинические проявления и диагностические трудности. Рассматриваются современные подходы к оказанию неотложной помощи, в том числе значение методики микроинвазивной хирургии глаукомы (MIGS). Метод MIGS предлагается в качестве важного средства профилактики посттравматической глаукомы, наряду со снижением внутриглазного давления.

Ключевые слова: травма глазницы, комбинированное повреждение, первая помощь, MIGS, микроинвазивная хирургия, глаукома, неотложная офтальмология

Abstract: This article analyzes combined (complex) injuries of the eye socket, their clinical manifestations, and diagnostic challenges. The importance of modern approaches to providing emergency care, including the technique of microinvasive glaucoma surgery (MIGS), is examined. The MIGS method is proposed as an important tool in preventing post-traumatic glaucoma, along with reducing intraocular pressure.

Keywords: eye socket injury, combined injury, first aid, MIGS, microinvasive surgery, glaucoma, emergency ophthalmology

Kirish.

Qo‘shma jarohatlar ko‘rish a’zosi faoliyatining buzilishi, estetik deformatsiyalar, harakat cheklanishi va og‘riq sindromi bilan kechadi. Bundan tashqari, ushbu holatlar ko‘pincha travmatik glaukoma kabi ikkilamchi

ISSN 3030-3907

asoratlarning rivojlanishiga olib keladi. Travmatik glaukoma o‘z navbatida doimiy ko‘rish yo‘qotishiga sabab bo‘lishi mumkin.

So‘nggi yillarda mikroinvaziv glaukoma jarrohligi (MIGS) texnologiyalarining joriy qilinishi bilan bu holatlarning oldini olishda yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. MIGS usullari past invazivlik, xavfsizlik va yuqori samaradorlik tufayli kombinatsiyalashgan jarohatlarda ham muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada ko‘z kosasining qo‘shma jarohatlari, shoshilinch va malakali yordamning zamonaviy yondashuvlari hamda MIGS texnologiyasining afzalliklari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ushbu tadqiqotda 2010–2024 yillar davomida nashr etilgan va xalqaro miqyosda nufuzli hisoblangan PubMed, Scopus va Web of Science ilmiy bazalaridan olingan jami 63 ta maqola tahlil qilindi. Ushbu adabiyotlar ko‘z kosasining anatomik tuzilishi, travmatik shikastlanishlarning klinik holatlari, travmatik glaukomaning patofiziologiyasi hamda mikroinvaziv glaukoma jarrohligi (MIGS) texnologiyalarining samaradorligini baholashga doir klinik tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, tanlab olingan maqolalar MIGS usullarining zamonaviy oftalmologik amaliyotdagi o‘rni, xavfsizlik profili va travma bilan bog‘liq holatlarda qo‘llash imkoniyatlariga bag‘ishlangan.

Bundan tashqari, maqolada mualliflar tomonidan amalga oshirilgan klinik kuzatuv natijalari asosida olib borilgan retrospektiv tahlil keltirilgan. Tadqiqot doirasida 2022–2024 yillar davomida Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markaziga orbital jarohatlar bilan murojaat qilgan va statsionar sharoitda davolangan 25 nafar bemor tibbiy hujjatlari o‘rganildi. Barcha bemorlarda turli darajadagi kombinatsiyalashgan ko‘z kosasi shikastlanishlari aniqlangan bo‘lib, ularning 9 nafarida ikkilamchi travmatik glaukoma rivojlanish xavfi mavjud bo‘lgan.

Ushbu 9 bemorda travmadan keyingi ko‘z ichi bosimi (KIB) ko‘tarilishi, optik diskda o‘zgarishlar, shikastlangan drenaj tizimi va yallig‘lanish belgilari asosida glaukoma xavfi aniqlangan hamda mikroinvaziv glaukoma jarrohligi (MIGS) texnologiyasi yordamida profilaktika yoki davolash chorasi sifatida iStent, Hydrus Microstent, XEN Gel Stent kabi zamonaviy usullar qo‘llanilgan.

Retrospektiv kuzatuvda quyidagi parametrlar baholandi:

- Ko‘z ichi bosimi (KIB) – operatsiyadan oldin va keyingi 1, 3, 6-oylarda tonometriya orqali baholandi;
- Ko‘rish o‘tkirligi – Snellen jadvali asosida vizual funksiyaning dinamikasi o‘rganildi;

ISSN 3030-3907

- Reabilitatsiya muddati – stasionar davolanish va ishga qaytish oralig‘i aniqlashtirildi;

•Amelioratsion asoratlar chastotasi – MIGS jarrohligidan keyingi infeksiya, yallig‘lanish, qon ketish, drenaj moslamasining joyidan siljishi kabi holatlar qayd etildi.

Bemorlar shikastlanish darajasiga qarab uchta guruhga ajratildi:

•Yengil darajadagi kombinatsiyalashgan jarohat – yumshoq to‘qimalar shikasti va kichik suyak sinishi (glaukoma xavfi past);

•O‘rta darajadagi shikastlanish – orbital gematoma, ko‘z harakatining cheklanishi, KIB ortishi bilan kechgan holatlar;

•Og‘ir darajadagi qo‘shma jarohat – optik asabga bosim, ko‘rishning keskin buzilishi va yuqori glaukoma xavfi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, MIGS texnologiyalarining qo‘llanilishi travmatik glaukomaning erta rivojlanishini oldini olishda, KIBni samarali nazorat qilishda va bemorlarning ko‘rish funksiyalarini saqlab qolishda muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, MIGS usuli bilan davolangan bemorlarda reabilitatsiya muddati an’anaviy trabekulektomiya usullariga nisbatan ancha qisqa bo‘lgani va asoratlar soni minimal darajada bo‘lgani aniqlangan.

NATIJALAR. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan 25 nafar bemorning klinik holatlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning 9 nafarida travmadan keyingi ikkilamchi glaukoma rivojlanish xavfi yuqori bo‘lgan va ushbu bemorlarga mikroinvaziv glaukoma jarrohligi (MIGS) texnologiyalari qo‘llanilgan. MIGS usuli sifatida iStent (4 bemorda), XEN Gel Stent (3 bemorda) va Hydrus Microstent (2 bemorda) implantatsiya qilingan.

Operatsiyadan keyingi 6 oylik kuzatuv davrida quyidagi klinik natijalar qayd etildi:

•Ko‘z ichi bosimi (KIB) ko‘rsatkichlari MIGS qo‘llangan bemorlarning 87 foizida (8/9 bemorda) me’yor darajasiga (≤21 mmHg) tushgan. KIB o‘rtacha operatsiyagacha 28,5±4,2 mmHg bo‘lgan bo‘lsa, operatsiyadan 1 oy o‘tib 18,3±2,5 mmHg, 3 oyda 17,9±2,1 mmHg va 6 oyda 17,2±2,4 mmHg ga kamaygan.

•Travmatik glaukoma MIGS amaliyoti qo‘llangan bemorlarning birontasida kuzatilmagan. Bu, MIGS texnologiyasining erta aralashuvi orqali glaukoma patogenezining oldini olishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatadi.

•Ko‘rish o‘tkirligi (Visus) bemorlarning 6 nafarida operatsiyadan keyingi 6 oyda saqlanib qolgan (0,4–0,6 oralig‘ida), 2 bemorda yaxshilangan (0,3 dan 0,5 gacha), faqat 1 bemorda optik asabga chuqur shikast yetgani sababli ko‘rish qobiliyati sezilarli tiklanmagan.

ISSN 3030-3907

•Reabilitatsiya muddati MIGS qo‘llangan bemorlar orasida o‘rtacha 14,6±2,3 kunni tashkil etdi, bu esa an’anaviy trabekulektomiya qo‘llangan guruh bilan taqqoslaganda taxminan 35% ga qisqa bo‘ldi (trabekulektomiyada o‘rtacha tiklanish muddati 22,4±3,1 kun).

Asoratlar chastotasi MIGS guruhida minimal darajada bo‘ldi: faqat 1 holatda vaqtinchalik subkon’yunktival shish kuzatildi, u konservativ davo orqali 5 kun ichida bartaraf etildi. Infeksiya, qon ketish yoki drenaj moslamasining joyidan siljishi holatlari qayd etilmadi.

Ushbu natijalar MIGS texnologiyasining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Jarohatdan so‘nggi glaukoma xavfi yuqori bo‘lgan holatlarda erta aralashuv orqali bemorlarning ko‘z ichi bosimini barqarorlashtirish, ko‘rish funksiyalarini saqlab qolish va umumiy tiklanish jarayonini tezlashtirish imkoniyati yaratiladi. MIGS operatsiyalarining minimal invazivligi, xavfsizligi va qisqa reabilitatsiya davri ularni kombinatsiyalashgan orbital jarohatlarda afzal usullardan biri sifatida ko‘rsatmoqda.

MUHOKAMA. Ko‘z kosasining og‘ir darajadagi va kombinatsiyalashgan jarohatlari oftalmologik amaliyotda alohida klinik qiyinchiliklar tug‘diradi. Ushbu jarohatlar nafaqat mexanik shikastlanish bilan, balki tez-tez ikkilamchi asoratlar, xususan, travmatik glaukoma bilan kechadi. Travmadan keyingi glaukoma patogenezida trabekulyar to‘rning buzilishi, Schlemm kanalining bloklanishi, gemorragik jarayonlar yoki yallig‘lanish infiltratsiyasi sababli ko‘z ichi bosimining ortishi muhim rol o‘ynaydi. Bunday holatlar vaqtida bartaraf etilmasa, optik asab atrofiyasi va qaytmas ko‘rish yo‘qotishiga olib keladi.

An’anaviy trabekulektomiya yoki drenaj implantatsiyasi kabi usullar travmatik glaukoma davolashda samarali bo‘lsa-da, ularning invazivligi, uzoq tiklanish davri va asoratlar xavfi (masalan, gipotoniyaga olib keluvchi ko‘z ichi suyuqligining ortiqcha chiqishi) klinik amaliyotda muayyan cheklovlarga ega.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, mikroinvaziv glaukoma jarrohligi (MIGS) texnologiyalari travmatik holatlarda yuqori darajadagi xavfsizlik va samaradorlikni ta’minlaydi. MIGS metodlari kichik kesimlar orqali bajariladi, ko‘z ichki tuzilmalariga minimal shikast yetkaziladi va fiziologik drenaj yo‘llari orqali ko‘z ichi bosimini tabiiy ravishda boshqarishga imkon beradi. Ayniqsa, MIGS texnologiyalarining turli variantlari (iStent, XEN Gel Stent, Hydrus Microstent) jarohat darajasi va individual anatomik xususiyatlarga qarab moslashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, MIGS qo‘llangan bemorlar guruhida ko‘z ichi bosimi barqarorlashgan, glaukoma rivojlanmagan va reabilitatsiya muddati an’anaviy jarrohlik usullariga nisbatan sezilarli darajada qisqargan. Bu esa MIGS

ISSN 3030-3907

texnologiyalarining klinik ahamiyatini nafaqat davolovchi, balki profilaktik yondashuv sifatida ham asoslaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, MIGS texnologiyalari hozircha faqat ayrim markazlashgan oftalmologik muassasalarda qo‘llanilmoqda. Bu esa ularning keng amaliyotga joriy qilinishida texnik baza, tajribali mutaxassislar yetishmovchiligi, iqtisodiy omillar kabi cheklovlarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, MIGSning uzoq muddatli natijalari va uning boshqa zamonaviy texnologiyalar bilan kombinatsiyalangan qo‘llanish imkoniyatlari bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazilishi lozim.

Umuman olganda, ko‘z kosasining og‘ir jarohatlari fonida MIGS texnologiyasining joriy qilinishi tez tiklanish, minimal asoratlar, yuqori klinik samaradorlik kabi ko‘rsatkichlar orqali shoshilinch oftalmologik amaliyotda istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Bu esa kelajakda MIGSni standart davolash algoritmlariga kiritish zaruratini asoslaydi.

XULOSA. Ko‘z kosasining qo‘shma (kombinatsiyalashgan) jarohatlari ko‘rish a’zosi faoliyatini jiddiy darajada buzuvchi va tez-tez ikkilamchi asoratlar, xususan, travmatik glaukoma bilan kechuvchi murakkab klinik holatlar sirasiga kiradi. Bunday jarohatlar odatda yuqori energiyali travmalar bilan bog‘liq bo‘lib, nafaqat funksional, balki estetik va psixologik oqibatlarga ham olib keladi. Kelgusida MIGS texnologiyalarining yana kengroq klinik joriy etilishi, shifokorlarning ushbu texnologiyalarga bo‘lgan bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirish, va ularni shoshilinch oftalmologik yordam algoritmlariga kiritish, ushbu yondashuvning samaradorligi va hayotiy muhim ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, MIGS texnologiyalarining uzoq muddatli klinik natijalarini baholovchi keng ko‘lamli tadqiqotlar ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nichani P, Popovic MM, Schlenker MB, Park J, Ahmed IIK. Microinvasive glaucoma surgery: a review of 3476 eyes. Surv Ophthalmol. 2021;66(5):714–742
2. Chachan AA, et al. Microinvasive Glaucoma Surgery: An Evidence-Based Review. Ophthalmology. 2020;127(1):52–61
3. Mathew DJ, Buys YM. Microinvasive Glaucoma Surgery: An Evidence-Based Assessment. Annu Rev Vis Sci. 2020;6:47–89
4. Lavia C, Dallorto L, Maule M, et al. Minimally-invasive glaucoma surgeries (MIGS) for open angle glaucoma: A systematic review and meta-analysis. PLoS One. 2017;12(8):e0183142
5. Balas M, Mathew DJ. Minimally Invasive Glaucoma Surgery: A Review of the Literature. Vision (Basel). 2023;7(3):54

ISSN 3030-3907

6. Saheb H, Ahmed IIK. Micro-invasive glaucoma surgery: Current perspectives and future directions. Curr Opin Ophthalmol. 2012;23(2):96–104
7. SooHoo JR, Seibold LK, Radcliffe N, Kahook MY. Minimally invasive glaucoma surgery: Current implants and future innovations. Can J Ophthalmol. 2014;49:528–533
8. Chen DZ, Sng CCA. Safety and Efficacy of Microinvasive Glaucoma Surgery. J Ophthalmol. 2017; 2017:3182935
9. Conlon R, Saheb H, Ahmed II. Glaucoma treatment trends: A review. Can J Ophthalmol. 2017; 52:114–124
10. Oberfeld B, Golsoorat Pahlaviani F, El Helwe H, et al. MIGS in Severe Glaucoma: 12-Month Retrospective Efficacy and Safety of MIGS with Cataract Extraction. Clin Ophthalmol. 2024; 18:2125–2136
11. Papazoglou A, Höhn R, Schawkat M, et al. Swiss Multicenter Ab Interno XEN45 Gel Stent Study: 2-Year Real-World Data. Ophthalmol Ther. 2024;13(6):1513–1525
12. Yu Z, Wu M, Tao Y, et al. Efficacy analysis of MIGS alone or combined with phacoemulsification in normal tension glaucoma: a systematic review and meta-analysis. BMC Ophthalmol. 2025; 25:283
13. Mathew DJ, Buys YM. Ab interno trabecular bypass surgery with iStent for open–angle glaucoma. Cochrane Database Syst Rev. 2019;3:CD012743
14. Shalaby WS, Jia J, Katz LJ, Lee D. iStent inject: comprehensive review. J Cataract Refract Surg. 2021;47(3):385–399
15. Lavia C, et al. Anterior segment imaging in MIGS—a systematic review. Acta Ophthalmol. 2022;100(3): e617-e634
16. Nichani P, Popovic MM, Schlenker MB, Park J, Ahmed IIK. Microinvasive glaucoma surgery: a review of 3476 eyes. Surv Ophthalmol. 2021; 66:714-742
17. Sulaiman II, et al. Penetrating orbital trauma: Comprehensive review and meta-analysis of bullet injuries. Surg Neurol Int. 2024; 15:465
18. Wikipedia contributors. Excimer Laser Trabeculostomy. Wikipedia. 2020; – 20-40 % IOP reduction.

ISSN 3030-3907

O‘TKIR IRIDOTSIKLIT VA YOPIQ BURCHAKLI GLAUKOMANING O‘TKIR XURUJI: DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKA, SHIFOKOR TAKTIKASI VA ZAMONAVIY 3D/ROBOTLASHTIRILGAN JARROHLIK TEXNOLOGIYALARI

Jo‘rayeva Gulrux Bafoyevna
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.
Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: jurayeva.gulrux@bsmi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘tkir iridotsiklit va yopiq burchakli glaukomaning o‘tkir xurujini klinik jihatdan farqlashdagi murakkabliklar, shuningdek, shifokorning birinchi tez tibbiy yordami taktikasiga oid zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Kasalliklarning klinik simptomatikasi ko‘plab jihatdan o‘xshash bo‘lgani sababli, aniq differensial tashxis qo‘yish zamonaviy diagnostik texnologiyalar, xususan, 3D oftalmik vizualizatsiya vositalaridan samarali foydalanishni talab etadi. Yangi avlod tomografik qurilmalari va optik koherent tomografiya (OCT) asosida ishlab chiqilgan 3D rekonstruksiya usullari orqali ko‘zning old segment tuzilmalari (iris, burchak zonalari, siliyer tanasi)ni mikron darajasida tahlil qilish mumkin.

Kalit so‘zlar: O‘tkir iridotsiklit, yopiq burchakli glaukoma, tez tibbiy yordam, differensial diagnostika, 3D texnologiya, robotlashtirilgan jarrohlik, oftalmologiya.

Аннотация: В данной статье анализируются сложности клинического дифференцирования острого иридоциклита и острого приступа закрытоугольной глаукомы, а также современные подходы к тактике оказания врачом первой скорой медицинской помощи. Поскольку клиническая симптоматика заболеваний во многом схожа, точная дифференциальная диагностика требует эффективного использования современных диагностических технологий, в частности, средств 3D офтальмологической визуализации. С помощью методов 3D реконструкции, разработанных на основе томографических устройств нового поколения и оптической когерентной томографии (ОКТ), можно анализировать структуры переднего сегмента глаза (радужка, зоны угла, цилиарное тело) на микронном уровне.

Ключевые слова: Острый иридоциклит, закрытоугольная глаукома, скорая медицинская помощь, дифференциальная диагностика, 3D-технология, роботизированная хирургия, офтальмология.

Abstract: This article analyzes the complexities of clinically differentiating acute iridocyclitis and acute angle-closure glaucoma attacks, as well as modern approaches to the physician's first emergency medical care tactics. Since the

ISSN 3030-3907

clinical symptoms of these diseases are similar in many respects, accurate differential diagnosis requires the effective use of modern diagnostic technologies, particularly 3D ophthalmic imaging tools. Using new-generation tomographic devices and 3D reconstruction methods developed based on optical coherence tomography (OCT), it is possible to analyze the structures of the anterior segment of the eye (iris, angle regions, ciliary body) at the micron level.

Keywords: Acute iridocyclitis, angle-closure glaucoma, emergency medical care, differential diagnosis, 3D technology, robotic surgery, ophthalmology.

Kirish.

Oftalmologiyada tez-tez uchraydigan, ammo klinik jihatdan o‘zaro juda o‘xshash kechadigan ikki holat — o‘tkir iridotsiklit va yopiq burchakli glaukomaning o‘tkir xuruji — shoshilinch diagnostik va terapevtik yondashuvni talab qiluvchi kasalliklar sirasiga kiradi. Ushbu holatlarning dastlabki belgilarida (ko‘z og‘rig‘i, ko‘rishning pasayishi, giperemiya) klinik tafovutlarni aniqlash muhim bo‘lib, noto‘g‘ri tashxis qo‘yilishi bemorning ko‘rish qobiliyatini butunlay yo‘qotish xavfi bilan bog‘liq.

3D vizualizatsiya texnologiyalari (masalan, 3D anterior segment OCT) yordamida old segment tuzilmalari, shu jumladan, iris-konfiguratsiyasi va burchaklarning ochiqligini aniq tahlil qilish mumkin. Bu, ayniqsa, yopiq burchakli glaukomani erta bosqichlarda aniqlashda foydalidir.

Robotlashtirilgan jarrohlik texnologiyalari, xususan, da Vinci Surgical System yoki boshqa yuqori aniqlikdagi avtomatlashtirilgan jarrohlik komplekslari, ko‘z ichi bosimining tezda pasaytirilishini talab qiladigan holatlarda, trabekulektomiya yoki iridektomiya kabi muolajalarni minimal invaziv usulda bajarish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar inson faktori xatolarini kamaytirib, tiklanish davrini qisqartiradi va jarrohlik natijalarining barqarorligini ta'minlaydi.

Yopiq burchakli glaukoma holida – pilokarpin, karbonat angidraza inhibitörlari, mannitol, laser iridotomiya muhim.

Iridotsiklitda esa – lokal steroidlar, midriatiklar (masalan, atropin), antiviral yoki antibiotik terapiya qo‘llaniladi.

O‘tkir iridotsiklit va yopiq burchakli glaukomaning o‘tkir xuruji o‘rtasidagi nozik klinik farqlarni erta aniqlash, yuqori texnologik yordam bilan birga olib borilgan shoshilinch tashxis va davolash taktikasi bemor ko‘rish qobiliyatini saqlab qolishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli, oftalmologik amaliyotda zamonaviy 3D tasvirlash vositalari va robotlashtirilgan jarrohlik texnologiyalarining joriy etilishi diagnostika va davolash sifatini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. So‘nggi yillarda oftalmologiyada yallig‘lanish va bosim bilan bog‘liq holatlarning differensial

ISSN 3030-3907

diagnostikasini osonlashtirish, tashxis va davolashning aniqligini oshirishga qaratilgan ko‘plab innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Xususan, o‘tkir iridotsiklit va yopiq burchakli glaukoma xurujlarining klinik farqlanishi, davo algoritmlari va zamonaviy texnologiyalar asosida minimal invaziv jarrohlik usullari tadqiqotchilar e’tiborida.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, iridotsiklit odatda sekin rivojlanadigan, og‘riq va yallig‘lanish bilan kechuvchi holat bo‘lsa, yopiq burchakli glaukoma to‘satdan boshlanib, ko‘z ichki bosimining keskin oshishi, kuchli og‘riq va ko‘rishning tez yomonlashuvi bilan tavsiflanadi. Henderson va hammualliflari (2020) o‘tkir oldingi uveitlarda qorachiq reaktivligi va shox pardadagi silliqlik differensial diagnostikada muhim mezonlar ekanini ta’kidlagan. Boshqa tomondan, Zhou va boshqalar (2019) yopiq burchakli glaukomaning o‘tkir xurujida shoshilinch tibbiy yondashuv va dori vositalarining ketma-ketligi bo‘yicha samarali algoritmlarni taklif etgan.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan 3D vizualizatsiya tizimlari (masalan, Alcon NGENUITY®) va robotlashtirilgan mikroinvaziv jarrohlik platformalari (Preceyes Surgical System) yordamida ko‘z ichki bosimini pasaytirish, iridotomiya va trabekulektomiya kabi muolajalarni aniqlik va xavfsizlik bilan bajarish imkoniyati kengaymoqda. Y.S. Park va T. Stalmans olib borgan tadqiqotlar bu texnologiyalar orqali operatsiya davomiyligi va asoratlar sonining sezilarli kamayganini ko‘rsatadi.

Mazkur maqola doirasida klinik tahlil 2022–2024-yillar davomida O‘zbekiston oftalmologik muassasalarida kuzatilgan 42 nafar bemor holati asosida olib borildi. Ulardan 24 nafarida o‘tkir iridotsiklit, 18 nafarida esa yopiq burchakli glaukomaning o‘tkir xuruji aniqlangan. Tashxis quyidagi usullar yordamida amalga oshirildi: slit-lampa biomikroskopiyasi, Goldmann tonometriyasi, optik koherent tomografiya (OCT) va gonioskopiya.

Davolash samaradorligini baholashda shifokorlar tomonidan qo‘llanilgan taktikalar, dori vositalarining ketma-ketligi va robotlashtirilgan usullar bilan bajarilgan muolajalar natijalari tahlil qilindi. 12 nafar bemorda 3D/robotik jarrohlik usullari bilan operatsiyalar bajarilgan bo‘lib, ularning ko‘rish funksiyasi, operatsiyadan keyingi tiklanish muddati va asoratlar chastotasi an’anaviy usullar bilan taqqoslandi.

Statistik tahlil SPSS 26.0 dasturida amalga oshirilib, t-test va χ^2 (chi-kvadrat) usullari yordamida yakuniy xulosalar chiqarildi. $P<0.05$ qiymati statistik ahamiyat darajasi sifatida qabul qilindi.

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili va klinik-amaliy metodlar asosida o‘tkir iridotsiklit va yopiq burchakli glaukoma o‘rtasidagi farqlar aniq belgilandi,

ISSN 3030-3907

zamonaviy texnologiyalar yordamida diagnostika va davolashda erishilayotgan yutuqlar asoslab berildi.

NATIJALAR. Hozirgi oftalmologik amaliyotda 3D tasvirlash texnologiyalari va robotlashtirilgan jarrohlik tizimlari kasalliklarni aniqlash va davolashda yangicha yondashuvlarni shakllantirmoqda. Ayniqsa, o‘tkir iridotsiklit va yopiq burchakli glaukomaning o‘tkir xuruji kabi differensial tashxis talab qiluvchi holatlarda ushbu texnologiyalar diagnostika aniqligini oshirish, davolash samaradorligini kuchaytirish hamda invazivlik darajasini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

3D tasvirlash texnologiyalarining afzalliklari.

1. Aniq tasvir va tuzilma tahlili: 3D vizualizatsiya, xususan, anterior segment OCT yordamida shox parda, oldingi kamera va iris konfiguratsiyasidagi eng kichik o‘zgarishlarni ham aniqlash imkonini beradi. Bu esa iridotsiklitda yallig‘lanish darajasini, glaukomada esa burchak yopilishining aniqligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Real vaqtli diagnostika: Optik koherent tomografiya (OCT) va OCT angiografiya (OCTA) texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida to‘qimalarning qalinligi, shakli va qon aylanish holati aniq ko‘rinadi. Ayniqsa, glaukoma xurujida qon oqimining pasayishini aniqlash, iridotsiklitda esa giperemiyalangan joylarni ko‘rish imkoniyati mavjud.

3. Operatsion monitoring: Jarrohlik amaliyotlari vaqtida 3D vizualizatsiya orqali operatsion maydonni to‘liq ko‘rib turish, tuzilmalarni aniqlik bilan ajratish va invazivlikni minimal darajada saqlab qolish mumkin. Bu holat murakkab iridektomiya yoki iridotomiya operatsiyalarida ayniqsa muhimdir.

Robotlashtirilgan jarrohlik tizimlarining afzalliklari.

Zamonaviy robotlashtirilgan tizimlar — da Vinci Surgical System va oftalmologiyaga xos yuqori aniqlikdagi PRECEYES kabi tizimlar murakkab mikrojarrohlik amaliyotlarini inson qo‘li yetolmaydigan darajada aniq va xavfsiz bajarishga imkon yaratadi.

1. Minimal invaziv muolajalar: Robot yordamida bajariladigan iridotomiya yoki iridektomiya an’anaviy usullarga qaraganda ancha kichik kesmalar orqali bajariladi. Bu bemorning tiklanish muddatini qisqartiradi, infektsiya xavfini kamaytiradi va operatsiyadan keyingi shish va yallig‘lanishni cheklaydi.

2. Titroqsiz mikromanipulyatsiya: Inson qo‘lida mavjud bo‘lgan fiziologik titroq faktori robot tizimlarida butunlay bartaraf etiladi. Bu retina yoki irisga zarar yetkazmaslikka, hatto mikron darajadagi manipulyatsiyalarni aniq bajarishga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

3. Ko‘rishni maksimal darajada saqlab qolish: Yuqori aniqlikdagi texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar tufayli ko‘zning asosiy funksional tuzilmalarini — retina, iris, shox parda — asrash, shu orqali bemorning ko‘rish qobiliyatini iloji boricha yuqori darajada saqlab qolish mumkin.

3D diagnostik texnologiyalar va robotlashtirilgan jarrohlik tizimlari oftalmologiyada yangi davrni boshlab berdi. Ular nafaqat kasallikni aniqlashda, balki davolashda ham an’anaviy usullarga qaraganda sezilarli afzalliklarga ega. Ayniqsa, o‘tkir iridotsiklit va yopiq burchakli glaukoma kabi differensial tashxis muhim bo‘lgan holatlarda bu texnologiyalar ko‘rish qobiliyatini saqlab qolish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

MUHOKAMA. Oftalmologik amaliyotda uchraydigan ayrim kasalliklar klinik jihatdan o‘zaro juda o‘xshash belgilarga ega bo‘lib, ularni farqlashda shoshilinch va aniq tashxis qo‘yish ko‘rish funksiyasini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘tkir yopiq burchakli glaukoma xuruji va o‘tkir iridotsiklit shunday patologik holatlardan bo‘lib, ular bir-biriga o‘xshash simptomlar — ko‘zda og‘riq, qizarish, ko‘rishning pasayishi, yorug‘likka sezuvchanlik va umumiy diskomfort — bilan namoyon bo‘ladi.

Biroq, bu ikki kasallikning etiologiyasi, patogenez mexanizmlari va davolash usullari mutlaqo farqlidir. Glaukoma ko‘z ichki bosimining keskin oshishi bilan kechadigan og‘ir neytropatik jarayon bo‘lsa, iridotsiklit asosan immun yoki infeksion zaminli yallig‘lanish jarayonidir. Shu sababli, tez va ishonchli differensial tashxis qo‘yish oftalmolog-shifokorning birinchi navbatdagi vazifasidir.

Shoshilinch vaziyatlarda klinik tafovutlarni aniqlash muhimligi. Agar noto‘g‘ri tashxis qo‘yilib, masalan, glaukoma o‘rniga iridotsiklit deb noto‘g‘ri baho berilsa yoki aksincha, noto‘g‘ri dorilar qo‘llansa, bu ko‘z to‘qimalarining jiddiy zararlanishiga, hatto doimiy ko‘rlikka olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yopiq burchakli glaukoma holatlarida ko‘z ichki bosimining bir necha soat ichida 50 mmHg dan oshib ketishi retina va optik nervga qaytarilmas shikast yetkazishi xavfini tug‘diradi. Shu boisdan, bunday holatlarda tezkor, aniq va to‘g‘ri tashxis hayotiy muhim ahamiyatga ega.

XULOSA. Oftalmologik amaliyotda tez-tez uchraydigan, ammo o‘zaro klinik jihatdan o‘xshash kechuvchi ikki holat — o‘tkir iridotsiklit va yopiq burchakli glaukomaning o‘tkir xuruji — shifokordan aniq klinik ko‘nikmalarni, zamonaviy diagnostik vositalardan oqilona foydalanishni talab etadi. Ushbu kasalliklar ko‘rish a'zosi tuzilmasining turli qatlamlariga ta'sir etib, kechikkan yoki noto‘g‘ri tashxis natijasida bemorning ko‘rish qobiliyatining to‘liq yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Bunday holatlarda kliniko-diagnostik belgilarni aniqlash va tezkor tashxis qo‘yish hayotiy ahamiyatga ega. Iridotsiklit ko‘pincha yallig‘lanish belgilariga (fotofobiya, mioz, old kamera yallig‘lanma infiltratlari) ega bo‘lsa, yopiq burchakli glaukomada ko‘z ichi bosimining keskin ko‘tarilishi, korneaning shaffofligini yo‘qotishi va qorachiqning kengayishi bilan tavsiflanadi. Bu belgilar ba’zida chalkash bo‘lishi mumkin, shuning uchun tezkor va aniq tashxislash vositalari zarur.

So‘nggi yillarda oftalmologik tashxis va davolash tizimlariga yangi texnologiyalar, jumladan 3D vizualizatsiya tizimlari va robotlashtirilgan mikrojarrohlik komplekslari keng joriy etilmoqda. Bu innovatsiyalar nafaqat diagnostika aniqligini oshiradi, balki operatsion xavfsizlikni ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Foster PJ, et al. The epidemiology of glaucoma. Br J Ophthalmol. 2002;86(2):238–242.
2. Yanoff M, Duker JS. Ophthalmology, 5th ed. Elsevier; 2019. pp. 110-120.
3. Kass MA, et al. Ocular Hypertension Treatment Study. Arch Ophthalmol. 2002;120(6):701–713.
4. Medeiros FA, et al. Advanced imaging in glaucoma. Curr Opin Ophthalmol. 2017;28(2):98–103.
5. Blumenkranz MS, et al. Robotic and 3D surgical systems in ophthalmology. Ophthalmic Surg Lasers Imaging Retina. 2020;51(10):518–525.
6. Hollander DA, et al. Managing uveitis and iridocyclitis. Ocul Immunol Inflamm. 2015;23(2):97–105.
7. Bourne RR, et al. Global causes of blindness and distance vision impairment 1990–2020: Lancet Glob Health. 2021;9(2):e144–e160.
8. Liang YB, et al. Anterior segment imaging for glaucoma. Clin Experiment Ophthalmol. 2012;40(1):35–43.

ISSN 3030-3907

ETILEN OKSIDI OLISH TEXNOLOGIK TIZIMI TAHLILI

Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti
Shodiyev Diyorbek Husan o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi
Abdulloyev Hasan Raxmatovich
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur ishda etilen oksidi (EO) olish texnologik tizimi keng ko‘lamda tahlil qilingan. Etilen oksidi kimyo sanoatida muhim oraliq mahsulot bo‘lib, asosan etilenga kislorod bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri oksidlanish yo‘li bilan olinadi. Ushbu jarayonning asosiy bosqichlari — xomashyo tayyorlash, reaksiya sharoitlari, katalizator tanlovi, issiqlik almashinuvi, ajratish va tozalash bosqichlari chuqur o‘rganilgan. Shuningdek, texnologik tizimda yuzaga keladigan muammolar va ularning samarali yechimlari, energiya tejamkorlik masalalari va ekologik xavfsizlik choralari ham yoritilgan. Ishda zamonaviy avtomatlashtirish vositalari va boshqaruv tizimlari bilan texnologiyaning integratsiyasi ham ko‘rib chiqilgan. Ushbu tahlil etilen oksidi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va jarayonni optimallashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Etilen oksidi, Oksidlanish jarayoni, Etilen, Kislorod, Katalizator, Texnologik tizim, Kimyo sanoati, Ajratish va tozalash, Reaktor, Energiya tejamkorlik, Ekologik xavfsizlik, Avtomatlashtirish, Sanoat gazlari, Reaksiya kinetikasi, Termodinamik sharoitlar

Annotation: in this work, the technological system for obtaining ethylene oxide (EO) has been extensively analyzed. Ethylene oxide is an important intermediate in the chemical industry and is mainly obtained by direct oxidation of ethylene with oxygen. The main stages of this process — preparation of raw materials, reaction conditions, catalyst selection, heat exchange, separation and purification steps-have been studied in depth. Also covered are the problems that arise in the technological system and their effective solutions, energy conservation issues and environmental safety measures. The work also considered the integration of technology with modern automation tools and control systems. This analysis is of practical importance for improving the production efficiency of ethylene oxide and optimizing the process.

Keywords: ethylene oxide, oxidation process, ethylene, oxygen, catalyst, technological system, chemical industry, separation and purification, reactor,

ISSN 3030-3907

energy saving, environmental safety, automation, industrial gases, reaction kinetics, thermodynamic conditions

Аннотация: В данной работе проведен обширный анализ технологической системы получения оксида этилена (Эо). Оксид этилена является важным промежуточным продуктом в химической промышленности и в основном получается прямым окислением этилена кислородом. Глубоко изучены основные этапы этого процесса — Подготовка сырья, условия реакции, выбор катализатора, теплообмен, этапы разделения и очистки. Также освещаются проблемы, возникающие в технологической системе и их эффективные решения, вопросы энергосбережения и меры экологической безопасности. В работе также рассматривается интеграция технологии с современными средствами автоматизации и системами управления. Этот анализ имеет практическое значение для повышения эффективности производства оксида этилена и оптимизации процесса.

Ключевые слова: оксид этилена, процесс окисления, этилен, кислород, катализатор, технологическая система, химическая промышленность, разделение и очистка, реактор, энергосбережение, Экологическая безопасность, автоматизация, промышленные газы, Кинетика реакции, термодинамические условия

Kirish

Kimyo sanoatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan organik moddalarni sanoat miqyosida sintez qilish texnologiyalari zamonaviy ishlab chiqarishning ajralmas bo‘lagiga aylangan. Ulardan biri — **etilen oksidi (C_2H_4O)** bo‘lib, u yuqori reaktivlikka ega bo‘lgan, xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan kimyoviy birikmadir. Etilen oksidi asosan etilenglikol, etoksilatlar, polietilenglikol, sirt faol moddalari va boshqa ko‘plab muhim kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda oraliq mahsulot sifatida ishlatiladi.

Mazkur modda texnologik jihatdan etilendan to‘g‘ridan-to‘g‘ri oksidlanish yo‘li bilan olinadi. Bu jarayon murakkab va yuqori harorat-harakat sharoitini talab qiladi, shuningdek, katalizator ishtirokida olib boriladi. Shuning uchun **etilen oksidi olish texnologik tizimi**ning samaradorligini ta’minlash, energetik va iqtisodiy jihatdan optimallashtirish, xavfsizlik choralari bilan bir qatorda atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Ushbu ishda etilen oksidi olish texnologik tizimi bosqichlari, asosiy texnologik jarayonlar, ishlatiladigan asbob-uskunalar, jarayon parametrlari, texnologik oqim sxemasi va xavfsizlik choralari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish yo‘nalishlari ham ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili

ISSN 3030-3907

Etilenning etilen oksidiga oksidlanishi sohasida bosqichma-bosqich katalitik faollikka ega (Britaniya Patenti 721412) va oqava suv inert qattiq moddalar bilan aloqa qilish orqali tez sovutiladigan tizimlardan foydalanish odatiy holdir,

Etilen (C_2H_4) — oddiy olefin bo‘lib, sanoat kimyosining muhim xomashyolaridan biridir. Uning asosiy o‘zgarishlaridan biri — oksidlanish reaksiyalari bo‘lib, bu jarayonlar orqali etilen oksidi, etanol, sirka kislotasi kabi muhim moddalar olinadi. Etilenni oksidlash turli usullar orqali amalga oshiriladi, har bir usul o‘ziga xos sharoit va mahsulotlarga ega.

Etilen oksidi odatda to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmaydi, lekin etilen glikol va uning asosida antifrizlar ishlab chiqarish, etanolaminlar, polietilen glikollar, etilen glikol efirlari, noionik sirt faol moddalar va boshqa muhim mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi.

Alyuminiy oksidi kabi qo'llab-quvvatlanadigan katalizatorni etilenni etilen oksidiga oksidlash uchun sanoat reaktoriga yuklashda qatlamni ajratish yoki suyultirish uchun katalizator qatlamiga inert moddani kiritish muhimdir. Yoki qatlamning chiqishiga inert modda qo'yilishi mumkin. Har holda, inert modda zarralari katalizator zarralari bilan bir xil o'lcham va konfiguratsiyaga ega bo'lishi juda ma'qul. Eng mos inert modda katalizatorni tayyorlash uchun ishlatilgan bir xil tashuvchidan tayyorlangan moddadir.

Etilenni oksidlash usullari

Katalitik oksidlanish (etilen oksidi olish)

Reaksiya:

$$C_2H_4+1/2O_2 \rightarrow C_2H_4O \qquad \Delta H=-105 \text{ kJ/mol}$$

Katalizator: Ag (kumush), ko‘pincha Al_2O_3 ustida qo‘llaniladi.

Sharoitlar:

- Harorat: 220–280 °C
- Bosim: 1–3 atm
- Kislorod/Etilen nisbati: 1:4 gacha
- Selektivlik: 80–90%

To‘g‘ridan-to‘g‘ri oksidlanish (katalitik usul)

- **Asosiy mahsulot: Etilen oksidi (C_2H_4O)**
- **Reaksiya:**

$$C_2H_4 + \frac{1}{2}O_2 \xrightarrow[\text{Ag katalizator}]{200-300^\circ C, 1-3 atm} C_2H_4O$$

Sharoitlar: Katalizator: kumush (Ag) yoki kumushning qo‘llab-quvvatlangan shakllari, Harorat: 200–300 °C, Bosim: 1–3 atm, Etilen va kislorodning nisbati ehtiyotkorlik bilan nazorat qilinadi, portlash xavfi mavjud

ISSN 3030-3907

Afzalliklari: Yuqori selektivlik (85–90% gacha), Etilen oksidi ishlab chiqarishning eng samarali usuli

Kamchiliklari: Mahsulotning parchalanish xavfi yuqori, Portlovchi aralashma yuzaga kelishi mumkin

Oksidlovchi yonish (ko‘p mahsulotli oksidlanish)

Mahsulotlar: Etilen oksidi, sirka kislotasi (CH_3COOH), CO_2, H_2O

Reaksiyalar:

1. **To‘liq oksidlanish:**

$$C_2H_4 + 3O_2 \rightarrow 2CO_2 + 2H_2O$$

2. **Qisman oksidlanish (sirka kislotasi olish):**

$$C_2H_4 + O_2 \rightarrow CH_3COOH$$

Katalizatorlar: palladiy, platina asosidagi katalizatorlar

Sharoitlar: Yuqori harorat (150–200 °C), Bosim: 5–30 atm

Afzalliklari: Bir necha muhim mahsulotlar olinadi

Kamchiliklari: Kam selektivlik, Ajralish va tozalash bosqichlari murakkab

Etilenni oksidlash — kimyo sanoatida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlardan biri. Eng keng tarqalgan usul — katalitik oksidlanish bo‘lib, u orqali etilen oksidi olinadi. Bu modda esa o‘z navbatida ko‘plab boshqa mahsulotlarning xomashyosi hisoblanadi. Har bir oksidlanish turi o‘ziga xos sharoit, katalizator va mahsulotlarga ega bo‘lib, ularning tanlanishi iqtisodiy samaradorlik va kerakli mahsulotga bog‘liq.

Etilen oksidini xlorgidrin usuli bilan olish

Etilen oksidini xlorgidrin usuli bilan olish ikki bosqichdan iborat:

Birinchi bosqichda etilen va xlor suv orqali o‘tkazilganda etilen xlorgidrin hosil bo‘ladi:

$$CH2 = CH2 + Cl2 + H2O \rightarrow CH2(OH) - CH2(Cl) + HCl$$

Reaksiya harorati 48–52ºC, bosimi 1,1 atm. ga yaqin.

Ikkinchi bosqichda etilenxlorgidrin eritmasiga 90–100ºC harorat-li ohak suti eritmasi (10–12% kontsentratsiyali) quyilib sovunlantiriladi

$$2HOCH_2CH_2Cl + Ca(OH)_2 \rightarrow 2CH_2\text{–}CH_2 + CaCl_2 + 2H_2O$$

(O)

Oksidlash – kimyoviy reaksiyalarning muhim turlaridan biri bo‘lib, tabiatda va sanoat jarayonlarida keng tarqalgan. Oksidlash jarayonlari energiya ishlab chiqarishda, metallurgiyada, organik sintezda, biologik jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonda modda kislorod bilan birikadi yoki elektron yo‘qotadi. Bu jarayonni teskari holati — qaytarilish (reduksiya) deb ataladi. Oksidlash va

ISSN 3030-3907

qaytarilish ko‘pincha birga ro‘y beradi va ular oksidlanish-qaytarilish (redoks) reaksiyalari deb yuritiladi.

Kimyoda oksidlash deganda moddaning elektron yo‘qotishi yoki kislorod biriktirishi tushuniladi. Elektronlarni qabul qiluvchi modda esa qaytariladi.

Umumiy redoks reaksiyasi:

$$\text{Oksidlovchi} + \text{Qaytaruvchi} \rightarrow \text{Qaytarilgan mahsulot} + \text{Oksidlangan mahsulot}$$

Masalan:

$$Fe + Cu^{2+} \rightarrow Fe^{2+} + Cu$$

Bu yerda Fe elektron beradi (oksidlanadi), Cu^{2+} esa elektron qabul qiladi (qaytariladi).

Oksidlash jarayonlarining turlari

Oksidlash jarayonlari turli mezonlarga ko‘ra turlarga bo‘linadi:

Kislorod ishtirokida bo‘ladigan oksidlash

Bu eng oddiy va keng tarqalgan oksidlash turi bo‘lib, modda kislorod bilan birikadi.

Misollar:

Temirning zanglashi:

$$4Fe + 3O_2 \rightarrow 2Fe_2O_3$$

Yonish:

$$CH_4 + 2O_2 \rightarrow CO_2 + 2H_2O$$

Elektron almashinuvi asosida oksidlash (redoks)

Bu holatda kislorod ishtirok etmasligi ham mumkin. Muhimi, elektron almashinuvi sodir bo‘ladi.

Misol:

$$Zn + Cu^{2+} \rightarrow Zn^{2+} + Cu$$

Bu jarayon galvanik elementlarda, elektrolizda va ko‘pgina sanoat texnologiyalarida muhim ahamiyatga ega.

Biokimyoviy oksidlash

Bu tirik organizmlarda kechadigan oksidlash bo‘lib, hujayralarda energiya ishlab chiqaradi. Oksidlovchi sifatida ko‘pincha NAD^+, FAD, O_2 ishtirok etadi.

Misol:

$$C_6H_{12}O_6 + 6O_2 \rightarrow 6CO_2 + 6H_2O + \text{Energiya (ATP)}$$

Bu jarayon nafas olish (aerob oksidlash) deb ataladi.

Termik oksidlash

ISSN 3030-3907

Bu issiqlik ta’sirida ro‘y beradigan oksidlashdir. Odatda yonish va metallurgik eritmalar paytida uchraydi.

Misol:

$$2ZnS + 3O_2 \rightarrow 2ZnO + 2SO_2$$

Katalitik oksidlash

Bu oksidlash turida katalizatorlar ishtirok etadi. Bu usul kimyo sanoatida ayniqsa samarali hisoblanadi.

Misol:

$$2SO_2 + O_2 \xrightarrow{V_2O_5} 2SO_3$$

Bu jarayon kontakt usuli bilan sulfat kislotasi ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Radikal oksidlash

Bu erkin radikallar ishtirokida ro‘y beradigan murakkab zanjirli jarayon. Organik birikmalar (masalan, polimerlar, yog‘lar) parchalanishida kuzatiladi.

1-jadval

Oksidlash jarayonlarining ahamiyati

Soha	Oksidlashning ahamiyati
Energetika	Yonish orqali issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqariladi
Metallurgiya	Rudalarni oksidlab sof metall ajratib olinadi
Biologiya	Hujayralarda energiya (ATP) sintezlanadi
Kimyo sanoati	Kislotalar, spirtlar, aldehidlar sintezi
Atrof-muhit	Oksidlovchi vositalar bilan chiqindilarni zararsizlantirish

Oksidlash jarayonlari moddalarning kimyoviy xossalarini o‘zgartirishda, energiya olishda va turli mahsulotlarni sintez qilishda beqiyos ahamiyatga ega. Bu jarayonlar tabiiy va sun’iy sharoitlarda keng qo‘llaniladi. Tabiiy muhitdagi hayotiy jarayonlardan tortib, sanoatgacha bo‘lgan barcha sohalarda oksidlash muhim rol o‘ynaydi.

2- jadval

Oksidlovchi va qaytaruvchilarning xossalari

Oksidlovchi	Tavsifi
O_2 (kislorod)	Eng kuchli tabiiy oksidlovchi

ISSN 3030-3907

Cl_2, $KMnO_4$, HNO_3, H_2SO_4 (konts.)	Kuchli sun’iy oksidlovchilar
NO_3^-, $Cr_2O_7^{2-}$, O_3	Kuchli oksidlovchi ionlar va molekulalar
Qaytaruvchi	**Tavsifi**
H_2 (vodorod)	Oddiy qaytaruvchi
CO, C, SO_2	Texnologik jarayonlarda qo‘llaniladi
Na, Mg, Al	Faol metall qaytaruvchilar (termodinamik nuqtai nazardan kuchli)

Kimyoviy reaksiyaga kiruvchi moddalar ulushini topish uchun ko'pincha oksidlanish-qaytarilish reaktsiyasini muvozanatlash kerak bo'ladi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi tenglamasi stexiometrik koeffitsientlarni (ya'ni har bir birikmaning mollar sonini) topishga keltiriladi. Stokiometrik koeffitsientlar faqat 1 va undan yuqori butun sonlarni qabul qilishi mumkin; fraksiyonel stokiyometrik koeffitsientlarga faqat termokimyoviy tenglamalarni yozishning ayrim hollarda ruxsat etiladi . Oksidlanish-qaytarilish muvozanatini muvozanatlashning ikkita usuli mavjud: yarim reaksiya usuli va elektron muvozanat usuli. Elektron muvozanat usuli oddiyroq va reaksiya gazsimon muhitda sodir bo'lganda qo'llaniladi (masalan, yonish jarayonlari yoki birikmalarning termal parchalanishi). Yarim reaksiya usuli murakkabroq va reaksiya suyuq muhitda sodir bo'lganda qo'llaniladi. Yarim reaksiya usuli erkin atomlar va monotomik ionlar bilan emas, balki reaksiyaga kirishuvchi moddalarning erishi va/yoki dissotsilanish jarayonlari natijasida hosil bo'lgan eritmada haqiqatda mavjud bo'lgan zarrachalar (ionlar) bilan ishlaydi. Har ikki usul ham turli o'quv yurtlari talabalari tomonidan o'rganiladigan umumiy va noorganik kimyoning asosiy kursida muhim o'rin tutadi. Etilen oksidi – muhim organik kimyo mahsuloti bo‘lib, keng ko‘lamli mahsulotlar, xususan, etilen glikol, sirt faol moddalar, solventlar, antifrizlar, tekstil, plastmassa va farmatsevtika sanoatida ishlatiladi. Uni sanoat miqyosida olish uchun asosiy usul etilenni kislorod ishtirokida oksidlash reaksiyasidir.

Etilen oksidi (EO) – C_2H_4O formulali modda bo‘lib, yuqori reaktivlikka ega. U ko‘plab kimyoviy moddalarning oraliq mahsuloti sifatida ishlatiladi. Uni olishning asosiy sanoat usuli – etilenni kislorod ishtirokida oksidlovchi katalitik reaksiyaga kiritishdir.

Bu jarayon: Ekzotermik (issiqlik ajraladi), Katalizator talab qiladi (kumush asosidagi), Selektivlik va xavfsizlik muhim.

Etilen oksidi qaynash nuqtasi 10,7 ° C bo'lgan suyuqlik bo'lib, suv bilan to'liq aralashadi. 3-80% hajm oralig'ida havo bilan portlovchi aralashmalar hosil qiladi.

ISSN 3030-3907

Etilen oksidi ko'plab moddalarni (etilen glikol, etanolaminlar, tsellozollar, sirt faol moddalar) sintez qilish uchun ishlatiladi.

Texnologik jarayon bosqichlari

1. Xomashyoni tayyorlash

Etilen va kislorod (yoki havo) alohida uzatiladi.

Aralashma tarkibi aniq nazorat qilinadi (etilen: 3–10%, kislorod: 7–10%).

Namlik va boshqa aralashmalardan tozalanadi.

2. Reaksiya (oksidlanish)

Reaktor – **quvurli (tubular) issiqlik almashtirgichli reaktor**.

Katalizator – **kumush (Ag)** zarralari (kislorod selektiv oksidlashni ta'minlaydi).

Ishlash sharoiti:

Harorat: **200–300°C**

Bosim: **1–3 atm**

Gaz oqim tezligi: optimal bo‘lishi kerak

Qizib ketmasligi uchun issiqlik chiqaruvchi reaksiya issiqlik almashtirgich orqali boshqariladi.

3. Sovutish va gaz aralashmasini ajratish

Reaksiyadan so‘ng chiqqan gaz aralashmasida: Etilen oksidi, CO_2, H_2O, qolgan C_2H_4, O_2, azot mavjud.

Sovutgich orqali sovutiladi → **absorberga** yo‘naltiriladi.

4. Absorbsiya

Suv yoki **sirka kislotasi** yordamida etilen oksidi yutiladi.

Yutilgan EO (etilen oksidi) ajratiladi, qolgan gazlar qayta ishlanadi yoki yoqiladi.

5. Distillatsiya va tozalash

Yutilgan EO distillatsiya orqali tozalanadi.

Toza EO ≥99% holatga yetkaziladi.

Jarayonning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari: Yuqori selektivlik (kumush katalizatorlar yordamida), Ekzotermik reaksiya – energiya tejaydi, Sanoat uchun iqtisodiy foydali

Kamchiliklari: Yon reaksiyalar: CO_2 va H_2O hosil bo‘ladi, Etilen va EO portlovchi – xavfsizlik muhim, Katalizator faoliyati pasayishi mumkin

Asosiy va yonaki reaksiyalar

Asosiy reaksiya (maqsadli):

$$C_2H_4 + \frac{1}{2}O_2 \xrightarrow{Ag\ katalizator,\ 250-300^\circ C} C_2H_4O \quad \Delta H = -105\ \text{kJ/mol}$$

Yonaaki reaksiyalar:

To‘liq yoqilish (yo‘qotish):

$$C_2H_4 + 3O_2 \rightarrow 2CO_2 + 2H_2O \quad \Delta H = -1323\ \text{kJ/mol}$$

ISSN 3030-3907

Qisman yoqilish (CO hosil bo‘lishi):

$$C_2H_4 + \frac{3}{2}O_2 \rightarrow 2CO + 2H_2O$$

Yonaki reaksiyalar issiqlik ajratadi, lekin Etilen Oksidi chiqishini kamaytiradi. Shuning uchun jarayon maksimal selektivlikka yo‘naltiriladi.

XULOSA

Ushbu maqolada etilen oksidi olish texnologik tizimi chuqur o‘rganilib, uning barcha bosqichlari tahlil qilindi. Etilen oksidi (C_2H_4O) — sanoatda keng qo‘llaniladigan muhim organik birikma bo‘lib, u asosan etilenglikol, dioksan, sirt faol moddalar, plastmassalar, erituvchilar, antifrizlar va dorivor moddalar ishlab chiqarishda asosiy xomashyo hisoblanadi.

Etilen oksidini ishlab chiqarish jarayoni, odatda, gaz holatidagi etilen va kislorodning kumush (Ag) katalizatori ishtirokida harorat 200–300 °C va bosim 1–3 MPa oralig‘ida olib boriladigan ekzotermik reaksiya orqali amalga oshiriladi. Reaksiya natijasida etilen oksididan tashqari karbonat angidrid (CO_2) va suv bug‘i kabi yon mahsulotlar hosil bo‘ladi. Ushbu jarayonda reaksiya tezligi, konversiya darajasi, mahsulotlar selektivligi va issiqlik balansining muvozanatli olib borilishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Темиров, А. Х., Ахмедов, В. Н. (2021. Получение в нефтегазовой отрасли ингибиторов коррозии на основе тиомочевины, формальдегидной смолы и акриловой кислоты// Международный научный журнал «Universum: технические науки». – Москва, 2021. – №12 (93). – С. 60-62.
2. Alisher, T., Vokhid, A., Bobir, O. Synthesis and properties of thiourea based inhibitors// Международный научный журнал «Universum: технические науки». – Москва, 2022.– №8 (101), – С. 63-65.
3. Temirov, A., Akhmedov, V. (2022). Preparation and properties of a corrosion inhibitor based on thiourea // Scientific Collection «InterConf», (120). – Vilnius, 2022. – №122. –P. 211-213.
4. Temirov, A., & Akhmedov, V. (2022). Physico-chemical characteristics of an aminoaldehyde oligomer with inhibiting properties // Scientific Collection «InterConf». – Warsaw, 2022. – №122. –P. 303-305.
5. Panoyev Erali Rajabboyevich, Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li, Akhmedov Vokhid Nizomovich (Bukhara, Uzbekistan) The corrosion problem in the oil and gas industry . Polish science journal (ISSUE 10(43), 2021) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021
6. Xamidov, D. G. A., & Temirov, A. H. O. G. L. (2020). Parafinli neftlarning fizik-kimyoviy xossalari tahlili. Science and Education, 1(9).

ISSN 3030-3907

7. Темиров, А. Х., & Ахмедов, В. Н. (2021). Получение в нефтегазовой отрасли ингибиторов коррозии на основе тиомочевины, формальдегидной смолы и акриловой кислоты. Universum: технические науки, (12-5 (93)), 60-62
8. Alisher hoshim o‘g‘li, T., & Nabiullayevich, A. S. (2024). Neft Va Gazni Qayta Ishlash Korxonalari Jihoz Va Qurilmalarida Kelib Chiqishi Mumkin Bo’lgan Korroziyalar Va Ularning Ldini Olish Usullari. Miasto Przyszłości, 46, 847-851.
9. Hoshim O‘g‘li, T. A., Universiteti, B. D. T., Jumayevich, D. S. B., & Raxmatovna, D. X. G. Z. GAZLARNI MEA YORDAMIDA ABSORBSION TOZALASH.
10. Alisher, T., Vokhid, A., & Bobir, O. (2022). Synthesis and properties of thiourea based inhibitors. Universum: технические науки, (8-3 (101)), 63-65.
11. Темиров, А. Х. (2024). Технология Производства Ингибиторов Коррозии. Miasto Przyszłości, 46, 832-836.
12. Temirov, A. H. O. G. L., O‘G‘Li, G. A. H., & Nosirov, S. N. O. G. L. (2024). Kondensatsiya usuli yordamida gazni qayta ishlash texnologiyasi. Science and Education, 5(3), 204-210.
13. Temirov A. H., To'raqulova M. Q. & Izzatov D. H. (2024). ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ИНГИБИТОРА КОРРОЗИИ, ПОЛУЧЕННОГО НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ. Development Of Science, 4(1), pp. 19-24.

ISSN 3030-3907

МЕТАЛЛ – КОМПОЗИТ МАТЕРИАЛЛАРИДАН ПОДШИПНИК ДЕТАЛЛАРИНИ ОЛИШ УЧУН ПЕЧ ТАНЛАШ ВА УНИ АСОСЛАШ

Баймирзаев Акбаржон Рустамжан ўғли
Андижон машинасозлик институти т.ф.ф.д. доцент.
E-mail: *akbarshoxashox@gmail.com*

Аннотация: Ушбу мақолада машинасозлик саноатида металл қуйиш жараёнлари, хусусан, индукцион печлардан фойдаланишнинг технологик, иқтисодий ва экологик афзалликлари таҳлил қилинган. Турли печ турларининг хусусиятлари, металл йўқотиш миқдори ва иш самарадорлиги ўрганилиб, уларнинг қиёсий таҳлили берилган. Индукцион печлар юқори ҳароратга чиқиш қобилияти, энергия тежамкорлиги ва экологик тозалиги билан ажралиб туради. ШХ15 пўлатини қуйишда индукцион печда футеровка, шаблон ўрнатиш ва шихта тайёрлаш каби технологик босқичлар муфассал баён этилган. Қуйиш жараёнида оддий ва вакуум остида қуйиш усуллари қиёсланиб, вакуум қуйишда олинган намуна сифати юқорилиги таъкидланган. Тадқиқот натижаларига кўра, подшипник деталлари ишлаб чиқаришда индукцион печлардан фойдаланиш самарали ва мақбул ечим сифатида баҳоланади.

Калит сўзлар: металл-композит материаллар, қуйма нуқсонлари, кристалланиш жараёни, иккиламчи материаллар, вакуум қуйиш, термик ишлов, подшипник деталлари, микрокристаллитлар, механик ишлов, бўшлиқлар.

Аннотация:В данной статье рассмотрены процессы литья металлов в машиностроительной промышленности, в частности, преимущества использования индукционных печей с технологической, экономической и экологической точек зрения. Проведен сравнительный анализ характеристик различных типов печей, уровня потерь металлов и эффективности их работы. Индукционные печи выделяются своей способностью быстро достигать высоких температур, энергоэффективностью и экологической чистотой. Подробно описаны технологические этапы плавки стали ШХ15, включая футеровку, установку шаблона и подготовку шихты. Сравниваются обычное и вакуумное литьё, подчёркивается более высокое качество образцов, полученных под вакуумом. По результатам исследований использование индукционных печей в производстве подшипниковых деталей признано наиболее целесообразным и эффективным решением.

Ключевые слова: металлокомпозитные материалы, дефекты литья, процесс кристаллизации, вторичные материалы, вакуумное литьё, термическая

ISSN 3030-3907

обработка, подшипниковые детали, микрокристаллиты, механическая обработка, пустоты.

Abstract: This article analyzes metal casting processes in the mechanical engineering industry, focusing particularly on the technological, economic, and environmental advantages of using induction furnaces. A comparative analysis is provided regarding the characteristics of various furnace types, metal loss levels, and operational efficiency. Induction furnaces are highlighted for their ability to reach high temperatures quickly, energy efficiency, and environmental friendliness. The technological stages of casting SHX15 steel are described in detail, including furnace lining, mold installation, and charge preparation. A comparison between conventional and vacuum casting methods is made, emphasizing the superior quality of samples obtained through vacuum casting. According to the research findings, the use of induction furnaces in bearing component production is considered an optimal and efficient solution.

Keywords: metal-composite materials, casting defects, crystallization process, secondary materials, vacuum casting, heat treatment, bearing components, microcrystallites, machining, voids.

Кириш

Машинасозлик саноатида материалларни қуйиш учун кенг тарқалган усул индукцион печларда ишлаб чиқариш ҳисобланади. Бундан ташқари, турли хил печларда ҳам пўлат қуймаларини олиш имконияти мавжуд. Шу билан бирга, печларнинг турига қараб бошқа хусусиятлар ҳам ўзгариши мумкин. Қайта эритиш жараёнида печ турига боғлиқ ҳолда материал таркибидаги металларнинг йўқотиш миқдори турли даражада бўлади.

Электропечлар энергия манбаи сифатида электр энергиясидан фойдаланади. Ушбу печлар катта қотишмалар ва махсус талабларга мос металларни тайёрлашда самарали ҳисобланади. Электропечлар юқори ҳароратга чиқиш қобилиятига эга ва тезкор эритишни таъминлайди, бу эса қотишмаларни юқори аниқликда тайёрлаш имконини беради. Бироқ, энергия сарфи юқори бўлиб, электр энергиясининг сарфланиши сабабли улар ҳар доим ҳам иқтисодий жиҳатдан фойдаланарли эмас.

Бессемор конверторлари XIX асрда ишлаб чиқилган бўлиб, бу печлар асосан паст углеродли қотишмаларни тайёрлаш учун ишлатилади. Бу жараён ҳаво орқали ўтказиладиган конвертор ёрдамида амалга оширилади ва углерод миқдорини пасайтиришни таъминлайди. Бессемор конверторлари энг кам ёқилғи сарфлайди, бироқ қотишмаларни аниқ назорат қилиш имконияти чекланган. Шунинг учун, юқори сифатли ва аниқ металл-композит қотишмаларни тайёрлашда улар камроқ самаралидир.

ISSN 3030-3907

Дуплекс-жараён мартенли печ ва электропечлар ёрдамида амалга оширилади. Бу жараён катта ҳажмдаги металларни тайёрлашни тезкор ва самарали қилишга имкон беради. Мартенли печда металл эритилади, сўнгра электропечга ўтказилиб, у ерда қотишма аниқ ҳароратда қайта ишланади. Бу жараён энергия сарфини камайтиради ва юқори ҳароратли эритмаларни тайёрлашга мос. Бироқ жараён икки босқичли бўлгани сабабли вақт талаб қилади.

Триплекс-жараёнда вагранка, конвертор ва электропечлар биргаликда қўлланилади. Бу жараён катта ҳажмдаги ва юқори ҳароратли қотишмаларни тайёрлашда самарали. Вагранкада эритилган металл конверторда қайта ишланади ва сўнгра электропечга ўтказилади. Бу жараён металлнинг юқори сифатли бўлишини таъминлайди, бироқ энергия сарфи ва экологик таъсири юқори бўлади. Шу сабабли, кичик ҳажмдаги ва аниқ материаллар ишлаб чиқаришда бу жараён унчалик мос эмас.

Индукцион печлар юқори самарадорликка эга бўлган, юқори ҳароратли эритиш жараёнларида энг мақбул танлов ҳисобланади. Индукцион печлар магнит майдони ёрдамида металларни эритиш имконини беради, бу эса жараённи тезкор ва аниқ назорат қилишга имкон беради. Ушбу печларда материалларни локал иситиш ва ҳароратни юқори аниқликда назорат қилиш мумкин, шунингдек, энергия сарфини камайтириш ҳам мумкин. Индукцион печлар экологик тозалиги билан ҳам ажралиб туради, чунки уларда чиқиндилар миқдори кам ва ҳавога зарарли газлар чиқармайди.

1-Жадвал

Пўлат ишлаб чиқаришда қуйиш жараёнида чиқинди ва бошқа элементларинг йўқотишлар жадвали (ўртача амалий маълумотлар)


Қуйиш агрегатлари Номлари	**Металларни қуйишда масса қисмлари бўйича йўқотишлар %**
	Ўртача кўрсаткичлар
Мартенли печлар	6 – 8
Электропечлар	4 – 5
Бессемор конвертори	16 – 18
Дуплекс-жараён (мартенли печ ва электропечлар)	6 – 7
Триплекс-жараён (вагранка – конвертор – электропечлар)	18 – 20
Индукцион печлар	2 – 3

Юқоридаги жадвалдан кўриниб турибдики қуйиш даврида энг кам йўқотишлар индукцион печларда амалга оширилар экан.

ISSN 3030-3907

Ст. ШХ15 қуйиб олиш учун ИЧТ – маркали пўлат эритиш печини танладик. Технологик жараённи биринчи навбатда печни ШХ15 пўлатини эритишга тайёрлаш:

1) печни таг қисмини иссиқликк бардош берувчи (огнеупорной) ғишт билан қўйилиб терилиб чиқади. Ғиштларни бир-бирига махкамланиб, шамот поротоги билан хамир (паста) тайёрланиб бир-бирига махкамлаб чиқилади;
2) индуктор деворлари қалинлиги 5 мм бўлган асбест материали билан ёпиштириб чиқилади;
3) индуктор орасида 15-20 мм метал лист тайёрланган шаблон ўрнатилади.



1-Расм. Индукцион печ чизмаси.

Бу шаблон метал листдан 3мм иборат индуктор билан оралиқ масофа 150-20 мм бўшлиқ қўйилиб ўртасига қўйилади.

Кварцит ва борная кислота 98% - кварцит 2% борная кислота аралашмасидан тайёрланган қоришма қуруқ холда шаблон билан индуктор оралиғидаги бўшлиққа трамбовка қилиб ёпиштирилиб чиқилади.

Кислотали муҳитда ишловчи футеровка қилинган печда, металл чиқиндилари, асосан чўян парчалари, индуктор тагига зичлаб териб чиқилади. Чўян чиқиндиларидан фойдаланиш мақсади – печни бирламчи спекания жараёни орқали ток билан таъминлаб, металл шаблонни эритиб, кварцит ва бор кислота аралашмаси таъсирида индуктор деворларига қаттиқ ёпишиб тигел шакллантиришдир. Шунингдек, металл парчалари ҳам эриб суюлганда янада мустаҳкамланган тигел ҳосил қилади ва чўянни печдан метал ковш орқали олиш мумкин. Индуктор деворлари углеродга бой чўян билан қопланган бўлиб, кейинчалик сифатли ШХ15 пўлатини олишда

ISSN 3030-3907

углерод миқдорини 0,9-1,1% даражасида барқарор ушлаб туришга ёрдам беради.

Печни спекания учун қиздириш жараёнида шихтага 50% пўлат ва 50% чўян қўшиб эритиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Бу қуйма тайёр маҳсулотга ёки муайян формага эга бўлиши шарт эмас. Кейинчалик чўян эритишда шихта сифатида фойдаланиш мумкин. Бу усул, асосан, печни қиздириш ва деворларни мустаҳкамлаб, тигел шакллантириш мақсадида биринчи босқичда қўлланилади. Бундай мустаҳкам қоришмадан хосил бўлган тигелдан сифатли пўлат олишда узлуксиз равишда 35-40 мартагача пўлат маҳсулотларини эритиш мумкин. Кварцит ва бор кислота билан тайёрланган қотишма металл эриш жараёнида аста-секин ейилиб, девор қалинлиги 50% дан камайганда иш тўхтатилади, қайта футеровка қилингандан сўнг печ яна фойдаланишга тайёр бўлади.

Қолип тайёрлаш жараёни бир неча босқичлардан иборат. Тадқиқот давомида икки хил қуйиш усули — оддий ва вакуум остидаги қуйиш усулларидан фойдаланилди. Бу икки усул танланишининг сабаби шундаки, ҳар бир усулда турлича наъмуналар олингани аниқланди. Оддий қуйиш усулига нисбатан вакуум остида қуйиш натижасида олинган наъмуналар сифати юқори кўрсаткичларга эга бўлди.

Вакуум остида қуйилган наъмуналарда дарз кетиш, қолипни тўлиқ қоплаш ва бошқа нуқсонлар оддий усулда қуйилган наъмуналарга нисбатан анча яхши кўрсаткичларга эга бўлди. Бунинг сабаби шундаки, вакуум шароитида қуйилганда ҳаво билан эритма ўртасидаги акс таъсир, хусусан кислород билан реакция ва унинг салбий оқибатлари сезиларли даражада камаяди, бу эса маҳсулот сифатини оширишга хизмат қилади.

Тадқиқот натижаларига кўра индукцион печлардан подшипник деталлари учун металл-композит материалларини ишлаб чиқаришда фойдаланиш айниқса замонавий ишлаб чиқариш жараёнларини самарали тарзда ташкил қилишда муҳим аҳамиятга эга. Бу печлар ўрганганимиздек юқори ҳароратга тезлик билан чиқиш, бир хил иситиш, энергияни тежаш, ва экологик тозалик каби бир қанча устунликларга эга бўлиб, улар ишлаб чиқариш жараёнидаги турли жараёнларни сезиларли даражада соддалаштиради. Қуйида индукцион печларни танлашнинг ўзига хос сабаблари ва уларнинг нима учун танланганлигига асослар келтирилган.

Индукцион печларнинг юқоридаги афзалликларидан келиб чиқиб, подшипник деталлари ишлаб чиқаришда уларни қўллаш иқтисодий, экологик ва технологик жиҳатдан самарали ҳисобланади. Бунда ҳароратни тезкор ва аниқ назорат қилиш имконияти материалнинг кимёвий таркиби ва

ISSN 3030-3907

тузилишини сақлашга ёрдам беради, энергия сарфини тежайди ҳамда юқори сифатли маҳсулот тайёрлашни кафолатлайди. Шунингдек, улар саноатда экологик тоза ишлаб чиқариш стандартларига мос келади, бу эса замонавий машинасозлик ва металлургия соҳаларида экологик жиҳатдан тоза ишлаб чиқаришни таъминлаш учун муҳимдир. Ана шу сабабларга кўра, индукцион печларни танлаб олиш подшипник деталлари ишлаб чиқариш жараёнида энг мақбул қарор сифатида баҳоланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Uvarov, A. A. Металлокомпозитные материалы: свойства и применение. — Москва: Металлургия, 2015. 10–20
2. Porter, D. A., Easterling, K. E. Phase Transformations in Metals and Alloys. — CRC Press, 2009. 45–60
3. Liptai, B. G. Chemical Analysis of Metals: Methods and Applications. — Springer, 2010. 25–40
4. Gubkin, T. M. Методы исследования состава и структуры металлов. — Москва: Наука, 2002. 75–85
5. Burke, M. G. Techniques for Microstructural Characterization of Alloys. — Springer, 2015. 90–105
6. A.Baymirzaev. 2024. New Methods of Obtaining Bearing Material from Steel. Journal of Interdisciplinary Science, 25-28.

ISSN 3030-3907

NEFT TARKIBIDAGI SUVNI DEEMULGATORLAR YORDAMIDA AJRATISH USULLARI

Boboyev Dilshod Sayfullo o‘g‘li.
Toshkent kimyo texnologiya instituti. Tayanch doktarant
E-mail: boboyevdilshod298@gmail.com
Karimov Mas’ud Ubaydulla o‘g‘li
Toshkent Kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.d.prof
Ismoilov Feruz Sobirovich
Toshkent Kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d katta ilmiy xodim
orcid.org/0000-0001-7742-3755
Tel: +99891 163-22-55

Annotatsiya. Maqolada mahalliy xom-ashyolar asosida yuqori samaradorlik ko‘rsatgichlarga ega bo‘lgan deemulgatorlar sintezi ustida ish olib borildi, sintez uchun olingan moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari tahlil etildi va sintez qilingan deemulgatorning neft tarkibidan suvni ajratib olishda yuqori samaraga ega ekanligi bir nechta tajribalar natijasida aniqlandi.

Kalit so‘zlar. Neft, Deemulgator, Emulsiya, Suv, HPEG, Polikarboksilat, YaMR.

Аннотация. В статье проведена работа по синтезу деэмульгаторов с высокими показателями эффективности на основе местного сырья, проанализированы физико-химические свойства веществ, использованных для синтеза, и в результате ряда экспериментов установлено, что синтезированный деэмульгатор обладает высокой эффективностью при отделении воды из состава нефти.

Ключевые слова. Нефть, Деэмульгатор, Эмульсия, Вода, HPEG, Поликарбоксилат, ЯМР.

Abstract. The article presents work on the synthesis of deemulsifiers with high efficiency indicators based on local raw materials. The physicochemical properties of substances used for the synthesis were analyzed. As a result of a series of experiments, it was established that the synthesized demulsifier demonstrates high efficiency in separating water from oil composition.

Keywords. Oil, Deemulsifier, Emulsion, Water, HPEG, Polycarboxylate, NMR.

Kirish

Neft sanoati zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, u faqat yoqilg‘i sifatida emas, balki neft-kimyo sanoati uchun xom-ashyo bazasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Neft qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida muhim texnologik bosqichlardan biri bu — neft emulsiya tarkibidagi suvni samarali ajratib olish hisoblanadi. Chunki neft tarkibidagi suvning mavjudligi transport, saqlash, qayta ishlash va mahsulot sifati jarayonlariga salbiy ta’sir

ISSN 3030-3907

ko‘rsatadi. Neft emulsiya tizimlari asosan suv, neft va emulsiyalovchi moddalardan tashkil topgan bo‘lib, ularni ajratish texnologik jarayonlarda katta muammolarni yuzaga keltiradi. Har bir namuna uchun olingan neft alohida holatda va konning o‘zgarishi bilan neftning fizik-kimyoviy xossalari: zichligi qiymatlari, uning qotish harorati, oltingugurt miqdori, asfalten, koks, kerosin, qatronlar, mineral tuzlar va boshqalar miqdori, shuningdek uning emulsiyalari moyining kinematik, dinamik va samarali yopishqoqligi farq qiladi va eksperimental ravishda aniqlanadi. Neftli emulsiyani parchalash mexanizmini uchta elementar bosqichga ajratis mumkin; suv tomchilarini to‘qnashuvi, kattaroq tomchilarga yoyilishi, tomchilarni yiriklashib pastga tushishi yoki suvli qatlam ko‘rinishida ajralishi. Suv tomchilarining to‘qnashuvini maksimal imkoniyatini ta’minlash uchun ularning neftdagi harakat tezligini har xil usullar bilan ta’minlsh maqsadga muvofiqdir. Masalan, aralashtirish yoki ma’lum bir haroratgacha qizdirish, shuningdek elektr toki ta’sir ettirish ham yaxshi samara berishi tajribalarda isbotlangan. Suv tomchilarini butun neft hajmi bo‘ylab tarqalishi uchun faqatgina bir-biri bilan to‘qnashuvining o‘zi yetarli bo‘lmaydi..Ayniqsa, tabiatda uchraydigan va ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan barqaror emulsiyalarni parchalash uchun maxsus kimyoviy moddalar — deemulgatorlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Deemulgatorlar neft sanoatida emulsiya barqarorligini buzib, suv va neft fazalarining ajralishiga ko‘maklashadi. Suv tomchilarini tushish tezligini tezlatish uchun ularnimg o‘lchamlarini yiriklshtirish, neftning qovushqoqligini oshirish hiusobiga suv van neft zichligi farqi oshiriladi. Haroratni oshirish hisobiga esa neft va suvning zichligi farqini kuchaytirish mumkin., ya’ni 100 °C haroratda suvning kengayish koeffitsenti neftning kengayish koeffitsentiga nisbatan kichikroqdir. Harorat ko‘tarilishi bilan neftning qovushqoqligi kamayadi.[1]

Bugungi kunda bozorga taklif qilinayotgan ko‘plab deemulgatorlar xorijdan import qilinadi. Bu esa ishlab chiqarish tannarxini oshiradi, valyuta mablag‘larining chiqib ketishiga sabab bo‘ladi va ekologik xavfsizlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xom-ashyolar asosida yuqori samarali, ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul deemulgatorlar ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Adabiyotlar sharxi. Deemulgatorlar sirt faol moddalar bo‘lib, neft-suv aralashmasida deemulgator ta’siri odatda adsorbsiyalangan sirt faol moddalarning siljishiga asoslanadi. Bu mayda suv tomchilarining to‘planishiga va kattaroq tomchilarga birlashishiga imkon beruvchi interfaol plyonka holiga olib keladi. Hozirgi vaqtda neft sanoatida deemulgator sifatida alkil-fenolformaldegid smolalari, polipropilen oksidi, polietilen oksidi sopolimerlari, alkoksillangan aminlar, alkoksillangan epoksi qatronlar va ularning aralashmalaridan

ISSN 3030-3907

foydalaniladi. Biroq, neft qazib olish va qayta ishlashda atrof-muhitga qo‘yiladigan talablar tobora kuchayib borayotgani sababli, ekologik toza, arzonroq va xavfsizroq (kam zaharli) deemulgatorlarga katta qiziqish mavjud. [2].Mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish, xususan o‘simlik moylari, maishiy chiqindilar, neft-kimyo va oziq-ovqat sanoati chiqindilaridan foydalanib samarali deemulgatorlar sintez qilish orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlikka erishish, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham hissa qo‘shish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda deemulgatorlar bir necha xil usullar yordamida olinmoqda va sintez qilinmoqda. Biz o‘z tajribalarimizda polikarboksilatlar yordamida neft tarkibidagi suvni ajratib olish jarayonini o‘rgandik. Deemulgatordagi molekulyar strukturaning yon zanjirlari faollashuvi kichik monomerlar tomonidan kiritilganidir. Makromonomerlarning molekulyar og‘irligi polaritesi va polimerizatsiya faolligi kabi xususiyatlar demulgatorlarning sifati va ishlashi bilan bog‘liq. Ularni tayyorlash usullari quyidagicha amalga oshirildi. HPEG, bu modda Polieter monomer HPEG 2400 polikarboksilat uchun deemilgator yaxshi selektivlikka ega, yuqori bog‘lanishni ushlab turish darajasiga ega, bu suvni yutuvchi xususiyatga ega bo‘lganligi uchun suvni kamaytiradigan moddalarni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

1-jadval

Demulgatorning texnik tavsifi


Tashqi ko‘rinishi	Oq yoki oq sarg‘ish rangli qattiq modda
PH	5.0-7.0
To‘yinmaganlik Mmol/g	0 dan kata yoki unga teng. 38
Namlik %	23.5
Gidroksil qiymati	
Ikki tomonlama obligatsiyani ushlab turish %	96 dan kata yoki teng

Akril kislota($C_3H_4O_2$), rangsiz suyuqlik bo‘lib, o‘tkir hidga ega, suvda, alkogolda, efirda va xloroformda eriydi. Akril kislotadan metil akrilat, etil ester, butil ester, akril qatronlar va boshqalarni ishlab chiqarishi mumkin. Shuningdek u yaxshi sorbent ham hisoblanadi ya’ni suvni o‘zida yaxshi yutadi shuning uchun ham deemulgatorlar sintezi uchun muhim xom-ashyo hisoblanadi.

Biz deemulgatorni 70℃ suvli eritma sharoitida erkin radikal polimerizatsiya reaksiyasi orqali makromonomer sifatida polioksietilen izobutil spirti efir (HPEG) va akril kislota (AA), inisiatordan foydalanib, sopolimer sintez qildik. Makromonomerlarning molekulyar og‘irligi, polimerizatsiya faolligi kabi xususiyatlar polikarboksilat sifati va ishlashi ta’sir qiluvchi omillardir. Ularni tayyorlash usullari quyidagicha ko‘rsatilgan. HPEG, AA ning radikal

ISSN 3030-3907

kopolimerizatsiyasi zanjir uzatish agenti merkaptan kislota yordamida 50°C haroratda boshlandi. Tajriba quyidagicha amalga oshiriladi: 500 ml uch bo‘yinli dumaloq tubi kolbaga HPEG (50,0112 g,), AA (6,3866 g,) va zanjir uzatuvchi (0,9g,) qo‘shib aralashtiriladi. Tomdirgich yordamida aralashmaga inisiator (0,6 ml,) kiritildi. Keyin kolba 65°C haroratda termostatlangan moy hammomiga botirildi va reaksiyani 240 minut olib borildi. Deemulgatorning yakuniy mahsuloti sifatida 40 % li och sarg‘ish rangli suvli eritma bo‘lib, pH~8 ga keltirildi. Aslida, izobutil spirti efir va akril kislota kabi yuqori reaktiv monomerlar makromonomerlar bilan birlashganda, geterogen tarkibli sopolimerlar hosil bo‘ladi. Suvli radikal sopolimerizatsiya jarayonida monomerlar payvand yoki blok zanjirlariga joylashtirilishi mumkin.




(A)

A-A-A-A-A-B-B-B-B-A-A-A-A-
-B-B-B-B-B-A-A-A-A-A-B-B-B-B- **(B)**

1-rasm. Monomerlar payvand (A)va blok(B) zanjirlariga joylashtirilishi.

Deemulgatorning umumiy kimyoviy tuzilmalari 2-rasmda ko‘rsatilgan.




2- rasm. Demulgatorning umumiy kimyoviy tuzilmalari

Natijalar va muhokama. YaMR spektrlari JNM-EC3600P spektrometrida 400 MHz chastotada aniqlangan.^{1}H YaMR spektrlarida satndart sifatida TMS (0ppm) ishlatilgan. ^{1}H YaMR spektrlarida standart sifatida erituvchining kimyoviy siljishi hisobga olingan. Somopolimer rezonans cho‘qqilarining kuzatilgan nisbiy

ISSN 3030-3907

intensivligi kuzatilgan qiymatlarga yaxshi mos keldi, bu polimer va sopolimer spektrlarini qayd qilish uchun qo‘llaniladigan shartlar miqdoriy YaMR spektroskopiya ma’lumotlarini olish uchun yetarli bo‘lishini ta’minlaydi.



3-rasm. Deemulgatorning YaMR spektroskopiya.

3-rasmda HPEG, akrilat kopolimerining YaMR spektroskopiyasi ko‘rsatilgan. Olingan natijalar taxliliga ko‘ra, sopolimer spektrida karbonil, metin va a-metil uglerod atomlarining rezonanslari gomopolimerlardagi kabi mintaqalarda kuzatiladi, lekin gomopolimer spektrlarida ifodalanmaydigan signallar ham mavjud. Ushbu signallar monomer birliklarining sopolimer zanjiri bo‘ylab qanday joylashishi haqida ma’lumot beradi. Akril kislotasi miqdori ortib borayotgan AA signalining past maydon siljishini hisobga olgan holda (HPEG1.0 da d = 182 ppm dan 188 ppm gacha, polimerda mavjud bo‘lgan yuqori molekulyar og‘irlikdagi qismlarni polikarboksilat deb taxmin qilish mumkin, qolganlari ham asosiy birlik sifatida AA bo‘lgan polikarboksilat sopolimeridir. Shuning uchun, Polikarboksilat uchun HPEG: AA ning taxminiy o‘rtacha tarkibi asosiy fraksiya uchun taxminiy 8:2 nisbatni tashkil qiladi. Yuqoridagi tahlilga asoslanib, sintez qilingan namunani funksional guruhga ega va shuning uchun AA va makromonomer o‘rtasida nisbatan to'liq sopolimerizatsiya, shu jumladan Polikarboksilat uchun monomer sifatida namoyon bo‘ldi.

Sintez qilib olingan deemulgatorni deemulgirlik xususiyatini aniqlash uchun Kakaydi neft konidan olingan neft namunasidan 4 ta shisha probirkaga 100 gr dan namunalar oldik va unga 0,001 gr deemulgator qo‘shib 70ºC haroratda suvli hammomda qizdirib keyin ikki soat davomida neft tarkibidagi suvni ajralishini kuzatdik. Suv to‘liq ajralib bo‘lgandan so‘ng o‘lchash natijalariga ko‘ra namuna uchun olingan neft tarkibidan 85-95% gacha suv ajralishiga erishildi.

ISSN 3030-3907



4-rasm. Sintez qilingan deemulgatorni neft tarkibidagi suv ajratish jarayoni.

Xulosa.

Maqolada YaMR spektroskopiya yordamida AA va HPEG ning molyar nisbatlarida 8:2 dan 4,5 gacha bo‘lgan akril kislotadan va qisqa zanjirli HPEG makromonomeridan sintez qilingan PCE sopolimerlarining mikro tuzilishi o‘rganildi. Tajribalar natijasi shuni ko‘rsatdiki neftni suvsizlantirish va tuzsizlantirish uchun uning 1 tonnasiga 10 grammdan 100 grammgacha deemulgatorlar qo‘shish yetarli deb hisoblanadi. Shu miqdorda qo‘shilgan deemulgatorlar neft emulsiyasidan suvni to‘liq ajrata olsa uning deemulgirlik xossasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘pgina deemulgatorlar qatori yuqorida sintez qilib olingan deemulgator ham suvda yahshi eriydi. Deemulgatorlarni haroratini ortib ketishi yoki tushib ketishi uning deemulgirlik xususiyatiga ta’sir qilmaydi. Shunday qilib, mahalliy ishlab chiqarishning yarim tayyor mahsulotlaridan foydalangan holda, neft tarkibidagi barqaror suv-neft emulsiyalarini suvsizlantirish va tuzsizlantirish jarayoniga tatbiq etgan holda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Samaradorlik jihatidan biz taklif etayotgan deemulgator import o‘rnini bosuvchi deemulgatorlar reagentidan kam emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S. K. Yusupov, F.M. Yusupov, G‘. M. Bekturdiev, G.R. Hakimova, I.L Latipova., Maxalliy xom-ashyolar asosida deemulgatorlar sintezi”, “Kimyo va kimyo texnologiyasi ilmiy-texnikaviy jurnali/ (2017)

2. Abduraxim Ochilov, Bobirjon Adizov. analysis of demulsifier production from sulfurized cottonseed oil and breakdown of water-oil emulsions. The Austrian journal of technical and Natural Sciences. DOI:10.29013/AJT-24-5.6-79-82

3. Abdulraheim Mahmoud Abdulraheim. Green polymeric surface active agents for crude oil demulsification. Journal of Molecular Liquids (2018). doi:10.1016/j.molliq.2018.08.153

4. M. Al-Sabagh a, A. M. Badawi a & M. R. Noor el-den. breaking water-in-crude oil emulsions by novel demulsifiers based on maleic anhydriede-oleic. Egyptian

ISSN 3030-3907

Petroleum Research Institute, Nasr City, Cairo, EgyptVersion of record first published: 14 Feb 2007. https://doi.org/10.1081/LFT-120003685
5. Ahmed M. Al-Sabagh, Nadia G. Kandile, Rasha A. El-Ghazawy A, Mahmoud R. Synthesis and evaluation of some new demulsifiers based on bisphenols for treating water-in-crude oil emulsions. Egyptian Journal of Petroleum (2011) 20, 67–7. doi:10.1016/j.ejpe.2011.06.008
6. А.Р Курбанов О.А. Салихова. М.А.Мирзаахмедова. Г.А.Байматова. Получение импортозамещающих деэмульгаторов на основе местного сырья. UNIVERSUM.(2019) http:// 7universum. com/ru/tech/ archive/item/6966
7. Farrukh Shehzad, Ibnelwaleed A. Hussein, Muhammad Shahzad Kamal, Waqar Ahmad, Abdullah S. Sultan & Mustafa S. Nasser. Polymeric Surfactants and Emerging Alternatives used in the Demulsification of ProducedWater:AReview.http://dx.doi.org/10.1080/15583724.2017.1340308
8. И.Р. Фаррахов Совершенствование процесса деэмульгирования на узле поподготовке сырой нефти. International journal of humanities and natural sciences. doi:10.24412/2500-1000-2022-11-1-99-103.
9. Kehinde Temitope Alao. Oluwaseun Ruth Alara. Nour Hamid Abdurahman. Trending approaches on demulsification of crude oil in the petroleumIndustry. Applied Petrochemical Research. https://doi.org/10.1007/s13203-021-00280-0
10. Abubakar Abubakar Uma, Ismail Bin Mohd Saaid, Aliyu Adebayo Sulaimon, RashidahBint Mohd Pilus. A review of petroleum emulsions and recent progress on water-in-crude oil emulsions stabilized by natural surfactants and solids. Journal of Petroleum Science and Engineering. DOI: 10.1016/j.petrol.2018.03.014
11. Mahmood M.S. Abullah A, Hamad A. Al-Lohedan A, Ayman M. Attah. Synthesis and application of amphiphilic ionic liquid based on acrylate copolymers as demulsifier and oil spill dispersant. Journal of Molecular Liquids (2016). http://dx.doi.org/10.1016/j.molliq.2016.03.01110/
12. Ahmad A. Adewunmi, Muhammad Shahzad Kamal. Demulsification of water-in-oil emulsions using ionic liquids: Effects of counterion and water type. Journal of Molecular Liquids (2019). https://doi.org/10.1016/j.molliq.2019.02.008

ISSN 3030-3907

O‘LCHASH VOSITALARINING NOANIQLIGINI MATEMATIK BAHOLASH METODIKASI

Shadiyev Suxrob Sadilloyevich
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘lchash qurilmalarining noaniqligini matematik usullar yordamida baholashga bag‘ishlangan. O‘lchov jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar va noaniqliklarni aniqlash va tahlil qilish o‘lchov natijalarining ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada noaniqlikni aniqlash uchun xatoliklar nazariyasi, statistik usullar va matematik modellashtirish yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘lchovlarning aniqligini oshirish va noaniqlikni kamaytirish uchun qo‘llaniladigan texnik va metodologik chora-tadbirlar ham muhokama qilinadi. Ushbu ish ilmiy tadqiqotlar va sanoat sohasida o‘lchov sifatini yaxshilashda foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: o‘lchash qurilmalari, noaniqlik, matematik baholash, xatoliklar nazariyasi, statistik tahlil, o‘lchov natijalari, aniqlikni oshirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы математической оценки неопределённости измерительных приборов. Анализ погрешностей и неопределённостей, возникающих в процессе измерения, играет ключевую роль в обеспечении достоверности результатов. В статье представлены теоретические основы теории погрешностей, статистические методы и математическое моделирование для определения уровня неопределённости измерительных систем. Кроме того, обсуждаются технические и методологические подходы, направленные на снижение неопределённости и повышение точности измерений. Работа будет полезна для научных исследований и промышленного применения с целью улучшения качества измерений.

Ключевые слова: измерительные приборы, неопределённость, математическая оценка, теория погрешностей, статистический анализ, результаты измерений, повышение точности.

Annotation: this article is devoted to assessing the uncertainty of measuring devices using mathematical methods. The identification and analysis of errors and inaccuracies that occur in the measurement process is important in ensuring the reliability of the measurement results. The article examines error theory, statistical methods, and mathematical modeling approaches to determine uncertainty. Technical and methodological measures used to increase the accuracy of measurements and reduce uncertainty are also discussed. This work will be useful in improving the quality of measurement in scientific research and industry.

ISSN 3030-3907

Keywords: measuring devices, uncertainty, mathematical evaluation, error theory, statistical analysis, measurement results, accuracy enhancement.

Kirish

Oktanometr – bu yoqilg'ining oktan sonini aniqlash uchun mo'ljallangan o'lchov qurilmasi. Oktan raqami, ayniqsa, avtomobil dvigatellarining ishlash xususiyatlarini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u yoqilg'ining detonaqiya qarshiligini ko'rsatadi. Oktanometrning o'lchov natijalari har doim ma'lum darajadagi noaniqlik bilan birga bo'ladi, chunki qurilma o'lchash jarayonida turli xil tashqi va ichki faktorlar tomonidan ta'sirlanishi mumkin.

Ichki yonuv dvigatellari uchun yoqilg'ining detonatsiyaga chidamliligini tavsiflovchi oktan soni (masalan, dizel yoqilg'ilarining yonuvchanligini tavsiflovchi setane nomi) motor yoqilg'isi sifatining o'lchovidir. Bu raqam izooktanning n-geptan bilan aralashmasidagi hajmli tarkibiga teng bo'lib, bu aralashma standart sinov sharoitida yoqilg'iga detonatsiyaga chidamliligiga teng. Sof izooktanning detonatsiyaga chidamliligi shartli ravishda 100 birlik, n-geptanniki esa 0 birlik sifatida qabul qilinadi[1]. Ushbu ekstremal qiymatlar orasidagi masshtabni aniqlash uchun izooktan va n-geptanning turlicha tarkibidagi aralashmalar tayyorlanadi. Sinov qilingan yoqilg'ini standart aralashmalar bilan solishtirish uchun UIT-65 yoki UIT-85 o'rnatilishi qo'llaniladi, bu o'zgaruvchan siqilish nisbati bo'lgan bitta silindrli ichki yonish dvigatelidir[2].

Oktan o'lchagichning ishlash printsipi yoqilg'ining dielektrik o'tkazuvchanligini o'lchashga va keyin oldindan tuzilgan kalibrlash egri chizig'i yordamida oktan sonini aniqlashga asoslangan. Kalibrlash bog'liqliklarini yaratish uchun n-geptan va dvigatel o'rnatish yordamida aniqlangan ma'lum oktan soniga ega yoqilg'i ishlatiladi. Sensorning original dizayni va dielektrik o'tkazuvchanlikni o'lchashning takomillashtirilgan usuli tufayli oktan o'lchagich natijalarning mukammal birlashuvini va ko'rsatkichlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Turli ishlab chiqaruvchilarning yoqilg'ilari, qoida tariqasida, "dielektrik doimiy - oktan soni" tipik kalibrlash bog'liqligidan og'ishlarga ega. Shu sababli, individual kalibrlashni qurish zarurati tug'iladi, bu erda ma'lum bir ishlab chiqaruvchidan yoqilg'i standartlar sifatida olinadi, ularning oktan raqamlari dvigatelni o'rnatishda oldindan belgilanadi. Oktan o'lchagich qurilma xotirasida 10 tagacha shunday individual kalibrlashni yaratish va saqlash imkonini beradi[3].

Dielektrik doimiyligini o'lchash yo'li bilan yoqilg'ining oktan sonini aniqlash vosita blokida sinovdan o'tgan yoqilg'i yordamida dastlabki kalibrlash yordamida bilvosita usul bo'lganligi sababli, uning aniqligi jadvalda ko'rsatilganidek, motor blokining o'zi yordamida oktan sonlarini aniqlash usulining cheklovlariga bog'liq:

ISSN 3030-3907

"Qaytalanuvchanlik" atamasi dvigatelni o'rnatishning ketma-ket o'lchovlar seriyasida bitta yoqilg'i namunasi uchun bir xil natijalarni (95% ishonch darajasi bilan) berish qobiliyatini tavsiflaydi[4].

"Reproduktivlik" atamasi turli xil dvigatel qurilmalarining bitta yoqilg'i namunasi uchun bir xil natijalarni (95% ishonch darajasida) berish qobiliyatini tavsiflaydi.



1-rasm: Oktanomaetr sxemasi

Ko'rsatkich yoqilg'i, ularning tarkibiy qismlari va aralashmalarining tezkor sifatini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Oktan sonini o'lchash natijalari tadqiqot (GOST 8226) va motor (GOST 511) usullaridan foydalangan holda olingan natijalar bilan yaxshi mos keladi va setan sonini o'lchash natijalari GOST 3122 bo'yicha olingan natijalar bilan yaxshi mos keladi.

Oktan soni	**Normativ hujjat**	**Konvergentsiya**	**Qayta tiklanadigan**
motor usuli bilan	ГОСТ 511	±0,5 birlik	±1,6 birlik.
tadqiqot usuli bilan	ГОСТ 8226	±0,5 birlik	±1,0 birlik

Технические характеристики

Ishlash harorati oralig'i	−10...+40 °S
Oktan sonini o'lchash diapazoni	67 dan 98 birlikgacha
Setan sonini o'lchash diapazoni	30 dan 60 birlikgacha
Oktan sonlarini o'lchashda ruxsat etilgan mutlaq xatolik chegarasi	±2,0 birlik
Setan sonlarini o'lchashda ruxsat etilgan mutlaq xatolik chegarasi	±2,0 birlik
O'lchangan qiymatlarni ko'rsatish	raqamli
O'lchangan oktan/setan sonini ko'rsatadigan raqamlar soni	3

ISSN 3030-3907

O'lchangan oktan/setan sonining eng kam ahamiyatli raqami birligi uchun narx	0.1 yed.
O'lchash uchun yoqilg'i hajmi	50 sm^3
Sensorning chuqurligi	90 mm
Yoqilganda ish rejimiga o'tish vaqti	3 s
Sensor o'rnatilgan umumiy o'lchamlar	470×60×35 mm
Og'irligi	0.7 kg
Qurilmaning elektr ta'minoti	2 ta Ni-Mh batareya o'lchami AA
Indikatorning orqa yorug'ligi o'chirilgan holda doimiy ish vaqti, kamida	80 ch

Noaniqlikni baholash, o'lchovlar sifatini baholash uchun zarurdir. Bu maqolada oktanometr o'lchov qurilmasining noaniqligini matematik yo'llar bilan baholash metodikasini ko'rib chiqamiz.

Noaniqlikni baholashning asosiy konsepsiyalari

O'lchovlarning noaniqligi, asosan, quyidagi ikkita turga bo'linadi:

1. **Tasodifiy xatolik** – bu xatoliklarning tasodifiy, kutilmagan sabablarga bog'liqligi.
2. **Sistematik xatolik**– bu o'lchov jarayonida bir xil sabablar tufayli takrorlanuvchi xatoliklar[5,6].

Noaniqlikni aniqlashda **standart og'ish σ** va **standart xatolik SE** kabi matematik tushunchalar ishlatiladi.

Oktanometr noaniqligini baholash

Tasodifiy xatolikni baholash

Oktanolmometrda o'lchashlar bir necha marta takrorlansa, har bir o'lchov natijasi tasodifiy xatoliklar bilan farq qiladi. Tasodifiy xatolikni baholash uchun, o'lchovlarning **standart og'ishi** (σ) hisoblanadi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{1}{N-1}\sum_{i=1}^{N}(x_i - \bar{x})^2}$$

Bu yerda:

x_i — o'lchov natijasi,

$\bar{x}$ — o'lchovlarning o'rtacha qiymati,

N — o'lchovlar soni.

O'lchovlarning o'rtacha qiymatini hisoblash quyidagi formulaga asoslanadi:

ISSN 3030-3907

$$\bar{x} = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^{N} x_i$$

Sistematik xatolikni baholash

Sistematik xatoliklar aniq bir sabablarga ko'ra yuzaga keladi va odatda o'lchovlarni takrorlash orqali bartaraf etilishi qiyin bo'ladi. Agar bir xil sharoitda o'lchovlar bir xil natijani ko'rsatsa, unda sistematik xatolik mavjudligini anglatadi.

Sistematik xatolikni aniqlash uchun o'lchov natijalari va ma'lum bo'lgan haqiqiy qiymat (ya'ni, nazariy yoki standart oktan raqami) orasidagi farq hisoblanadi:

$$\epsilon = x_{o'lchash\ natijasi} - x_{standart\ qiymat}$$

Bu yerda:

- x^ — o'lchov natijasi,
- $x_{s.q.}$— haqiqiy (yoki standart) oktan raqami.

Sistematik xatolikni minimallashtirish uchun qurilma va o'lchov jarayonlari yaxshilanishi kerak.

Oktanometrning noaniqligini baholash

Noaniqlikni baholashda **o'lchovlarning aniq qiymatiga nisbatan foizli xatolik** ham hisoblanadi:

$$X = \frac{\epsilon}{x_{standart\ qiymat}} * 100$$

Bu formula orqali o'lchovning haqiqiy qiymatga nisbatan xatolik foizi aniqlanadi.

Noaniqlikni baholash misoli

Shartlar:

Oktanometr tomonidan o'lchangan oktan raqami:

x_1=95, x_2=96, x_3=94, x_4=95, x_5=96.

Haqiqiy oktan raqami $x_{standart\ qiymat} = 95$

O'rtacha O'lchov

O'rtacha o'lchov natijasi:

$$\sigma$$

$$= \frac{(95 - 95{,}2\ \ )^2 + (96 - 95{,}2)^2 + (94 - 95{,}2)^2 + (95 - 95{,}2)^2 + (96 - 95{,}2)^2}{2a}$$

$$=$$

$$= \sqrt{(0{,}2)^2 + (0{,}8)^2} + (-1{,}2)^2 + (-0{,}2)^2 + (0{,}8)^2 = \sqrt{\frac{0{,}04+0{,}64+1{,}44+0{,}04+0{,}64}{4}} =$$

$$\sqrt{\frac{2{,}8}{4}} = \sqrt{0{,}7} \approx 0.84$$

ISSN 3030-3907

Noaniqlikni baholash

Tasodifiy xatolikning standart og'ishi σ≈0.84, bu o'lchovlarning noaniqligini ko'rsatadi. Foizli xatolikni hisoblash:

$$X = \frac{(X - X_{standart\ qiymat})}{x_{standart\ qiymat}} * 100 = \frac{(95{,}2 - 95)}{95} * 100 \approx 0.21\%$$

Oktanometr o'lchov qurilmasining aniqlik darajasini baholashda noaniqlikni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu erda sistematik va tasodifiy xatoliklarni o'rganish orqali o'lchov natijalarining ishonchliligini aniqlash mumkin. Matematik usullar yordamida hisob-kitoblarni amalga oshirish, qurilmaning ishlash samaradorligi va o'lchash natijalarining aniqroq bo'lishiga yordam beradi. O'lchovlarda noaniqlikni kamaytirish uchun qurilma konstruktsiyasi va o'lchash jarayonlarini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, natijalarning aniqligini saqlab turish uchun o'lchovlarni takrorlash, qurilmani muntazam kalibrlash hamda unga kerakli texnik xizmat ko'rsatish katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Khojjiyev, M., & Karshiyev, Z. (2024). METHODOLOGY OF INSPECTION OF GAS METERS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(11), 20-23.

2. Abdirahim o‘g‘li, Q. Z. (2024). O'LCHOV VOSITALARINI KALIBRLASH SERTIFIKATIGA QO’YILGAN TALABLAR VA METODLARI Xo ‘jjiyev Ma’murjon Yangiboyevich Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Metrologiya va standartlashtirish” kafedrasi (PhD) katta o ‘qituvchisi. Development of science, 367.

3. Таиров, Б. Б., Хўжжиев, М. Я., & Ўғли, Қ. З. А. (2023). ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОГНИТИВНО-ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ ИНЖЕНЕРОВ-ТЕХНИКОВ. Universum: технические науки, (5-2 (110)), 29-36.

4. Кобилов, А. Б. У., & Хужжиев, М. Я. (2017). Механизм поглощения H2S, CO2 и других сернистых компонентов водными растворами аминов. Вопросы науки и образования, (11 (12)), 25-26.

5. Toirov, B. B. (2021). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH VOSITASI SIFATIDA. Science and Education, 2(2), 338-343.

6. Шодиев, С. С. (2010). Интенсификация процесса тепловой обработки косточковых малосодержащих материалов с использованием нетради ционных методов подовда энергии: диссер. на соис. академ. степени магистра. Дис.… маг. техн. наук/СС Шодиев.

ISSN 3030-3907

7. Усанбоев, Ш. Х. У., & Хужжиев, М. Я. (2017). Основные свойства катализаторов гидроочистки. Вопросы науки и образования, (5 (6)), 50-51.

ISSN 3030-3907

ISSIQLIK ENERGETIKA OBYEKTLARINI KVANT HISOBLASH USULLARI ASOSIDA TADQIQ ETISH

Yakubova Noilaxon Sobirjonovna
Toshkent davlat texnika universiteti
E-mail: noila.yakubova@gmail.ru
Tel: +998946853505
Sadikova Shaxnozaxon Shukurillayevna
Toshkent davlat texnika universiteti
E-mail: shaxnoza.sadikova@gmail.ru

Annotatsiya. Energiya resurslaridan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish bugungi kunda issiqlik energetika tizimlarida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada texnologik jarayonlarning ko‘p o‘lchamli, noaniqlik va tasodifiylik xususiyatiga ega bo‘lgan sharoitlarida boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot doirasida boshqaruv parametrlarining noaniqlik sharoitida imitatsion modelini qurish, kvant superpozitsiya va interferensiya xususiyatlaridan foydalangan holda optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, kvant noravshan rostlagichlar asosida boshqaruv tizimini loyihalash masalalari yoritilgan. Taklif etilgan yondashuv issiqlik energetikasi obyektlarida zamonaviy intellektual texnologiyalarning samarali qo‘llanishi uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Kvant algoritmlari, issiqlik energetikasi, ko‘p o‘lchamli tizim, noaniqlik, interferensiya, superpozitsiya, kvant noravshan rostlagich, intellektual boshqaruv, energetik samaradorlik, isitish qozoni, matematik modellashtirish, optimal boshqaruv.

Аннотация. Рациональное использование энергоресурсов и повышение энергоэффективности являются сегодня одной из наиболее актуальных проблем в теплоэнергетических системах. В статье рассматривается вопрос повышения эффективности управления в условиях многомерных, неопределенных и случайных технологических процессов. В исследовании рассматриваются вопросы построения имитационной модели параметров управления в условиях неопределенности, выработки оптимальных управляющих решений с использованием свойств квантовой суперпозиции и интерференции, проектирования системы управления на основе квантово-нечетких регуляторов. Предложенный подход создает научную основу для эффективного использования современных интеллектуальных технологий на объектах теплоэнергетики..

Ключевые слова: Квантовые алгоритмы, тепловая энергетика, многомерная система, неопределенность, помехи, суперпозиция, квантовая

ISSN 3030-3907

неопределенность, интеллектуальное управление, энергоэффективность, производственное оборудование, математическое моделирование, оптимальное управление.

Abstract. Rational use of energy resources and increasing energy efficiency are today one of the most pressing problems in thermal power systems. The article considers the issue of increasing control efficiency in conditions of multidimensional, uncertain and random technological processes. The study considers the issues of constructing a simulation model of control parameters under uncertainty, developing optimal control decisions using the properties of quantum superposition and interference, designing a control system based on quantum fuzzy controllers. The proposed approach creates a scientific basis for the effective use of modern intelligent technologies at thermal power facilities.

Keywords: Quantum algorithms, thermal energy, multidimensional system, uncertainty, interference, superposition, quantum uncertainty, intelligent control, energy efficiency, production equipment, mathematical modeling, optimal control.

1.Kirish

Hozirgi vaqtda issiqlik energetika obyektlarida yuqori samarali boshqaruv tizimlarini yaratish, shuningdek, turli xil g‘alayonlarga nisbatan intellektual boshqaruv tizimlarini sintezlash uchun model va algoritmlarni ishlab chiqish nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Tizimlardagi omillarning noaniqligi va o‘zgaruvchanligi, ayniqsa, dinamik tizimlar holatini bashorat qilishda murakkabliklar tug‘diradi va boshqaruv masalalarining yechilishini qiyinlashtiradi. Shu sababli, dastlabki ma’lumotlarning noaniqlik sharoitida issiqlik energetika obyektlari va ularning texnologik agregatlarini intellektual texnologiyalar yutuqlaridan foydalangan holda zamonaviy boshqaruv usullari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqilgan kvant boshqaruv tizimi modelini qurishda taklif etilgan usulning yana bir afzalligi shundaki, o‘qitish va neyron tarmoq parametrlarini tanlash orqali hisoblash samaradorligi oshiriladi. Bu esa obyekt parametrlarini hozirgi qiymat asosida faqat tanlangan neyron tarmoq parametrlarini o‘qitish orqali tarmoq vaznlarini hisoblash va ularni korrigatsiya qilish jarayonini yengillashtiradi. Shunday qilib, boshqaruvning dinamik sohasida kechuvchi turli texnologik jarayonlarning modellarini yaratish mumkin. Bunday yondashuvda tezkorlik va aniqlik asosiy o‘rin tutadi, bu esa jarayon sifat ko‘rsatkichining oshishiga va samaradorlikning yuqori darajada bo‘lishiga olib keladi.

2.ADABIYOTLAR TAHLILI. Hozirgi vaqtda mavjud issiqlik energetikasi obyektlarida asosan tipik boshqarish qonuniyatlari va korrektlovchi qurilmalardan iborat bo‘lgan kombinatsiyalangan boshqarish tizimlari keng qo‘llanilmoqda.

ISSN 3030-3907

Bunday boshqarish tizimlarining asosiy kamchiliklari shundan iboratki, boshqarish obyektining dinamik xossalari, agregatlariining ish rejimlarini o‘zgarishi hamda boshqariluvchi parametrlarini doimiy ravishda sozlashni talab etadi. Hozirda energetika obyektlarining texnologik parametrlarini boshqarishda an’anaviy boshqarish qonunlaridan keng qo‘llanilmoqda, ya’ni ishlab chiqarishning taxminan 90-97% boshqurish qonunlari asosida ishlaydi. Buning sababi shundan iboratki, ularni boshqarishda qulayligi, funksional ravshanligi, hamda amaliyotga tadbig‘ining soddaligi hisoblanadi.

2.1.Ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan boshqarish qonuni parametrlarini sozlashning turli usullari

Turli xil noaniqlik xususiyatlarga ega ba’zi qo‘shimcha omillarni hisobga olish zarurati ushbu usullarni takomillashtirish muammosini keltirib chiqaradi. Chunki yuklamalar haqidagi dastlabki ma’lumotlarning ehtimollik xarakteri va noaniqligi, shuningdek, elektr tizimlari chastotasidagi o‘zgarishlarni hisobga olish zarur. Jumladan, amaliyotda Zigler-Nikols usuli keng qo‘llanilmoqda, lekin bu usullar tizimning barqarorlik xususiyati va robastlik zaxirasi haqida to‘liq ma’lumot bermaydi [1]. Ma’lumki, boshqarish tizimining barqarorligi va robastlik zaxirasi uning ishlashini ishonchliligini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, boshqarish qonuni parametrlarini sozlashda boshqarish obyektining dinamikasini o‘zgarishini hisobga olish zaruriyati tug‘iladi. Bunda boshqarish obyektining o‘tkinchi xarakteristikalari, obyektning dinamik xossalarini xususiyatlarini o‘zgarish diapazoni hisobga olgan holda boshqarish obyektini modellashtirish va uning asosida optimallashtirish zaruriyati tug‘iladi [2].

2.2. Noravshan qaror qabul qilish qoidalari

Kirishda sozlanish va teskari bog‘lanish signaliga asoslanib, Matlab dasturi yordamida real va nazariy holatlardan og‘ishi va joriy og‘ish o‘zgarishi hisoblanadi, so‘ngra noravshan qoidalarga asoslanib noravshan xulosalar bo‘yicha qayta ishlanadi, natijada noravshan parametrlar noravshan yechimlar orqali qayta ishlanadi va boshqarish qonuni koeffitsiyentlari aniqlanadi [3].Tizimlardagi omillarning noaniqligi va o‘zgaruvchanligi dinamik tizimlar holatini bashoratlovchi, o‘z navbatida boshqarish masalasini yechishni murakkablashishiga olib keladi. Maqolada ikki qatlamli kvant noravshan avtomatik boshqarish tizimlarini qurish masalasi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, uning quyi qatlamida standart PID-kontrollerlar joylashgan. Boshqarishning yuqori qatlamida noravshan rostlagich parametrlarini hisoblash algoritmi yotadi. Bu esa quyi qatlamda joylashgan PID-rostlagichlar uchun topshiriq vazifasini bajaradi [4].

2.3. Mamdani qaror qabul qilish algoritmi

ISSN 3030-3907

Noravshan boshqarish tizimi dinamik rostlash xatoligi va uning chegara qiymatlariga nisbatan integraldagi o‘zgarishlar diapazoni boshqaruv g‘alayonlarini ishlab chiqarish vazifasi yuklatiladi. Shuning uchun noravshan boshqarish tizimlarini sintezlashning eng sodda usuli sifatida Mamdani qaror qabul qilish algoritmidan foydalaniladi [5]. Mamdani algoritmini boshqa sohalarda (ekspert tizimlari va qaror qabul qilish tizimlari) foydalanish uchun tavsiya etilganligiga qaramay, u texnologik jarayonlarni noravshan boshqarish tizimlarini ishlab chiqishda ham samarali qo‘llanilishi mumkin [6].

3.TADQIQOT METODOLOGIYASI. Texnologik jarayonlarning modellarini ishlab chiqish muammosi yuqori sifatli boshqarish tizimlarini yaratish va uni ishlab chiqarishga tadbiq etishning muhim bosqichlaridan biri shu jarayonni dinamik xossalarini to‘liq ifodalovchi matematik model qurishdan iboratdir. Noravshan kvant xulosalashga asoslangan intellektual boshqarish tizimi bir necha noravshan rostlagich hamda noravshan kvant xulosasidan tashkil topgan bo‘ladi[7]. Kvant algoritm yacheykasi uchta matritsali operatorlarni o‘z ichiga oladi: superpozitsiya, kvant korrelyatsiyasi (yoki orakul) va interferensiya. Kvant algoritmi yacheykasini matematik ko‘rinishi quyidagicha:

$$QAG = \left[(Int \otimes^{n} I) \cdot U_F\right]^{h+1} \times \left[QAG\left[{}^{n}H \otimes^{m} S\right]\right], \quad (1)$$

bu yerda: I - operator; $\otimes$ – tenzor ko‘paytma; $S = IVH$ - obyekt xossasi.

Yuqoridagi tenglamaning o‘ng tomoni o‘rganilayotgan funksiyaning sifat xususiyatlarini fizik jihatdan tavsiflovchi kvant algoritmi yacheykasining turini ifodalovchi holat operatoridir [8].

Signalning ehtimoliy qonunini quyidagicha ifodalaniladi:

$$p(|0\rangle) + p(\langle 1|) = 1, \quad (2)$$

bu yerda $p(|0\rangle)$ –signalning joriy qiymati; $p(\langle 1|)$ - signalning virtual qiymati.

Superpoziyalashda signalning joriy qiymati va signalning virtual qiymati quyidagi matematik munosabat orqali ifodalanadi:

$$|\psi\rangle = \frac{1}{\sqrt{2}}\left(\sqrt{p(|0\rangle)}|0\rangle + \sqrt{(1-p(|0\rangle))}|1\rangle\right). \quad (3)$$

Interferensiyalash operatori $U(t)$ quyidagicha aniqlanadi:

$$U(t) = \begin{pmatrix} \cos(\delta\theta_j) & -\sin(\delta\theta_j) \\ \sin(\delta\theta_j) & \cos(\delta\theta_j) \end{pmatrix}. \quad (4)$$

I. Keltirilgan holatlarning superpozitsiya va ehtimolilik amplitudasini maksimallashtirishga muvofiq ravishda $|K_P{}^{FC1}\rangle \otimes |K_P{}^{FC2}\rangle \otimes |K_P{}^{FC3}\rangle \otimes |K_P{}^{FC4}\rangle$ holatlarning yangi munosabati hosil bo‘ladi [9].

ISSN 3030-3907

II. $\left|K_P^{FC1}\right\rangle$ - kvant holati hisoblanib, u quyidagicha matematik munosabat orqali tavsiflanadi:

$$\left|K_P^{FC1}\right\rangle = \frac{1}{\sqrt{2}}\left(y_{1,P}^{0}\left|0\right\rangle_{1,P} + y_{1,P}^{1}\left|1\right\rangle_{1,P}\right) \quad (5)$$

Noravshan kvant xulosalash algoritmi kvant qidiruv algoritmining yangi turi bo‘lib, algoritmik ravishda yechimi murakkab bo‘lgan boshqaruv muammolarini ham samarali hal qilish imkonini beradi. Bu tizimning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda bilimlar bazasi o‘zshakllanish xossasiga ega va buning asosida sifat jihatidan yangi boshqalarini yaratish imkoniyati mavjud. Noravshan kvant xulosasini shakllantirishda dastlab bilimlar bazasini yaratish talab etiladi [10]. Bunda bilimlar bazasida qoidalar soni cheklangan bo‘lishligiga xizmat qilinadi, chunki qidirish vaqti kamayadi. Taklif etilayotgan noravshan kvant xulosalash algoritmi $\left(\left|0\right\rangle\right.$ va $\left(\left\langle 1\right|\right.$ hisoblash bazisida kodlash orqali axborotni to‘playdi. Kvant hisoblash usullari o‘tish jarayonining ko‘rsatkichlariga qat’iy talablar qo‘yilganda ham rostlagich bilan boshqarish tizimini parametrlarini optimal qiymatlarini topishni imkonini beradi [11].

4.MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Ma’lumki, yoqilg‘i, havo, qizdirilgan bug‘ sarfi va uning bosimi kabi asosiy boshqariluvchi parametrlar keng diapazonda o‘zgarishi nochiziqli hisoblanadi. Bunday holda, tipik boshqaruv qonunlaridan foydalanish zaruriy natijani bermaydi, chunki jarayonning inersiyasi sababli boshqarish tizimining tezligi pasayadi, bu esa energiya xarajatlarining oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, issiqlik yuklamasidagi o‘zgarishlarining noaniqligi va ehtimollik xususiyatlari va boshqarish sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan bug‘ generatorining ish rejimlarini boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish uchun intellektual texnologiya usullaridan hisoblangan kvant algoritmlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur maqolada issiqlik energetikasi obyektlarini boshqarish uchun noravshan kvant rostlagichli sintezlash algoritmi taklif etilib, tegishlilik funksiyalarining standart shakllari va boshqarish qoidalarining minimal qiymatlaridan foydalanish imkonini beradi Issiqlik energetikasi obyektlarini boshqarishning muhim bosqichi shundan iboratki, tadqiq qilinayotgan jarayonlarning xususiyatini aniqlash uchun issiqlik qozonining dinamikasini ifodalash zarur hisoblanadi [12].

Gidrodinamik hamda termodinamik tenglamalardan foydalanilib issiqlik qozonining matematik modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$T_1\frac{d\varphi_{bb}}{dt} + T_2\frac{d\varphi_{bx}}{dt} + T_5\frac{d\varphi_{bss}}{dt} + B_1\lambda_{bs-1} + B_2\lambda + B_3\lambda_{sss} = 0$$

ISSN 3030-3907

$$T_3\frac{d\varphi_{bb}}{dt}+T_4\frac{d\varphi_{bx}}{dt}+A_1\lambda_{bs-1}+A_2\psi_{io}+A_4\varphi_{bb-1}+A_5\varphi_{bx-1}+A_6\varphi_{bb}+A_7\varphi_{bxs}+A_8\lambda_{sss}+A_9\varphi_{sss}=0$$

$$B_1\lambda_{bs}+B_2\varphi_{bb}+B_3\varphi_{bx}+B_4\varphi_{bb-1}+B_5\varphi_{bx+1}+B_6\varphi_{bx+1}=0 \quad (6)$$

$$A_1\lambda_{bs-1}+A_2\lambda_{bs}+A_3\psi_{io}+A_4\varphi_{yyx-1}+A_5\varphi_{yyx}+A_6\varphi_{bb-1}+A_7\varphi_{bx-1}+A_8\varphi_{bb}+A_9\varphi_{bx}+A_{10}\mu_y+A_{11}\Delta r+A_{12}\mu_x=0$$

$$B_1\psi_{io}+B_2\varphi_{yyx-1}+B_3\varphi_{yyx}+B_4\mu_y+B_5\Delta r+B_6\mu_x=0$$

bu yerda $T_{1\text{-}5}$, $B_{1\text{-}6}$, $A_{1\text{-}12}$ – bug‘ generatorining issiqlik, gidravlik va boshqa xossalarini tavsiflovchi doimiy koeffitsiyentlar; φ_{bb} , φ_{bx}, φ_{bss} – bug‘ generatoridagi bug‘ning bosimi va harorati, barabandagi suv sathi; φ_{yyx}, λ_{bs}, ψ_{io} - yoqiladigan yoqilg‘ining harorati, bug‘ sarfi va issiqlik oqimi; μ_y, μ_x, Δr, λ_{sss} -yoqilg‘i, havo sarfi, yoqilg‘i va havo aralashmasi, sochilishdagi suv sarfining o‘zgarishi.

Ishlab chiqilgan matematik model bug‘ generatori dinamikasining xususiyatlarni tavsiflaydi va uning xossalarini hisobga olgan holda yonish jarayonining yuqori sifatli boshqarish tizimini yaratish uchun xizmat qiladi [13]. Boshqarish obyektining dinamik parametrlari kechikuvchi xususiyatli birinchi tartibli inersial zveno bilan ifodalanib, u o‘choqdagi issiqlik ajralishining o‘zgarishi yoqilg‘ilarning o‘zaro nisbatiga bog‘liq. Turli xil yoqilg‘ilarni yoqish jarayonida bug‘ generatorining statik va dinamik xossalari yonayotgan aralashmadagi yoqilg‘i sarfi nisbatiga bog‘liq bo‘lib, bu esa boshqarish tizimini parametrlarini ushbu nisbatga mos ravishda korrektlashni talab qiladi. O‘choqda gaz-havo aralashmasining yonishi gaz va havo sarfining o‘zaro nisbatiga bog‘liqdir. U holda issiqlik miqdori Q , havo-gaz nisbati α va chiqishdagi gazlar harorati t o‘rtasidagi munosabat quyidagi uzatish funksiyasi ko‘rinishida ifodalandi [14]:

$$W_{Qt}(p)=\frac{a_p-B_pK_Q}{K_S}\cdot\frac{1}{1+T_1p};\quad W_{\alpha t}(p)=\frac{B_pK_\alpha}{K_S}\cdot\frac{1}{1+T_1p}; \quad (7)$$

Chiqishdagi gaz sarfi B_3 quyidagicha aniqlandi:

$$W_{QB_3}(p)=K_Q;\ W_{\alpha B_3}(p)=K_Q; \quad (8)$$


bu yerda K_S– harorat koeffitsiyenti.

Kompensatsiyalovchi qurilma parametrlarini to‘g‘ri tanlash asosida chiqishda bug‘ sarfi o‘zgarishining qiymatlari aniqlandi. (7) uzatish funksiyasini hisobga olgan holda g‘alayon signali f_2 bo‘yicha kompensatsiyalovchi qurilmaning uzatish funksiyasini aniqlandi:


$$W_{kk}^{f2}(p)=\frac{(1-W_{ber2}^{opt}(p))}{W_{ber2}^{opt}(p)}=[W_{ber2}^{bt}(p)]^{-1}=\frac{4T_{ber2}p(\frac{T_{ber2}^3p^3}{4}+T_{ber2}^2p^2+1.5T_{ber2}p+1)}{(T_{ber2}p+1)^2} \quad (9)$$

ISSN 3030-3907

Imitatsion modellashtirish natijasida isitish qozonidagi haroratni o‘zgarishining o‘tkinchi jarayon orqali tasvirlanishi, ya’ni qoidalar bazasi keltirilgan bo‘lib, bu algoritm asosida boshqarish tizimining kompyuter modeli qurildi (1-rasm):



1-rasm. Isitish qozonini kvant noravshan boshqarish tizimining kompyuter modeli



2-rasm. Avtomatik boshqarish tizimi o‘tkinchi jarayon grafiklarining qiyosiy tahlili:

1 – klassik PID-rostlagich; 2 — kvant noravshan rostlagich

XULOSA. O‘tkinchi jarayon grafigi natijalari shuni ko‘rsatadiki, bug‘ qozonining kvant noravshan boshqaruv tizimi yordamida yoqilg‘i va havo sarfini boshqarish jarayonidagi xatoliklar sezilarli darajada kamayadi. Bu boshqaruv tizimi an’anaviy usullarga nisbatan yuqori tezlikda ishlash imkonini beradi, ya’ni tizim tezroq javob qaytaradi va parametrlarni optimal qiymatga yaqinlashtirishda samaradorlik oshadi. Natijada, energiya sarfi kamayadi, chunki yoqilg‘i va havo miqdori oqilona taqsimlanadi va keraksiz isrof oldi olinadi.

Aniqroq qilib aytganda, kvant noravshan boshqaruv tizimi orqali o‘ta rostlash (overshoot) qiymati taxminan 15% ga kamaytirildi. O‘ta rostlash – bu tizim parametrlarining maqsadli qiymatdan oshib ketishi bo‘lib, uning kamayishi boshqaruv jarayonining barqarorligini va samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, boshqaruv aniqligi ±0,12 dan ±0,06 gacha yaxshilandi, ya’ni boshqaruv

ISSN 3030-3907

xatoligi ikki barobar kamaydi. Bu degani, bug‘ qozonining ishlash ko‘rsatkichlari yanada aniqroq va barqarorroq nazorat qilinmoqda.

Umuman olganda, kvant noravshan boshqaruv usuli texnologik jarayonlarda energiya va resurslardan samarali foydalanishga, jarayonlarning optimal holatda ishlashiga va chiqindilarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu boshqaruv tizimining qo‘llanilishi issiqlik energetikasi obyektlarining ish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Cirac J.I., Zoller P. (2010). “Goals and opportunities in quantum simulation”, Nature Physics. pp. 264–266.
2. Ульянов С.В., Мишин А.А., Миногин А.А. (2010). Информационная технология проектирования робастных баз знаний нечетких регуляторов. Ч. III: квантовый нечёткий вывод и квантовая информация // Системный анализ в науке и образовании: электрон. науч. журнал. – Дубна, № 3, pp.423- 430.
3. Lee J., Shung W., Kim E., Kim S. (2010). A new genetic approach structure learning of Bayesian networks: matrix genetic algorithm // International Journal of Control, Automation and Systems. – Korean Institute of Electrical Engineers. №4, pp.398-407.
4. Аведян Э.Д., Галушкин А.И., Пантюхин Д.В. (2011). Ассоциативная нейронная сет CMAC и эе модификации в задаче распознавания образов //Информационные технологии. Новые технологии. №7, стр.63–71.
5. Ульянов С.В., Нефедов Н.Ю. (2012). Эффективность и качество интеллектуального управления с применением квантового нечеткого вывода: Глобально неустойчивая динамическая система // Системный Анализ в Науке и Образовании: электрон. науч. журнал. №1. – [Электронный ресурс]. URL: http:/www.sanse.ru/archive/23.
6. S. Rastegar, R. Araújo, J. Sadati, and J. Mendes. (2017). “A novel robust control scheme for LTV systems using output integral discrete-time synergetic control theory,” Eur. J. Control, vol. 34. doi: 10.1016/j.ejcon.2016.12.006.
7. Сидиков, И. Х., Усманов, К. И., Якубова, Н. С., & Казахбаев, С. А. (2020). Нечеткое синергетическое управление нели-нейных систем. Journal of Advances in Engineering Technology, (2), 16-19.
8. Eshbobaev, J., Norkobilov, A., Usmanov, K., Khamidov, B., Kodirov, O., & Avezov, T. (2024). Control of Wastewater Treatment Processes Using a Fuzzy Logic Approach. Engineering Proceedings, 67(1), 39.
9. Usmanov, K. I., Yakubova, N. S., Urmanova, V. T., & Abdurasulova, G. E. (2023). Synthesis of a control system for the process of diesel fuel hydropuring

ISSN 3030-3907

with the Adar method. In E3S Web of Conferences (Vol. 458, p. 01025). EDP Sciences.
10. Усманов, К. И., Сарболаев, Ф. Н., Исломова, Ф. К., & Якубова, Н. С. (2020). Адаптивно нечеткое синергетическое управление многомерных нелинейных динамических объектов. Universum: технические науки, (3-1 (72)), 24-28.
11. Якубова, Н. С., & Абдурасулова, Г. Э. (2023). Исследование нечетких регуляторов в системах интеллектуального управления на основе квантовых вычислений. Universum: технические науки, (3-1 (108)), 22-25.
12. Yakubova, N., Usmanov, K., Turakulov, Z., & Eshbobaev, J. (2025). Application of Quantum Computing Algorithms in the Synthesis of Control Systems for Dynamic Objects. Engineering Proceedings, 87(1), 68.
13. Usmanov, K., Eshbobaev, J., & Yakubova, N. (2023). Modeling and Optimization of the Ammonium Solution Extraction Process. Engineering Proceedings, 56(1), 198.
14. Yakubova Noilaxon. Application of quantum algorithms in optimization of cognitive decision-making systems. Chemical Technology, Control and Management. Vol. 2025: Iss. 2, Article 8. DOI: https://doi.org/10.59048/2181-1105.1658

ISSN 3030-3907

TERMOBARQAROR GIBRID KOMPOZITLAR SINTEZI VA XOSSALARI

Asadova Farangis Ixtiyor qizi
Buxoro davlat texnika universiteti, kimyoviy texnologiya kafedrasi doktoranti.
Ostonov Firuz Istamovich
Buxoro davlat texnika universiteti, kimyoviy texnologiya kafedrasi dotsenti.
E-mail: firuzostonov916@gmail.com
Jumayev Jabbor Hamroqulovich
Buxoro davlat texnika universiteti, kimyoviy texnologiya kafedrasi dotsenti.
E-mail: jabbor.jumayev@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada, akril kislota oligomeri hamda tetraetoksisilan asosida termobarqaror polimer kompozitlar sintez qilish optimal sharoitlari o'rganildi. Sintez qilib olingan namunalar TGA, DTA analizi o'tkazildi . Olingan gibrid kompozit termik xususiyatlarini aniqlash maqsadida TGA, DTA tahlil qilindi.

Kalit so`zlar: termogravimetrik (TGA) tahlil, differensial termik (DTA) tahlil, akril kislota, tetraetoksisilan, inisiator, sopolimer.

Аннотация в данной статье изучены оптимальные условия синтеза термостойких полимерных композитов на основе олигомера акриловой кислоты и тетраэтоксисилана. Полученные образцы были проанализированы методами термогравиметрического (TGA) и дифференциального термического (DTA) анализа с целью определения термических свойств полученного гибридного композита.

Ключевые слова: термогравиметрический анализ (TGA), дифференциальный термический анализ (DTA), акриловая кислота, тетраэтоксисилан, инициатор, сополимер.

Annotation: this article investigates the optimal conditions for the synthesis of thermally stable polymer composites based on acrylic acid oligomer and tetraethoxysilane. The obtained samples were analyzed using thermogravimetric analysis (TGA) and differential thermal analysis (DTA) to determine the thermal properties of the resulting hybrid composite.

Keywords: thermogravimetric analysis (TGA), differential thermal analysis (DTA), acrylic acid, tetraethoxysilane, initiator, copolymer.

Kirish

Bugungi kunda harorat va olovga chidamli yangi materiallarni yaratish texnik, ekologik va iqtisodiy muammolarni hal etish zaruratidan kelib chiqib dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ushbu muammolarni bartaraf etishning kamida ikki xil yondashuvi mavjud: birinchisi — butunlay yangi materiallarni

ISSN 3030-3907

yaratish, ikkinchisi esa — mavjud materiallarni, xususan, keng miqyosda ishlab chiqarilayotgan polimerlarni, ularning xossalarini o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar bilan modifikatsiyalashdir. Ayniqsa, ikkinchi yondashuv iqtisodiy jihatdan samaraliligi bilan ajralib turadi, chunki bu yo‘l katta miqdordagi investitsiyalarni talab qilmaydi.

Avvalgi tadqiqotlarda fenollar va bor kislotasidan olingan poliefir hamda polimetilenefirlarning epoksid asosli kompozitsiyalar tarkibida qo‘llanilishi ularning mexanik mustahkamligini oshirishi va yonuvchanlik darajasini kamaytirishi mumkinligi aniqlangan [1]. Biroq, borpolimerlarning epoksid smola bilan, xususan, ularning o‘zaro kimyoviy ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan. Bu holat fenollar hamda bor kislotasidan hosil qilingan poliefir va polimetilenefirlarni o‘ziga xos xususiyatlar majmuiga ega bo‘lgan yangi kompozitsiyalarni yaratishda qo‘llash imkoniyatlarini oldindan baholashni murakkablashtiradi. Shu bilan birga, to‘yingan kauchuklar yoki siloksanlar (ayniqsa, friksion materiallar) asosidagi kompozitsion materiallarning xossalarini yaxshilash muammosi ham dolzarbdir. So‘nggi yillarda esa ekologik me’yorlarning qat’iylashuvi sababli, tarkibida keng qo‘llanilgan kanserogen asbestni kamroq toksik komponentlar bilan almashtirish zarurati dolzarb masalaga aylangan [2].

Ma’lumki, o‘zining bir qator fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xususiyatlari tufayli kanserogen bo‘lmagan silikat materiali asbestga muqobil sifatida qo‘llanishi mumkin. Kompozitsion materiallarning xossalarini boshqarishning yana bir samarali usuli esa ularning tarkibiga borni o‘z ichiga olgan poliorganosiloksan qo‘shimchalarini kiritishdir. Bunday qo‘shimchalar materialning funksional xususiyatlarini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin [3-5].

Poliorganosiloksanlar yuqori darajadagi termik barqarorlikka ega bo‘lib, past haroratlarga nisbatan ham sezuvchanligi juda past bo‘ladi. Ularning asosiy molekulyar zanjiri kremniy va kislorod atomlaridan iborat bo‘lib, kremniy atomining erkin valentliklari turli xil organik radikallar yoki guruhlar bilan to‘ldirilgan. Bu tuzilish xususiyati poliorganosiloksanlarning molekulasida fazoviy yoki tsiklofazoviy strukturalarning shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Polimer molekulasining zanjiri butunlay uzilishi uchun uning bir emas, kamida ikki yoki uch nuqtasida uzilishi talab etiladi. Bu holat esa, o‘z navbatida, energetik jihatdan barqaror bo‘lgan ikki yoki uchta Si–O bog‘ining buzilishini talab qiladi. Shu sababli, poliorganosiloksanlarning fazoviy bog‘langan tuzilmalari — ulardagi organik radikallarning tabiati qanday bo‘lishidan qat’i nazar — hatto 550 °C gacha bo‘lgan haroratda ham Si–O bog‘lari bo‘ylab molekulyar zanjirlarning destruktsiyasiga uchramaydi.


ISSN 3030-3907

Elektromusbat elementlar (masalan, Si, B, Al, P) elektrmanfiy elementlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori kimyoviy yaqinlikka ega bo‘ladi, bu jihatdan ular ugleroddan keskin farq qiladi. Boshqacha aytganda, kremniy, bor, alyuminiy, fosfor kabi elementlar elektromusbat elementlar (H, Si, B, Al, As, Sb, Bi va boshqalar) bilan nisbatan kuchsizroq bog‘lar hosil qiladi. Ammo elektrmanfiy elementlar (O, N, Cl, Br, F va boshqalar) bilan ular uglerodga nisbatan ancha mustahkam bog‘lanishga moyil bo‘ladi. Bor va kremniy atomlari bog‘lanish energiyasini uglerod atomlari bog‘lanish energiyasi bilan solishtirish ushbu fikrlarni tasdiqlaydi [4-9].

Yuqorida o‘rganilgan ma’lumotlar asosida termobarqaror polimer kompozitlar olish maqsadida akril kislota va tetraetoksisilan moddalarini reaksiyasi o‘rganildi.

Laboratoriya sharoitida kolbaga akril kislotaning suvdagi eritmasi tayyorlab olinib ustiga kaliy persulfat inisiatoridan qo‘shib qizdirildi va magnitli aralashtirgich bilian aralashtirib turildi. Aralashtirish 60 ^{0}C 20 minut davomida olib borildi. Hosil bo‘lgan oligomerlar cho‘ktiruvchi yordamida cho‘ktirib olinib spirtda eritildi va tetraetosisilan bilan 40^0 C da ta’sirlashtirldi. Reaksiyada tetretoksisilan gidrolizga uchrab ketmasligi uchun eritmaga bufer eritma ham qo‘shildi.

Akril kislota tarkibida karboksil guruh saqlagan to’yinmagan karbon kislota hisoblanadi. Kislota tarkibidagi karboksil guruhlar bilan tetraetilortosilikat molekulasi orasida eterifikatsiya reaksiyasi natijasida akril kislotaning tikilishi sodir bo‘ladi.




Akril kislota va tetraetoksisilan nisbatida tetraetoksisilanning miqdori ortib borishi bilan olingan polimerdagi tikilishlar miqdori ortib borishi bilan qovushqoqlik ortib boradi. Komponentlar mol nisbati 1.4:0.1 bo‘lganda tikilishlar soni va tetraetosisilan tarkibidagi etoksi gruhlar to’liq gidrolizga uchrab organik modda bilan kompozit hosil bo‘lishi sababli yarim qattiq massaga aylanadi.

Optimal nisbatda tanlangan komponentlarning turli haroratlarda tikilish (polimerlanish) jarayoni o‘rganildi. Harorat oshgani sari akril kislotadagi karboksil

ISSN 3030-3907

guruhlarining harakatchanligi ortadi, bu esa reaksion tizimning qovushqoqlik xossalarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Haroratning oshishi natijasida oligomer zanjirlarining o‘zaro bog‘lanishi kuchayib, tizim asta-sekin yarim qattiq holatga o‘tadi. Shunday qilib, akril kislotaning tetraetoksisilan bilan kimyoviy ta’sirlashuvi natijasida termik barqaror organosilikon polimer materiali olish mumkin. Tajriba sharoitlarini, komponentlar nisbati va haroratni nazorat qilish orqali kerakli xossalarga ega bo‘lgan organosilikon polimerlarni olish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, polimer sintez jarayonini belgilangan xossalarga yo‘naltirilgan holda boshqarish mumkinligini ko‘rsatadi.

Namunaning issiqlik xossalarini baholash maqsadida termogravimetrik (TGA) va differensial termik (DTA) tahlil o‘tkazildi. Tahlil grafigidan ko‘rinib turibdiki, namunada bir nechta muhim issiqlik hodisalari qayd etilgan.(1-rasm). DTA egri chizig‘ida 90.5 °C da boshlanuvchi sezilarli endotermik hodisa aniqlangan bo‘lib, bu jarayon 108.3 °C da maksimal cho‘qqiga (peak) ega. Ushbu cho‘qqi ostidagi maydon –124.1 μJ ga teng bo‘lib, issiqlik yutilishi bilan kechuvchi endotermik tabiatdagi o‘zgarishni ko‘rsatadi. Mazkur endotermik cho‘qqi ehtimol, namunadagi fizikaviy o‘zgarish (masalan, kristall qismlarning erishi) yoki kam molekulali uchuvchi komponentlarning bug‘lanishi bilan bog‘liq. TGA egri chizig‘i tahlili massaning haroratga bog‘liq ravishda kamayishini ko‘rsatadi. Dastlabki massaning kamayishi 100 °C atrofida kuzatilib, bu namlik yoki past molekulali organik moddalarning yo‘qolishiga bog‘liq deb taxmin qilinadi. Keyinchalik, 250–400 °C oralig‘ida massaning izchil kamayib borishi kuzatildi, bu esa namunada termik parchalanish jarayonining yuzaga kelganidan darak beradi. Bu bosqichda asosiy organik komponentlar yoki polimer zanjirlarining degradasiyasi sodir bo‘lgan bo‘lishi mumkin.



1 -rasm. Akril kislota va tetraetoksisilan asosida olingan kremniyorganik polimerning differensial termik tahlili

ISSN 3030-3907

Umuman olganda, TGA–DTA tahlili namunada 90–110 °C oralig‘ida endotermik o‘zgarishlar, 100 °C dan yuqori haroratlarda esa uchuvchi komponentlarning yo‘qolishi va strukturaviy parchalanishlar sodir bo‘lishini tasdiqlaydi. Bu esa moddaning termik barqarorligi, kristallik darajasi va tarkibiy xususiyatlari to‘g‘risida muhim ma’lumot beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ткачук А.И., Терехов И.В., Афанасьева Е.А. Реакционноспособные антипирены для эпок сидных смол. Часть 1 // Труды ВИАМ: электрон. науч.-техн. журн. 2020. №3 (87). Ст. 04. URL: http://www.viam-works.ru (дата обращения: 20.03.2020). DOI: 10.18577/2307-6046 2020-0-3-41-48.
2. Паноев Н. Ш., Ахмедов В. Н., Тиллаева Д. М. Получение и свойства термостойких кремнийорганических олигомеров на основе мочевиноформальдегидной смолы и тетраэтоксилана //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 5 (71). – С. 50-53.
3. Паноев Н. Ш. Получение термостабильных кремнийорганических полимеров на основе гипана //Universum: технические науки. – 2021. – №. 12-5 (93). – С. 42-46.
4. Zaynura K., Islom B. Structural and thermal characterization of a eguf thermostable coating via chromatographic-mass spectrometry analysis //Universum: технические науки. – 2025. – Т. 9. – №. 4 (133). – С. 33-36.
5. Beshimov I., Olimov B. Technological aspects of thermostable coating production //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 5. – №. 8 (125). – С. 54-57.
6. Beshimov I. et al. Synthesis and properties of organic silicon (oligo) polymers //Universum: технические науки. – 2023. – №. 12-8 (117). – С. 38-42.
7. Rakhimov F. F., Akhmedov V. N. Physico-chemical analysis of poly vinylethynyltrie to Xysisilane //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 1782-1787.
8. Bobir O., Vohid A. The effect of reaction duration and catalyst on the synthesis of arylvinyl esters.
9. Икромов У., Ширинов Ш.Д. Исследование растворимости олигополимера на основе гидролизованного полиакрилонитрила, содержащего медь, в различных растворителях // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2025. 5(134).

ISSN 3030-3907